




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



 I JOURNALS
MASTER LIST

 ISSN

INTERNATIONAL
C.O. 482
008
15089
INTERNATIONAL CENTER


 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic
Resource
Index
ResearchBID

 Google Scholar

 open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

2-JILD, 3-TO'PLAM
2025

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

TAHRIRIYAT

	<p>Bosh muharrir</p> <p>Mas’ul kotib</p> <p>Nashrga tayyorlovchi Xomidov Anvarbek Ahmadjon o’g’li – Tahrirlovchi Raxmonov Akmaljon Axmadjonovich – Texnik muharrir</p>
--	---

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI



Mamlakat iqtisodiyotini innovatsiyalar va yashil energiya asosida rivojlantirish masalalari

Olimova Nodira Xamrakulovna

i.f.n., professor, Farg'ona Davlat Universiteti, Farg'ona

Tursunova Sevara Abduraxim qizi

Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti,
Farg'ona Davlat Universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Innovatsiyalar va yashil energiya negizida iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi zamonaviy global iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlik va milliy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotida innovatsion jarayonlar bilan yashil energetika siyosatining o'zaro bog'liq jihatlari, xalqaro amaliyotdagi tendensiyalar va O'zbekiston sharoitida bu sohani rivojlantirish istiqbollari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya; yashil iqtisodiyot; qayta tiklanuvchi energiya; iqtisodiy o'sish; barqaror rivojlanish; energiya samaradorligi; raqamli texnologiyalar; ekologiya; milliy iqtisodiyot; global integratsiya.

Bugungi kunda global miqyosda iqtisodiy o'sish, texnologik taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylandi. So'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotidagi o'sish sur'atlari bilan birga, atrof muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va energiya manbalaridagi tanqislik kabi muammolar tobora kuchayib bormoqda. Bu holat ko'plab mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishning yangi modellari izlashga undamoqda.

Shunday zamonaviy modellaradan biri — innovatsiyalar va yashil energiya asosidagi iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasidir. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlikni saqlab qolish, energiya xavfsizligini ta'minlash va kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit yaratishga xizmat qiladi.

XXI asrda energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortayotgan bir paytda, an'anaviy energiya manbalari (neft, gaz, ko'mir) cheklanganligi hamda ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri iqtisodiy siyosatni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Yashil energiya va innovatsiyalar esa ushbu muammolarga yechim sifatida ko'rilmogda.

Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lib, ilmiy-texnika taraqqiyotni jadallashtiradi, yangi mahsulot va xizmat turlarini yaratadi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Yashil energiya esa ushbu jarayonning ekologik asosini ta'minlaydi — ya'ni iqtisodiy faoliyatni tabiatga

zarar yetkazmagan holda amalga oshirish imkonini beradi. Hozirgi zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida "yashil o'sish" va "innovatsion rivojlanish" tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bir qator xalqaro tashkilotlar — jumladan, BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Xalqaro energiya agentligi tomonidan qabul qilingan strategiya va dasturlarda mamlakatlar iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida innovatsiyalar bilan yashil energiyaning uyg'un rivojlanishi belgilangan.

O'zbekiston sharoitida ushbu mavzuning ahamiyati juda yuqori. Mamlakat iqtisodiyoti hozirgi kunda ham asosan an'anaviy energiya manbalari — neft, gaz va ko'mirga tayanadi. Shu bilan birga, respublika quyosh va shamol energiyasi bo'yicha katta tabiiy salohiyatga ega bo'lib, ushbu resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, ekologik muvozanatni saqlash va kelajak uchun energiya xavfsizligini kafolatlaydi." [1]

So'nggi yillarda mamlakatda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030" qabul qilindi, unda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, energiya samaradorligini ko'tarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu hujjatlar O'zbekistonda innovatsion va ekologik yo'nalishdagi iqtisodiy siyosatning asosiy poydevorini yaratdi.

"Innovatsiya" tushunchasi ilk marotaba avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter tomonidan 1911 yilda yozilgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu asarda muallif innovatsiyani "yangi g'oyalarni yaratish va ularni amalga tatbiq etish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi jarayon" sifatida ta'riflaydi. Shumpeter fikriga ko'ra, iqtisodiy taraqqiyotga asosiy turtki beruvchi omil — yangi g'oyalarning ishlab chiqarish jarayoniga samarali joriy etilishi bo'lib, u oddiy kapital yoki mehnat resurslari o'sishidan ko'ra kattaroq ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyani faqat yangi ilmiy kashfiyot sifatida emas, balki uni amalda qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlovchi ijodiy jarayon sifatida ham qarash mumkin. Ushbu jarayon turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. yangi mahsulot turlarini yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish;
2. ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
3. yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish va faoliyatni kengaytirish;
4. yangi turdagi xomashyo yoki tabiiy resurs manbalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish;
5. boshqaruv va tashkiliy tizimda innovatsion yondashuvlar joriy qilish.

Hozirgi global iqtisodiy tizimda innovatsiyalar mamlakatning raqobatbardoshligini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy forumi (WEF)ning "Global Competitiveness Index" ko'rsatkichlari ham mamlakatning innovatsion imkoniyatlari uning iqtisodiy o'sish sur'ati bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Innovatsiya tushunchasi faqat texnologiya yangiliklari bilan cheklanib qolmaydi — u ijtimoiy, ekologik va institutsional sohalarda ham o'z ifodasini topadi. Masalan, "yashil innovatsiyalar" atamasi bugungi kunda atrof-muhitga ta'sirni kamaytiruvchi, ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayonlarini qamrab oladi.

"Yashil iqtisodiyot" (Green Economy) tushunchasi ilk bor 2008 yilda BMTning Atrof muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan ilmiy-amaliy muomalaga kiritilgan. Keyinchalik, 2012 yilda bo'lib o'tgan "Rio+20" xalqaro konferensiyasida ushbu g'oya rasmiy ravishda qabul qilingan. Mazkur konsepsiya iqtisodiy o'sish jarayonini tabiiy muhitni asrash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi [2].

UNEP ta'rifida qayd etilishicha, yashil iqtisodiyot — bu inson farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan bir vaqtning o'zida ekologik xavflarni kamaytirish hamda resurslar tanqisligini oldini olishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir.

Barqaror rivojlanish nazariyasi ilk bor 1987 yilda BMTning "Our Common Future" (Brutland hisobot) nomli hujjatida ilgari surilgan bo'lib, u "hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish jarayoni kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim" degan tamoyilga asoslanadi [3]. Ushbu nazariyaga ko'ra, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'zaro to'ldiruvchi uch ustunni tashkil etadi. Shu tizimda innovatsiyalar ushbu ustunlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Yashil iqtisodiyot nazariyasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
 - chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash;
 - energiya samaradorligini oshirish;
 - qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish;
 - ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash.

Ushbu prinsiplar asosida shakllangan iqtisodiy siyosat ko'plab mamlakatlarni o'z rivojlanish modellari va ustuvor yo'nalishlarini qayta tahlil qilishga undamoqda.

Innovatsiyalar va yashil energiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni izohlovchi bir necha nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, zamonaviy iqtisodiy maktablar bu ikki omilni "ikki qutbli tizim" sifatida talqin qiladi: innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi kuch bo'lsa, yashil energiya uni ekologik jihatdan barqarorlashtiruvchi tyejagich vazifasini

bajaradi.

Innovatsiyalar va yashil energiyaning o'zaro ta'siri bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **Texnologik ta'sir** – zamonaviy energiya texnologiyalarining joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va resurs sarfini qisqartiradi.
2. **Iqtisodiy ta'sir** – innovatsion energetika loyihalari yangi ish o'rinlarini yaratib, investitsiya oqimini faollashtiradi.
3. **Ekologik ta'sir** – yashil texnologiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi, chiqindilar hajmini kamaytiradi.
4. **Ijtimoiy ta'sir** – aholida ekologik madaniyatni shakllantiradi va sog'lom yashash muhitini ta'minlaydi.

Shuning natijasida, innovatsiyalar va yashil energiyaning uyg'un qo'llanilishi iqtisodiy taraqqiyotning "uchlik samarasi"ni — ya'ni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foydani — ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiy adabiyotida "yashil o'sish" va "innovatsion rivojlanish" kontseptsiyalari turli iqtisodiy maktablar doirasida shakllangan va rivojlanib borgan.

- **Neoklassik nazariya** innovatsiyani bozor mexanizmlari orqali samarali taqsimlanadigan resurs sifatida izohlaydi.
- **Institutsional nazariya** esa innovatsiyalar hamda yashil siyosatni davlat institutlari va huquqiy tizim bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.
- **Evolutsion iqtisodiyot nazariyasi** texnologiyalarning bosqichma-bosqich takomillashib borishi va innovatsiyalar orqali iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini asosiy jihat sifatida ko'radi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan "Green Growth Model" kontseptsiyasida innovatsiyalar yashil iqtisodiyot rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu modelda ta'kidlanishicha, energiya samaradorligini oshirish va texnologik yangiliklarni joriy etish milliy iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot o'sishini uzoq muddatli barqaror rivojlanish bilan ta'minlaydi.

Innovatsiyalar va yashil energiya nazariy jihatdan bir-birini to'ldiradigan, iqtisodiy tizimning muvozanatini ta'minlovchi ikki muhim omil hisoblanadi. Ular birgalikda iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, atrof-muhitni muhofaza qiladi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Mamlakat miqyosida innovatsiyalar va yashil energiyani o'zaro integratsiya qilish iqtisodiy siyosatning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon barqaror rivojlanishning ilmiy va nazariy poydevorini shakllantiradi.

Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Yozef Shumpeterning ta'kidlashicha, har qanday iqtisodiy tizimning rivojlanishi "ijodiy buzilish" (creative destruction) jarayoni orqali amalga

oshadi, ya'ni eski texnologiyalar yangi innovatsiyalar bilan almashib, iqtisodiyot yangi bosqichga ko'tariladi.

Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiribgina qolmay, yangi bozorlar yaratish, eksport salohiyatini kuchaytirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy tizimda kompleks ijobiy o'zgarishlar yuzaga keltiradi.

Yashil energiya nafaqat atrof-muhitning ekologik tozaligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy tizimning diversifikatsiyasini ham rag'batlantiradi. Xalqaro energiya agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari jahon bo'yicha ishlab chiqariladigan elektr energiyasining yarmidan ortiq qismini tashkil etishi kutilmoqda.

Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi manbalarning asosiy afzalligi — ularning cheksizligi, arzonligi va ekologik tozaligidir. Ushbu sohaning yana bir muhim jihati — yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatidir. BMTning 2024 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha "yashil energiya" sohasida 13 milliondan ziyod kishi band bo'lib, bu ko'rsatkich 2030 yilga borib 25 million nafarga yetishi kutilmoqda [4].

Yashil energiya iqtisodiyotga bir necha yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- energiya importi xarajatlarini kamaytiradi;
- yangi ishlab chiqarish sohasini yaratadi;
- iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni kuchaytiradi;
- atrof-muhitni muhofaza qiladi;
- innovatsiyalarga bo'lgan talabni oshiradi.

Shunday qilib, yashil energiya nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiyot uchun yangi rivojlanish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi

Yaponiya "Green Innovation Strategy" orqali 2050 yilga borib "carbon neutral" — ya'ni nol darajadagi uglerod chiqindili iqtisodiyotga o'tishni maqsad qilgan [5]. Mamlakatda vodorod energiyasi va akkumulyator texnologiyalari rivojlanmoqda.

Janubiy Koreya esa "Digital Green New Deal" dasturi orqali yashil energetika, raqamli infratuzilma va innovatsiyani birlashtirgan yagona strategiyani amalga oshirmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyot" va innovatsiya sohasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2019 yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030" hujjati mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy poydevori bo'ldi [6].

Bu strategiyaga muvofiq:

- 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25% gacha oshirish;
- energiya samaradorligini 20% ga yaxshilash;
- yashil texnologiyalar va "aqli tarmoqlar"ni (smart grids) joriy etish;
- "yashil moliya" mexanizmlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

O'zbekistondagi ilk yirik quyosh elektr stansiyasi — **Masdar Solar Power Plant** (Navoiy viloyati) 2023 yilda ishga tushirilib, 100 MVt quvvatga ega bo'ldi. Shuningdek, **ACWA Power** kompaniyasi bilan hamkorlikda Buxoro va Samarqand viloyatlarida 1 GVtdan ortiq shamol energiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda [7].

Bundan tashqari, "Raqamli energetika" dasturi doirasida mamlakatdagi barcha yirik energiya korxonalarini raqamli boshqaruv tizimlariga ulanmoqda. Bu nafaqat energiya tejamlilikini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini 15–20% ga kamaytiradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda "Yashil moliya markazi" tashkil etildi. Uning vazifasi — ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro investitsiyalarni jalb etishdir. Bu orqali mamlakat xalqaro "Green Climate Fund" va "World Bank" grant dasturlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Innovatsiyalar va yashil energiya o'zaro uyg'unlashganda, ularning ta'siri ko'paytiruvchi (sinergik) samara beradi. Bu holatda texnologiyalar faqat iqtisodiy foyda keltirib qolmay, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Masalan, "aqlli shaharlar" (Smart City) kontseptsiyasida innovatsion boshqaruv tizimlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va raqamli infratuzilma birlashtiriladi. Natijada aholi turmush sifatini oshirish bilan birga energiya sarfi 30–40% ga kamayadi.

Bu jarayonning muhim jihati — kadrlar salohiyati va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini kuchaytirishdir. Universitetlar, texnoparklar va ilmiy markazlar innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa

Innovatsiyalar va yashil energiya bugungi zamonaviy taraqqiyotda nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil, balki kelajak avlodlar uchun sog'lom, ekologik toza va barqaror muhitni yaratishdagi asosiy vosita sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakat iqtisodiy siyosatini innovatsion texnologiyalar va ekologik ustuvorlik prinsiplari asosida qayta qurish strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning ilmiy va innovatsion salohiyati, tabiiy resurs imkoniyatlari hamda qulay geo-iqtisodiy joylashuvini hisobga olgan holda, yaqin yillarda mamlakat Markaziy Osiyo mintaqasida "yashil iqtisodiyot markazi" sifatida shakllanishi ehtimoli yuqori. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. (2023). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. UNEP (2012).
2. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*.

3. International Energy Agency (IEA) (2024). *World Energy Outlook*. – Paris: IEA.
4. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (2024). *Raqamli energetika dasturi ma'lumotlari*.
5. Ministry of Economy of Japan (2024). *Green Innovation Strategy 2050*. – Tokyo: METI.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори №442 (2019 йил 4 октябрь). *Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегияси – 2030*.
7. Masdar Company (2023). *Uzbekistan Solar Power Project Report*. – Abu Dhabi: Masdar.



DISKURS TURLARINING SHAKLLANISH OMILLARI

Pulatova Dilafruz Toxirjonovna

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

O'zbek tili va adabiyoti, tillar

kafedrası o'qituvchisi

e-mail: dilafruzpulatova0913@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada diskurs atamasining kelib chiqishi va qo'llanilishi, uning turlari haqida so'z boradi. Shuningdek matn va diskurs munosabati masalasi olimlarning fikrlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: diskurs, matn, muloqot, ijtimoiy, tilshunoslik

Annotation: this article discusses the origin and use of the term discourse. It also discusses the relationship between text and discourse based on the views of scholars.

Keywords: discourse, text, communication, social, linguistics

Til insoniyatning eng asosiy ijtimoiy aloqa vositasi hisoblanadi. Til orqali nafaqat ma'lumot almashiladi, balki g'oyalar, dunyoqarashlar va ijtimoiy munosabatlar ham shakllanadi. Til vositasida amalga oshiriladigan muloqot jarayoni bu-diskurs bo'lib, uning asosiy xususiyatlaridan biri kontekstga bog'liqlik va kommunikativlik hisoblanadi. Diskurs atamasi, lotincha "discursus" so'zidan kelib chiqqan holda, muloqot, muhokama va fikr almashish jarayonlarini ifodalashda keng qo'llaniladi. Dastlab "diskurs" va "matn" terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq "matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan.

Diskurs tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya va boshqa fanlar doirasida keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib, matn va nutqning ma'lum bir kontekstda qanday tashkil topishini o'rganadi. Bu tushuncha kommunikatsiya jarayonida nutqning tuzilishi, uni anglash va talqin qilish usullari bilan bog'liq bo'ladi. Diskurs tushunchasi tarixiy rivojlanish jarayonida turli fanlar tomonidan tadqiq qilingan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, diskurs shunchaki yozma yoki og'zaki matn emas, nutqiy faoliyatning ma'lum bir kontekstda qanday shakllanishi va ta'sir etishini ifodalaydi. Foucault, Habermas, Ricoeur va Derrida kabi bir qancha olimlarning asarlarida diskursga ta'rif berilgan va atroflicha yoritilgan.

A.I.Gorshkov alohida ko'rsatib o'tganidek, lingvistik adabiyotlarda "diskurs" terminining qat'iy bir ma'nosi yo'q, u ifodalaydigan hodisalar diapazoni juda keng, ya'ni "matnning qismi"dan yaxlit "nutq" gacha bo'lgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Yana uning qayd etishicha, "diskurs" so'zi "matnning qismi" ma'nosida termin bo'la oladi. Juda ko'p lingvistik adabiyotlarda "frazadan katta birlik", "murakkab sintaktik butunlik", "matn komponenti", "registr", "jumla", "prozaik strofa", "sintaktik kompleks",

“monologik jumla”, “kommunikativ blok” kabilar bilan sinonim bo’lar ekan, “diskurs” terminiga ehtiyoj yo’qligini ta’kidlaydi

M. N. Chernyavskaya esa o’zining “Лингвистика текста. Лингвистика дискурса” asarida diskursni tilning muloqotdagi funksional va stilistik jihatlarini o’rganish vositasi sifatida taqdim etadi. U diskursni tekstning semantik va pragmatik qatlamlarini birlashtiruvchi kompleks tizim deb biladi hamda uning tahlili orqali ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarni aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi.

Diskurs bu so’zlovchi va tinglovchi orasida o’zaro fikr almashtirish, savolga yarasha javob berish holatidir. Diskurs, ya’ni nutqiy muloqot jarayoni o’nlab etnik (milliy), etnografik, ijtimoiy, tarixiy, etik-estetik, falsafiy – madaniy va sof lingvistik (lisoniy) omillar bilan bog’liq bo’ladi. Tilning kommunikativ mohiyati va uning ijtimoiy tabiati – mana shu diskurs sababli o’z mazmun-mohiyatiga ega bo’ladi

XX asrga kelib, diskurs nazariyasi yangi yo’nalishlarga ega bo’lgan. Diskurs tushunchasi fransuz faylasufi Mishel Fuko tomonidan nazariy jihatdan keng yoritilgan bo’lib, u diskursni faqatgina lingvistik hodisa emas, balki bilim va hokimiyat o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tizim sifatida talqin qiladi. U diskurs orqali “haqiqat”ni va ijtimoiy tartibni shakllanishini, shuningdek, so’zlashuv qoidalari hamda normativ me’yorlarni ochib berdi. Klassik tilshunoslikda diskurs ko’proq gaplar, jumlar va ularning sintaktik, semantik strukturasi sifatida ko’rilgan. Ammo, XX asr tilshunoslik va poststrukturalizm oqimida diskurs tilning faqat formal jihatlarini emas, balki u orqali ifodalanuvchi ijtimoiy munosabatlar, ideologik me’yorlar va madaniy kontekstlarni ham o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, diskurs – bu nafaqat yozma yoki og’zaki nutq, balki undagi ijtimoiy va madaniy qurilish hamdir.

Y.S. Stepanov diskurs haqida yozar ekan, V.Z. Demyankov bergan ta’rifni eng yaxshi ta’rif deb hisoblaydi. Yani, “Diskurs – bitta gapdan yoki mustaqil gap qismidan ko’proq matnning ixtiyoriy fragmenti. Ko’pincha, lekin doimo emas qandaydir tayanch konsept atrofida jamlanadi. Harakatlanadigan shaxslar, obyektlar, holatlar, zamonlar, harakatlarni tasvirlaydigan umumiy kontekstni hosil qiladi. Diskurs gaplarning ketma-ketligidan emas, uni hosil qiladigan va talqin qiladigan, diskurs bilan “yaratiladigan” olam tomonidan aniqlanadi” deb hisoblaydi.

Shuningdek, diskursni kommunikativ harakatlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Nazariyalarga ko’ra, ideal – erkin, tenglik va ochiqlik sharoitida o’tkaziladigan diskurs orqali hamma ishtirokchi o’z g’oyalarini asoslab, konsensusga erishishi mumkin.

Shuni ham aytish joizki, ilmiy adabiyotlarda matn va diskursning bir-biriga nisbatan o’rni borasida turli qarashlar mavjud. Ulardan biri matn va diskursni sinonim tushunchalar sifatida ko’rish yondashuvidir. Masalan, rus lingvisti T. A. van Deykning fikricha, matn va diskurs amalda bir hodisaning ikki tomoni bo’lib, farq ularning tahlil metodlarida aks etadi. Shu bilan birga,

boshqa tadqiqotchilar, masalan, E. Benvenist, diskursni matndan ajratib, uni subyektga bog'liq holda tushuntiradi.

Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalar sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug'dirishi mumkinligi tilshunoslarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Shu bilan birgalikda, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to'liq muqobillikka ega bo'lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash ham unchalik ma'qul bo'lmasa kerak. Diskurs inson ongli faoliyatining bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning ko'rinishidir, deb yozadi Sh.Safarov.

Bunday tushunchalarga qaramay, hozirgi kunda qabul qilingan qarashlarga ko'ra, ko'plab olimlar sintetik yondashuvni maqul bilishadi. Bu qarashga ko'ra, matn va diskurs bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir:

-Matn – diskursning uslubiy va formaviy asosini tashkil etadi;
-Diskurs – matnning ijtimoiy, madaniy va siyosiy realizatsiyasini ifodalaydi.

Ushbu nuqtai nazar zamonaviy ilmiy ishlar va amaliy tahlillarda keng qo'llanilmoqda, chunki u tilni nafaqat grammatik struktura sifatida, balki uning ijtimoiy funksiyasini ham hisobga oladi.

Xulosa qilib aytganda, diskurs til va jamiyatning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi muhim tushuncha bo'lib, u nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarga ham taalluqlidir. Diskurs til orqali ifodalanadigan fikrlar tizimi sifatida insonlar o'rtasidagi muloqotni shakllantiradi va jamiyatda mavjud bo'lgan g'oyalar, qadriyatlar hamda ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi.

Shuningdek, matn va diskurs o'rtasidagi farqlarni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Matn faqat til birliklarining tartibga solingan shakli bo'lsa, diskurs esa ushbu matnning ma'no jihatdan talqin qilinishi, uni tushunish va jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq. Olimlar fikricha, har bir diskurs ijtimoiy kontekstga bog'liq holda shakllanadi va turli omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Demak, diskursni tahlil qilish orqali jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni, madaniy o'zgarishlarni va nutqiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash mumkin. Bu esa lingvistika, sotsiologiya, falsafa va boshqa fanlar kesishgan nuqtalarda diskurs tahlilining ahamiyatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. V. Xegay "O ponyatii diskurs // Filologiya masalalari", 2006, N 2 (11),
2. М. Н. Чернявская, Лингвистика текста. Лингвистика дискурса, Москва, 2013
3. L.R.Raupova "Diskursiv talqinda polipredikativ birliklar", Manisa-2022
4. Sh. Safarov "Pragmalingvistika"-Toshkent: O'zME, 2008
5. Michel Foucault "The Archaeology of Knowledge &the discourse on language",1981

QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI TAHLIL QILISH ASOSLARI

Madvaliyev Bekzod Baxodir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Telefon raqam: +998-90-919-79-92

E-mail: bekzodmadvaliyev932@gmail.com

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, korxonalarda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali mamlakat sanoatini xomashyo, aholini oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish uslubiyoti tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, korxonalar, salohiyat, iqtisodiy salohiyat, zahira, imkoniyat, bozor salohiyati, boshqaruv salohiyati, moliyaviy salohiyat, agrar siyosat.

Kirish. Qishloq xo'jaligi har qanday davlat iqtisodiyotining asosiy tayanch sohalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi agrar yo'nalishga ega mamlakatda bu tarmoqning ahamiyati beqiyosdir. Qishloq xo'jaligi korxonalarini mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan uzluksiz ta'minlab turish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng asosiy ishlab chiqarish bo'g'inlaridan biridir. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi korxonalarining o'rnini yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, yer resurslaridan samarali foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning qariyb to'rtdan bir qismini tashkil etadi. Aholining 40 foizdan ortig'i ana shu sohada mehnat qilayotgani ham bu tarmoqning bandlikdagi ulkan o'rnini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini turli shakllarda faoliyat yuritadi. Fermer xo'jaliklari asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Dehqon xo'jaliklari esa kichik hajmdagi oilaviy ishlab chiqarish subyekti bo'lib, ko'proq mahalliy ehtiyojlarni qoplaydi. So'nggi yillarda agrofirma va agroklasteralar shaklidagi yirik ishlab chiqarish tuzilmalarining paydo bo'lishi mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksportni bir zanjirda olib borish imkonini bermoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, paxta tozalash, yog'-moy, to'qimachilik, konservalash va go'sht-sut sanoati aynan qishloq xo'jaligidan olinadigan

xomashyo asosida faoliyat yuritadi. Shu sababli bu tarmoq sanoatni rivojlantirishda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda va eksport hajmini oshirishda bevosita ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalarini mamlakat byudjetiga soliqlar va eksportdan tushadigan daromadlar orqali katta hissa qo'shadi. Ular nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, qishloq joylarda yashovchi aholining turmush darajasini yaxshilaydi, infratuzilma rivojiga turtki beradi. Shu bilan birga, bu sohada muammolar ham mavjud: suv tanqisligi, texnikaning eskirganligi, ilmiy yondashuv va innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy qilinmagani shular jumlasidandir. Kelajakda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida suvni tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik toza mahsulot yetishtirish, raqamli boshqaruv tizimiga o'tish va eksportbop mahsulot turlarini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalarining texnik va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot ishlari asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ham zarur.

Adabiyotlar sharhi.

Qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiyotdagi o'rniga oid masalalar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlari sohaning nazariy asoslarini, rivojlanish omillarini va amaliy yo'nalishlarini tahlil qiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan [1] Sh. Vahobov, U. Egamberdiyev, O. Abdug'aniyev va boshqalar o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, eksport salohiyati hamda bandlikdagi o'rnini asoslab berganlar. Ularning fikricha, qishloq xo'jaligi nafaqat iqtisodiyotning asosiy tarmog'i, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi eng muhim omildir.

"O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi (2020–2030-yillar)" hujjatida tarmoqni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va eksport hajmini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Mazkur strategiya amaliyotda qishloq xo'jaligi korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy dastur hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda esa FAO (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti), Jahon banki, OECD va UNDP kabi tashkilotlarning hisobotlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish omillarining samaradorligi, agrar tarmoqlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda iqlim o'zgarishiga moslashuv masalalari keng yoritilgan. Masalan, FAOning 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, agrar sohada innovatsion texnologiyalar va suvni tejoychi tizimlarni joriy etish mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda A. Smit, D. Rikardo, K. Marks kabi klassik iqtisodchilar ham qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishning asosiy omili

sifatida e'tirof etganlar. Ularning nazariy qarashlarida yer, mehnat va kapital resurslarining o'zaro uyg'unligi agrar tarmoqning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar — M. Porter, [7] "Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors" (1980) asarida qishloq xo'jaligini iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikning asosiy drayveri sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, agrar tarmoq nafaqat ishlab chiqarish manbai, balki bandlikni oshirish, kambag'allikni kamaytirish va eksportni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda esa so'nggi yillarda chiqqan "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Agrosanoat majmuasi asoslari", "Fermer xo'jaligi faoliyatini boshqarish" kabi o'quv qo'llanmalar va monografiyalar soha bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni yanada boyitmoqda. Bu adabiyotlarda qishloq xo'jaligi korxonalarining samaradorligini oshirish, ularni innovatsion boshqaruvga o'tkazish va xalqaro tajribani joriy etish masalalari keng yoritilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va ijtimoiy farovonlikni oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar ushbu sohada samaradorlikni oshirish uchun resurslardan oqilona foydalanish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish va raqamli boshqaruv tizimini keng joriy etishni eng muhim omillar sifatida qayd etadilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tizimli tahlil, demografik dinamikani statistik usullarda o'rganish va taqqoslama yondashuv asosida ishlov berildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar Statistika agentligi, Jahon banki, IOM ma'lumotlari asosida qishloq xo'jalik subyektlari va mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida o'zaro bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida baholandi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatining tashkil etuvchilarini aniqlashtirish maqsadida mazkur maqolada guruhlash, taqqoslash, grafik, omillarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyati — bu tarmoqqa tegishli tashkilotlar (fermer xo'jaliklari, agro-firmalar, agroklastlar va boshqa agrar korxonalar) amalga oshira oladigan ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish va bozor imkoniyatlari jihatdan erkin foydalanish qobiliyati, hamda bu salohiyatni iqtisodiy jihatdan samarali ravishda ro'yobga chiqarish imkoniyatidir. Ushbu salohiyatni baholashda quyidagi jihatlardan alohida e'tiborga olinadi: yer va suv kabi tabiiy resurslar, mehnat resurslari, kapital va texnika-uskunalar, boshqaruv va innovatsiya imkoniyatlari, shuningdek bozor va infratuzilma sharoitlari. Masalan, tadqiqotlarda agrar korxonalarining resurs salohiyatini ko'rish uchun "resurs potentsiali"

tushunchasi keltirilgan — bunda moddiy-texnik, moliyaviy, axborot va inson resurslari hamda tashqi muhit omillari hisobga olinadi.

Avvalo, agrar korxonalarining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishda asosan quyidagi resurslar muhim rol o'ynaydi.

Tabiiy resurslar: Qishloq xo'jaligi uchun yer, suv, iqlim sharoiti, tuproqning unumdorligi va boshqa tabiiy omillar asosiy manbadir. Masalan, tadqiqotlarda agrar korxonalarining resurs potensialiga yer va suv kabi tabiiy resurslarning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlangan.

Mehnat va inson resurslari: Fermer xo'jaliklari va agrar korxonalarida malakali ishchi kuchi, boshqaruv jamoasi va agronomi-kadrlar muhim omil sanaladi. Ishchi kuchining yetishmasligi yoki yoshlar orasida agrar tarmoqqa ishtiyoq pastligi salohiyatni cheklashi mumkin.

Kapital va texnika-uskunalar: Texnik-mexanizatsiya, qayta ishlash inshootlari, transport va logistika infratuzilmasi agrar korxonalarining ishlab chiqarish hajmini va raqobatbardoshligini oshiradi. Masalan, tadqiqotlarda agrar korxonalarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari bu omil bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatilgan.

Innovatsiya va boshqaruv imkoniyatlari: Agrar korxonalar zamonaviy texnologiyalarni, raqamli boshqaruv va klaster shaklidagi tashkilotlarni joriy qilsa, salohiyatini yanada kengaytirishi mumkin. Masalan, Agricultural economics sohasida "klaster" modelining agrar tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha foydali ekanligi ta'kidlanadi.

Agrar mahsulotlar bozori, eksport imkoniyatlari, ichki talab, transport va saqlash infratuzilmasi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini belgilaydigan muhim omillar sanaladi. Bozorda raqobat kuchli bo'lganida, agrar korxonalarda samarali boshqaruv va mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish muhim bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda agrar bozorning raqobatbardoshligi borasida adabiyotlarda tahlillar keltirilgan. Agrar korxonalarining salohiyatini o'lchash uchun ikkita yondashuv keng qo'llanadi: resurs-yondoshuv (resurslar qanchalik yetarli) va samaradorlik-yondoshuv (resurslardan foydalanish qanchalik samarali) deb. Salohiyat manbalari bo'lishiga qaramay, agrar korxonalar ko'plab cheklovlarga duch keladi. Ularning natijaviy amalga oshirilishi turli sabablar bilan murakkablashadi. Quyidagilar muhim cheklovlar sifatida ko'rinadi:

Suv va yer resurslarining yetishmasligi yoki chiqimning yuqoriligi: Qishloq xo'jaligida suv-yo'l muammolari tez-tez uchrab turadi, tuproq unumdorligi pasayishi mumkin.

Texnika va infratuzilmaning eskirganligi, kapitalga investitsiyalarning pastligi: Resurslar bo'lsa ham, ularni yangilash uchun mablag' yetishmasligi korxonalarining salohiyatini to'liq amalga oshirishga xalaqit beradi.

Malakali ishchi kuchining yetishmasligi, yoshlar orasida agrar ishga ishtiyoqning pastligi: Bu holat agrar korxonalar uchun boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil qilishni qiyinlashtiradi.

Mahsulot narxlari o'zgaruvchanligi, eksport bozorlaridagi talabdagi pasayish, logistika va saqlash xarajatlarining ko'payishi — bular agrar korxonalarining foydasini pasaytirishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar va klaster tizimlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi: Masalan, O'zbekistonda klaster modeliga o'tish iqtisodiy salohiyatni oshirishda muhim ekanligi ta'kidlangan, lekin amaliyotni kengaytirish zarur.

Agrar korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash natijalaridan quyidagi muhim jihatlar ajralib turadi:

1. Resurs imkoniyatlari bilan birga, samarali boshqaruv va bozor moslashuvi salohiyatni ro'yobga chiqarishda kalit rol o'ynaydi. Ya'ni, yer va suv bo'lsa-ham, agar korxonalar zamonaviy uskunasiz, bozorga chiqmas ekan, salohiyat to'liq faollashmaydi.

2. Klasterlash va agregatsiyalash (ya'ni bir joyga birlashgan korxonalar, qayta ishlash korxonalar va logistika infratuzilmasi bilan bog'langan tizimlar) agrar korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, O'zbekistonda meva-sabzavot klasterlari bilan bog'liq tadqiqotlarda klaster modelining hududiy agroklastlar tarkibida innovatsiya va mahsulotni qayta ishlash imkoniyatlarini oshirishi tahlil qilingan.

3. Innovatsion faoliyat (masalan, texnologiya joriy etish, raqamli boshqaruv, noan'anaviy mahsulot turlari) agrar korxonalarini yuqoriroq darajaga olib chiqadi. Tadqiqotlarda aytilishicha, mintaqaviy agroklastlarining innovatsiya salohiyati ularning umumiy raqobatbardoshligiga va iqtisodiy salohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

4. Iqtisodiy salohiyatni oshirishda davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash muhim: subsidiyalar, kreditlar, yangi texnologiyalarga investitsiyalar, infratuzilma loyihalari agrar korxonalar uchun qo'shimcha imtiyozlar bo'lib xizmat qiladi.

5. Iqtisodiy salohiyatni oshirish muammolari mavjud bo'lishiga qaramay, strategik jihatdan agrar korxonalarining roli katta: oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, qishloq joylarda bandlikni yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash.

Xulosa va tavsiyalar.

Yurtimiz iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi nafaqat mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi, balki eksport salohiyatini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi hamda milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyati esa ularning ishlab chiqarish quvvati, resurslardan samarali foydalanish darajasi, texnologik yangilanish holati va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liq.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Fermer va dehqon xo'jaliklarining ko'payishi, agrosanoat majmuasining shakllanishi, davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va investitsiyalar ajratilishi

tarmoqning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq hali ham korxonalarining samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar mavjud: suv resurslaridan samarasiz foydalanish, texnik jihozlarning eskirganligi, marketing infratuzilmasining sust rivojlanishi hamda ishlab chiqarish jarayonida innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy qilinmagani shular jumlasidandir.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi, mahsulotni saqlash va qayta ishlash tizimining yetarlicha rivojlanmagani eksport imkoniyatlarini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda. Aholi bandligining katta qismi aynan agrar tarmoqda faoliyat yuritayotganini hisobga olsak, bu sohada samaradorlikni oshirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — suvni tejoychi tomchilatib sug'orish tizimlari, raqamli boshqaruv platformalari, dron va agrotexnik nazorat uskunalari keng qo'llash orqali hosildorlikni oshirish zarur.

2. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish — saqlash omborlari, sovitish tizimlari, logistika markazlari va qayta ishlash zavodlarini modernizatsiya qilish orqali mahsulotlarning qiymat zanjirini to'liq shakllantirish lozim.

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish — fermer va dehqon xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar hamda soliq yengilliklarini kengaytirish orqali ularning investitsion imkoniyatlarini oshirish kerak.

4. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish — zamonaviy agrobiznes, marketing, boshqaruv va texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali korxonalar faoliyatini professional darajaga ko'tarish zarur.

5. Bozor mexanizmlarini takomillashtirish — ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun eksport marketingi, brendlash va sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish muhim.

6. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish — barqaror dehqonchilik tamoyillarini qo'llash, melioratsiya tizimlarini yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlashga e'tibor qaratish lozim.

7. Kooperatsiya tizimini kuchaytirish — mayda ishlab chiqaruvchilarni birlashtiruvchi kooperativlar tashkil etish orqali ularning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

8. Raqamli iqtisodiyotga integratsiya — qishloq xo'jaligi sohasida "Agrodata", "Smart farming" kabi platformalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish, rejalashtirish va monitoring qilishda katta samara beradi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash,

eksport hajmini kengaytirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu sababli, davlat siyosatida agrar tarmoqni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish, xususiyl sektorni faol jalb etish va xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Sh. Vahobov, U. Egamberdiyev, O. Abdug'aniyev (2024) Hudud moliyaviy salohiyatini boshqarishning o'ziga xos jihatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. - T. - №. 1. - C. 18-26.
2. Muxametov Abubakr Baboyevich, & Matkuliyeva Sanobar Ismailovna. (2024). Qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini baholash.
3. Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A., Urazmatov J.M.,
4. G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D. B. Eshpulatov (2023) Moliya va soliqlar. darslik / // prof.
5. 5.B.A.Xasanov tahriri ostida. - T.: "Iqtisodiyot dunyosi".
6. 6.Yuldashev Fozil Turapovich (2023) "Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari" mavzusida 08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) 7.dissertatsiyasi avtoreferati// T.
7. M. Porter "Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors" (1980)
8. Буранова Л. (2020) Финансовый потенциал региона: понятие, сущность и значение для развития Сурхандарьинской области // Экономика и инновационные технологии. - №. 4. - С. 204-213.
9. Зулунова Ф.А. (2008) Корхоналар молиявий салоҳият таҳлилини такомиллаштириш. // Диссертация. // Самарқанд. - 216
10. Кузубов А.А., Денисенко И.А. (2024) Теоретические аспекты анализа использования основных средств сельскохозяйственных предприятий // RJOAS. 2017. №4.

BUXGALTERIYA HISOBI REGISTRRLARI VA SHAKLLARINI KORXONA FAOLIYATIDA QO'LLASH MASALALARI

Abduvohit Boltaboyev Abdug'aniyevich

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 4-bosqich k-17-22 guruh talabasi

A Abdullayev

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va menejment kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buxgalteriya hisobi registrarlari va ularning korxonada faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston korxonalarida qo'llanilayotgan an'anaviy va elektron registr shakllari qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, ularning samaradorligi baholangan. Natijalar buxgalteriya registrlarini raqamlashtirish moliyaviy hisobotlarning aniqligi va tezkorligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, registrlar, hisob shakllari, elektron hisob, moliyaviy axborot, xalqaro standartlar, avtomatlashtirish.

KIRISH

Buxgalteriya hisobi har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy faoliyatini ifodalovchi eng muhim axborot tizimi hisoblanadi. Korxonada faoliyatida sodir bo'layotgan har bir xo'jalik muomalasini to'g'ri qayd etish, nazorat qilish va tahlil qilish uchun buxgalteriya registrarlari va ularning shakllaridan samarali foydalanish zarur. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlari buxgalteriya hisobining yangi bosqichga o'tishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (XMHS) joriy etilishi natijasida hisobot tizimining ochiqligi, shaffofligi va ishonchliligi darajasi sezilarli oshdi. Shu bilan birga, amaliyotda hali ham an'anaviy buxgalteriya shakllari ustuvor bo'lib, ularning avtomatlashtirilmaganligi ma'lumotlar aniqligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxgalteriya hisobi nazariyasi tarixan xo'jalik jarayonlarini qayd etishning turli usullaridan boshlangan. XX asrda L. Pacheoli tomonidan "ikkioqlama yozuv" tizimi ishlab chiqilgach, buxgalteriya registrlarining shakllanishi va amaliy qo'llanilishi yangi bosqichga ko'tarildi. Hozirgi kunda xalqaro miqyosda buxgalteriya registrarlari va shakllari "IAS 1 — Presentation of Financial Statements" hamda "IFRS 7 — Financial Instruments" standartlari asosida yuritiladi.

Mahalliy olimlardan Sh. O'razaliyev (2018) o'z tadqiqotlarida buxgalteriya registrlarini shakllantirishda avtomatlashtirilgan dasturlarning o'rni va afzalliklarini tahlil qilib, ularning nazorat funksiyasini kuchaytirishini

ta’kidlagan. T. Xodjayeva (2020) esa registrlarning analitik va sintetik hisobot shakllari o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganib, ularni yagona elektron bazada yuritish samaradorligini isbotlagan.

Xorijiy adabiyotlarda esa J. Reeve, C. Warren va P. Fess (2017) asarlarida buxgalteriya registrlarining korxonalar boshqaruvida axborot tizimi sifatidagi o’rni keng yoritilgan. Ularning fikricha, elektron shakldagi registrlar an’anaviy daftar shaklidagi registrlarga nisbatan 40 foizgacha samaraliroq.

Demak, nazariy manbalar tahlili buxgalteriya registrleri nafaqat moliyaviy nazoratni, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot asosini ham ta’minlaydigan strategik vosita ekanligini ko’rsatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik kuzatish, qiyosiy va regressiya tahlil usullari qo’llanildi. Ma’lumotlar O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi va Moliya vazirligi hisobotlaridan olindi. Tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobi registrlarining avtomatlashtirilgan shakllari korxonalar moliyaviy ko’rsatkichlariga ta’siri regressiya modeli yordamida baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston korxonalarining 63 foizida buxgalteriya hisobi hali ham qisman an’anaviy shaklda yuritilmoqda. Quyidagi jadvalda buxgalteriya registrlarining qo’llanilish darajasi keltirilgan:

Ko’rsatkich	An’anaviy registrlardan foydalanayotgan korxonalar (%)	Elektron registrlardan foydalanuvchi korxonalar (%)
Kichik biznes sub’yektlari	72	28
O’rta korxonalar	54	46
Yirik korxonalar	31	69
Umumiy o’rtacha	63	37

Regressiya tahlilida buxgalteriya registrlarining avtomatlashtirilgan shakllarini joriy etish bilan korxonalar samaradorligi o’rtasidagi bog’liqlik quyidagi model orqali ifodalandi:

$$Y = 0.58x_1 + 0.27x_2 + 0.15,$$

bu yerda:

Y — korxonaning umumiy rentabellik ko’rsatkichi,

x₁ — elektron registrlardan foydalanish darajasi (%),

x₂ — axborot tizimlariga sarmoya ulushi (%).

Natijalarga ko’ra, elektron registr tizimlarini joriy etish korxonaning umumiy samaradorligini o’rtacha 15–25 foizga oshiradi. Bu esa buxgalteriya jarayonlarining tezligi, ma’lumotlarning aniqligi va tahliliy imkoniyatlarining kengayishi bilan bog’liqdir.

Xalqaro tajribada Germaniya, AQSh va Janubiy Koreyada barcha buxgalteriya registrleri to’liq avtomatlashtirilgan shaklda yuritiladi. Masalan, AQShda “QuickBooks”, “SAP ERP” kabi tizimlardan foydalanish natijasida hisobotlarni tayyorlashga ketadigan vaqt 40% ga qisqargan. O’zbekistonda

ham "1C: Buxgalteriya", "BAS Buxgalteriya", "SAP Business One" kabi tizimlarning joriy etilishi bu jarayonni sezilarli soddalashtirmoqda.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirilgan buxgalteriya registrlari nafaqat hisob-kitoblarni aniqlashtiradi, balki boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi, ichki audit tizimini mustahkamlaydi va korxonalar rentabelligini oshiradi.

XULOSA

O'zbekiston iqtisodiyotida buxgalteriya hisobi tizimi moliyaviy nazoratning eng muhim instrumenti sifatida faoliyat yuritadi. Buxgalteriya registrlari va ularning shakllarini to'g'ri tanlash korxonada moliyaviy axborotning ishonchligi, tahlil sifati hamda qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi. Amaldagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish buxgalteriya hisobi shakllarini modernizatsiya qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Elektron registr tizimlari korxonalar faoliyatini tez, shaffof va tahliliy asosda boshqarish imkonini beradi. Shunday ekan, korxonalar buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirishga sarmoya kiritish, xodimlarning axborot texnologiyalari bo'yicha malakasini oshirish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq ishlashga e'tibor qaratishlari lozim. Buxgalteriya registrlari tizimini raqamlashtirish orqali korxonalar moliyaviy ma'lumotlarining aniqligi oshadi, bu esa investorlar ishonchini mustahkamlab, mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu asosda buxgalteriya hisobi shakllarini takomillashtirish nafaqat korxonalar darajasida, balki milliy iqtisodiyot miqyosida ham muhim strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pacheoli L. *Summa de Arithmetica, Geometria, Proportioni et Proportionalita*. – Venice, 1494.
2. Reeve J.M., Warren C.S., Fess P.E. *Accounting Principles*. – South-Western College Pub, 2017.
3. O'razaliyev Sh. *Buxgalteriya hisobi asoslari*. – T.: Iqtisodiyot, 2018.
4. Xodjayeva T. *Hisob registrlarini avtomatlashtirishning nazariy asoslari*. – T.: TDIU, 2020.
5. IFRS Foundation. *International Accounting Standards (IAS 1, IFRS 7)*. – London, 2023.
6. OECD. *Digitalization of Accounting Systems*. – Paris, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun*. – Toshkent, 2019.
8. Davlat statistika qo'mitasi. *Korxonalarning raqamli iqtisodiyotdagi ishtiroki bo'yicha hisobot*. – Toshkent, 2024.
9. SAP SE. *Business Automation Report*. – Berlin, 2022.
10. World Bank. *Accounting and Auditing ROSC*.

STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA NORMATIV BAZA

Rayimjonov Muxammdqodir Sodiqjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Telefon raqam: +998-99-222-66-65

E-mail: muhammadqodirraumjonv@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada startap ekotizimini rivojlantirishda davlat siyosati, qonunchilik asoslari hamda normativ-huquqiy mexanizmlarning o'рни tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, imtiyozlar va amaldagi qonunlar tahlil etilib, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: startap, innovatsiya, ekotizim, davlat siyosati, normativ baza, texnopark, tadbirkorlik, investitsiya.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikning asosiy omili innovatsiyadir. Shu boisdan, startap ekotizimini shakllantirish masalasi ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Startaplar nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shadi. Startap ekotizimining muvaffaqiyatli shakllanishi esa, avvalo, davlat siyosati va normativ-huquqiy bazaning puxta ishlab chiqilganligiga bog'liq. Shu sababli, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi qonunlar va davlat dasturlarining samarali ishlashi bugungi kunda muhim masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030" qarori startaplar va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning davlat siyosati yo'nalishlarini belgilaydi. Innovatsion rivojlanish vazirligi va IT Park tomonidan nashr etilgan hisobotlar mamlakat startap ekotizimining joriy holati, moliyaviy va infratuzilmaviy imkoniyatlarini yoritadi. OECD (2021) va World Bank (2020) tadqiqotlari innovatsion ekotizimlarni rivojlantirishdagi davlat va xususiy sektor hamkorligi, venchur kapital tizimi va startaplarni xalqaro bozorga tayyorlash tajribasini taqdim etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jarayonida huquqiy hujjatlar tahlili, ekspert baholash, komparativ tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism.

Davlat siyosatining startap ekotizimidagi o'рни O'zbekistonning startap ekotizimini rivojlantirishdagi davlat siyosati ko'p qirrali va strategik yo'nalishlarga asoslangan. Davlat innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish

uchun qonunchilikni doimiy takomillashtirib, startaplar uchun qulay huquqiy muhit yaratishga intilmoqda. "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030" va "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlar startaplarni moliyaviy, huquqiy va infratuzilmaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Davlat siyosatining muhim jihati — yoshlarni innovatsion fikrlashga jalb qilish. Talabalar va yosh tadbirkorlar uchun startap markazlari, akseleratorlar va inkubatorlar tashkil etilgan. Bu markazlar yoshlar g'oyalarini amaliy loyihaga aylantirishga, investorlarga taqdim etishga va bozorni sinashga imkon beradi. Shu bilan birga, davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi (grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar) startaplarning tez rivojlanishiga xizmat qiladi. Normativ-huquqiy bazaning ahamiyati Startaplar uchun puxta normativ-huquqiy bazaning mavjudligi muhim shart hisoblanadi. Qonunlar startaplarni ro'yxatdan o'tkazish, intellektual mulkni himoya qilish, soliq va moliyaviy huquqlarini tartibga soladi. Shu bilan birga, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun innovatsion loyihalarga xususiy sarmoyalarni jalb etish mexanizmini yaratadi. Biroq amaliyotda ayrim kamchiliklar mavjud: startaplar uchun soddalashtirilgan ro'yxatga olish tizimi yetarli darajada ishlamaydi, venchur kapital bozorining rivojlanishi sust, va intellektual mulkni himoya qilish jarayoni murakkab. Shu sababli normativ-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur, xususan: soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish, venchur kapitalni rag'batlantirish va startaplar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish. Davlat dasturlari va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash O'zbekistonda startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun bir qator davlat dasturlari mavjud: "Yoshlar startapi", "Startup Initiatives", "Innovatsion g'oyalar tanlovi". Ushbu dasturlar orqali startaplar moliyalashtiriladi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shuningdek, IT Park, Yashnobod texnoparki va InnoCamp kabi infratuzilmaviy platformalar startaplar uchun zarur bo'lgan ofis, laboratoriya va mentorlik xizmatlarini taqdim etadi. Bu platformalar startaplarni global bozorga tayyorlash va tajriba almashish imkonini yaratadi. Moliyaviy va investitsion mexanizmlar. Moliyaviy jihatdan startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar, subsidiyalar, akselerator dasturlari va imtiyozli kreditlar joriy etilgan. Venchur investitsiyalar esa hali rivojlanayotgan bo'lib, davlat ularni rag'batlantirishga qaratilgan mexanizmlar yaratmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik (Jahon banki, UNDP, OECD) startaplar uchun qo'shimcha moliyaviy va bilim resurslarini taqdim etadi. Kadrlar tayyorlash va startap madaniyati Oliy ta'lim muassasalari va maxsus startap markazlari kadrlar tayyorlash va startap madaniyatini rivojlantirish uchun faol ishlamoqda. Talabalar real loyihalarda ishlash, investorlar bilan muzokara qilish va bozor talablarini o'rganish imkoniyatiga ega. Bu esa innovatsion ekotizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida O'zbekiston startap ekotizimi va davlat siyosati samaradorligi quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilindi:

1. Startaplar soni va o‘shish sur‘ati (2018–2024)
2. Startaplar uchun grantlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hajmi
3. Inkubator va akseleratorlar faoliyati samaradorligi
4. Startaplarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonining soddaligi

1-jadval

Startap ekotizimi ko‘rsatkichlari

Yil	Ro‘yxatga olingan startaplar soni	Davlat grantlari soni	Akselatorga qabul qilingan startaplar soni	O‘rtacha moliyaviy qo‘llab quvvatlash (mln so‘m)
2018	45	12	10	15
2019	62	18	15	18
2020	78	25	20	22
2021	95	30	25	25
2022	120	35	32	28
2023	150	40	40	32
2024	180	50	50	35

2018–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston startap ekotizimi barqaror o‘shish sur‘atini ko‘rsatdi. Ro‘yxatga olingan startaplar soni 45 tadan 180 taga yetib, 4 baravar oshdi. Shu davrda davlat grantlari va inkubator/akseleratorlar orqali qo‘llab-quvvatlash hajmi ham sezilarli darajada oshdi. O‘rtacha moliyaviy qo‘llab-quvvatlash esa 15 mln so‘mdan 35 mln so‘mga yetib, startaplarning loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Bu o‘shish startaplar faoliyatiga qulay muhit yaratish, davlat siyosati va normativ baza samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar va venchur kapital hajmi xalqaro standartlar bilan solishtirganda hali rivojlanish imkoniyatiga ega. Umumiy xulosa shuki, davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmalar startap ekotizimini barqaror rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar. Startap ekotizimini rivojlantirish — bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega jarayon. Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni amalga oshirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, yosh tadbirkorlarning salohiyati oshadi, hamda mamlakatning raqobatbardoshligi kuchayadi. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati va normativ-huquqiy baza startap ekotizimining poydevorini tashkil etadi. Agar normativ-huquqiy mexanizmlar yanada mukammal ishlasa, O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyot sari ishonchli qadam tashlaydi. Bu jarayonda soddalashtirilgan ro‘yxatga olish, soliq imtiyozlari, grant va subsidiyalar tizimini kengaytirish kabi choralar samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, startaplarni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash eng muhim shartdir. Xususiy investorlar, venchur kapital fondlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik startaplarni moliyaviy va tajriba jihatidan qo‘llab-quvvatlaydi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Normativ-huquqiy soddalashtirish: Startaplarni ro‘yxatdan o‘tkazish, intellektual mulkni himoya qilish va grant olish jarayonlarini soddalashtirish.
2. Moliyaviy rag‘batlantirish: Grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlarni kengaytirish, xususiy investorlarni jalb qilish uchun qo‘shimcha soliq va imtiyoz tizimini joriy etish.
3. Infratuzilmani rivojlantirish: Inkubatorlar, akseleratorlar va innovatsion markazlar sonini oshirish, ularni startaplar ehtiyojlariga moslashtirish.
4. Kadrlar tayyorlash: Universitet va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tadbirkorlik va startap yo‘nalishlarini kengaytirish, yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb etish.
5. Xalqaro hamkorlik: Startaplarni global bozorga tayyorlash, xalqaro mentorlik va grant dasturlari orqali tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish. Umuman olganda, startap ekotizimi faqat iqtisodiy o‘shish manbai emas, balki ijtimoiy barqarorlik va ilmiy-texnologik taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi uyg‘unlik hamda normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi mamlakatning innovatsion iqtisodiyot sari ishonchli qadam tashlashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030” to‘g‘risidagi farmoni. — Toshkent, 2022-yil.
2. “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun. — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 24-iyun, №O‘RQ–699.
3. “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun. — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 10-may, №O‘RQ–537.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2020-yil 15-iyun.
5. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. — Rasmiy veb-sayt: <https://mininnovation.uz>
6. IT Park Uzbekistan. “Startap ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot”. — Toshkent, 2024-yil.
7. OECD. “Public-Private Partnerships for Innovation: Lessons from International Experience.” — Paris, 2021.
8. World Bank. “Developing Innovation Ecosystems in Emerging Economies.” — Washington D.C., 2020.
9. Bekmurodov A. “Innovatsion iqtisodiyot va startap ekotizimining shakllanishi” // Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, 2023, №4.
10. Karimov N. “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining o‘rni” // O‘zbekiston iqtisodiyoti ilmiy jurnali, 2022, №2.

THE ORIGINS OF ENGLISH LITERATURE: ANGLO-SAXON POETRY AND PROSE

Dilnoza Anvar qizi Zoirova

anvarovnadilnoza06@gmail.com

Student, Chirchik State Pedagogical University

Scientific adviser: Said-Fozilxon Akmalxonovich Akmalxonov

Teacher, Chirchik State Pedagogical University

Annotation. This article explores the beginnings of English literature during the Anglo-Saxon period (450–1066 CE). It discusses how oral Germanic traditions and Christian influences shaped early English poetry and prose. Key works such as Beowulf, The Dream of the Rood, and The Anglo-Saxon Chronicle are analyzed to show the fusion of heroic and religious themes. The article highlights major figures like Caedmon, Bede, and King Alfred, emphasizing their role in developing the English literary language. It concludes that Anglo-Saxon literature laid the foundation for all later English writing.

Keywords: Old English Literature, Anglo-Saxon Poetry, Heroic Tradition, Christian Influence, Beowulf, The Dream of the Rood, King Alfred, Anglo-Saxon Chronicle, Medieval England.

INTRODUCTION

The origins of English literature trace back to the Anglo-Saxon period (c. 450–1066 CE), when both the English language and cultural identity began to emerge. This era marked the transformation of oral Germanic traditions into written literary forms, deeply influenced by heroic ideals and Christian spirituality. Composed in Old English, Anglo-Saxon poetry and prose offer the earliest expressions of English thought, imagination, and belief. These works reflect a society where valor, loyalty, and fate (wyrd) were harmonized with faith, humility, and divine salvation, creating a unique blend of pagan heroism and Christian ethics. This synthesis became the foundation of the English literary tradition, shaping the moral and artistic spirit of later centuries.

Historical and Linguistic Background: Following the collapse of Roman rule in Britain, the Angles, Saxons, and Jutes migrated from northern Europe and established kingdoms across the island. Their Germanic dialects gradually merged into Old English, the linguistic ancestor of modern English. Old English was highly inflected and characterized by alliteration, strong stress patterns, and compound metaphors (kennings). Because early Anglo-Saxon culture was largely oral, poetry served as the main form of historical record and moral instruction. The scop—professional poets or bards—preserved the collective memory of their tribes through performance. The later Christianization of England (7th century) brought literacy, monastic

learning, and Latin influence. This transition allowed oral poetry to be written down and encouraged the rise of prose for religious and historical purposes.

Anglo-Saxon Poetry: Forms, Themes, and Techniques

Heroic Poetry: The heroic tradition dominated early English verse. The most celebrated work, *Beowulf*, recounts the deeds of a Scandinavian hero who battles monsters and dragons, symbolizing the eternal struggle between good and evil. The poem combines pagan warrior ethos with Christian moral reflection, illustrating the spiritual duality of Anglo-Saxon culture. Other heroic poems, such as *The Battle of Maldon* and *The Battle of Brunanburh*, commemorate real battles and honor the loyalty of warriors who sacrifice themselves for their lords. These poems serve as moral exempla, reinforcing ideals of honor, bravery, and duty within a communal framework.

Christian and Allegorical Poetry: With the spread of Christianity, poets began using traditional verse forms to express religious devotion and spiritual insight. *Caedmon's Hymn*, often regarded as the first recorded English poem, praises God as the Creator. *Cynewulf*, another major poet, produced works like *Elene* and *Juliana*, which combine Christian legend with intense personal faith. *The Dream of the Rood*, one of the finest religious poems, portrays the Crucifixion from the perspective of the Cross itself—a vivid example of personification, symbolism, and fusion of pagan heroism with Christian redemption.

Elegiac and Lyric Poetry: The elegies—such as *The Wanderer*, *The Seafarer*, and *The Wife's Lament*—express the pain of exile, the transience of life, and the longing for spiritual stability. Their tone is reflective and philosophical, revealing an early form of existential awareness.

Stylistically, Anglo-Saxon poetry relies on:

- Alliteration: repetition of initial consonant sounds to unify lines.
- Kennings: metaphorical compounds (e.g., "swan-road" for sea).
- Caesura: a strong pause dividing each line.

Parallelism and variation: repetition of ideas through rephrasing to deepen meaning. This formal precision, combined with emotional restraint, gives Old English poetry its dignified, meditative character.

Anglo-Saxon Prose: Scholarship, Religion, and Chronicle Writing

Religious and Didactic Prose: The introduction of Latin learning by missionaries transformed England into a center of scholarship. The Venerable Bede (673–735), a Northumbrian monk, wrote in Latin but profoundly influenced English intellectual culture. His *Historia Ecclesiastica Gentis Anglorum* (*The Ecclesiastical History of the English People*) not only chronicled the Christianization of England but also helped shape English national consciousness.

A century later, King Alfred the Great (849–899) played a crucial role in promoting English prose. Concerned with the decline of learning, Alfred

initiated a translation program to make key Latin texts accessible to his people. His translations of Boethius's *Consolation of Philosophy*, Pope Gregory's *Pastoral Care*, and Bede's *Ecclesiastical History* represent the first major use of vernacular prose for educational and moral purposes. Alfred's efforts marked the beginning of English prose as a vehicle for intellectual life.

The Anglo-Saxon Chronicle stands as one of the most significant achievements of Old English prose. Compiled by monks beginning in the late 9th century, it records the history of England year by year. It combines factual reporting with stylistic artistry and provides valuable insights into early English politics, society, and language. The Chronicle's continuity—from King Alfred's time until the Norman Conquest—makes it the earliest continuous historical record in a European vernacular.

Cultural and Literary Significance: The Anglo-Saxon literary corpus reveals a culture negotiating between warrior fatalism and Christian salvation. It celebrates human courage in the face of mortality while affirming faith in divine providence. The synthesis of these two worldviews shaped the ethical foundation of English literature. Moreover, the aesthetic discipline of Old English poetry—its alliterative meter, metaphorical richness, and philosophical depth—influenced later English poets such as Geoffrey Chaucer, Edmund Spenser, John Milton, and even modern writers like T. S. Eliot and Seamus Heaney.

Anglo-Saxon prose, meanwhile, established the vernacular tradition of learning that would continue through Middle English and into the Renaissance. The period's intellectual achievements demonstrate that early English literature was neither primitive nor insular, but part of a vibrant European literary and cultural exchange.

CONCLUSION

Anglo-Saxon poetry and prose form the cornerstone of the English literary heritage, embodying the earliest synthesis of linguistic artistry, moral vision, and cultural identity. From the heroic grandeur of *Beowulf* to the spiritual introspection of *The Dream of the Rood* and the intellectual rigor of King Alfred's translations, early English literature reveals a civilization profoundly engaged with the power of language to express both earthly valor and divine truth. Far from being a mere prelude to later developments, the Anglo-Saxon period represents an age of creative genesis—a time when oral tradition evolved into written culture and when poetry became a medium of both communal memory and theological reflection. Through its intricate fusion of pagan heroism, Christian faith, and linguistic innovation, Anglo-Saxon literature stands not as a relic of the past, but as the living origin of English imagination and artistic consciousness.

REFERENCES

1. Bede, The Venerable. (1990). *The Ecclesiastical History of the English People* (L. Sherley-Price, Trans.). Penguin Classics.

2. Bradley, S. A. J. (Ed.). (1982). *Anglo-Saxon Poetry: An Anthology of Old English Poems in Prose Translation*. Everyman.
3. Fulk, R. D., & Cain, C. M. (2013). *A History of Old English Literature*. Wiley-Blackwell.
4. Greenfield, S. B., & Calder, D. G. (1986). *A New Critical History of Old English Literature*. New York University Press.
5. Liuzza, R. M. (Ed. & Trans.). (2012). *Beowulf: A New Verse Translation*. Broadview Press.
6. Treharne, E. (Ed.). (2000). *Old and Middle English c. 890–c. 1400: An Anthology*. Blackwell Publishers.
7. Godden, M., & Lapidge, M. (Eds.). (2013). *The Cambridge Companion to Old English Literature* (2nd ed.). Cambridge University Press.
8. Robinson, F. C. (1997). *The Cambridge Introduction to Old English Literature*. Cambridge University Press.
9. Orchard, A. (2003). *A Critical Companion to Beowulf*. Boydell & Brewer.
10. Irvine, S., & Godden, M. (Eds.). (2012). *The Old English Boethius: An Edition of the Old English Versions of Boethius's De Consolatione Philosophiae*. Oxford University Press.

Kichik sanoat zonalari faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish istiqbollari

Mirzayeva Shaxloxon Otamurod qizi

Farg'ona Davlat Universiteti iqtisodiyot yo'nalishi birinchi bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik sanoat zonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini, ularning tashkil etilish maqsadi va hozirgi holati, shuningdek, samaradorligini oshirish yo'llari tahlil etiladi. Tadqiqotda kichik sanoat zonalarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari yoritilgan. Muallif tomonidan sanoat zonalarida infratuzilmani rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada samarali tashkil etish va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga amaliy tavsiyalar sifatida foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonasi, samaradorlik, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, klaster tizimi.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida **kichik sanoat zonalari (KSZ)** tashkil etilib, ular hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda, mahalliy resurslardan samarali foydalanishda hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Kichik sanoat zonalari — bu ishlab chiqarish korxonalarini jamlab, ularning infratuzilma xarajatlarini kamaytirish, o'zaro kooperatsiya va innovatsion hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishni maqsad qilgan tizimli maydonlardir. Mazkur maqolada KSZ faoliyatini yanada rivojlantirish, mavjud muammolarni aniqlash hamda samaradorlikni oshirish istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Kichik sanoat zonalarining iqtisodiyotdagi o'rnini

Kichik sanoat zonalari, avvalo, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Bo'sh turgan sanoat obyektlari va yer maydonlarini iqtisodiy aylanishga kiritish;
2. Tadbirkorlarga tayyor infratuzilma asosida faoliyat yuritish imkonini yaratish;
3. Mahalliy xomashyo bazasidan foydalangan holda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
4. Ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish;
5. Hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining deyarli barcha viloyatlarida kichik sanoat zonalarini tashkil etilgan bo'lib, ular orqali minglab kichik korxonalar o'z faoliyatini boshladi. Natijada yangi texnologiyalar kirib keldi, ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlari oshdi.

2. Kichik sanoat zonalarini faoliyatining hozirgi holati

Hozirda kichik sanoat zonalarini mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim bo'g'iniga aylangan. Ular nafaqat ishlab chiqarish jarayonini markazlashtirish, balki innovatsiyalarni tatbiq etish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ammo tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim KSZlarda quyidagi muammolar mavjud:

- Zarur infratuzilma (yo'l, elektr, suv ta'minoti, aloqa tarmoqlari)ning to'liq ta'minlanmaganligi;
- Investorlar uchun imtiyozli kredit va soliq mexanizmlarining yetarlicha samarali ishlamasligi;
- KSZlarda joylashgan korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasi va klaster tizimining sustligi;
- Innovatsion loyihalarning kamligi va ilmiy salohiyatning past darajasi.

Bu muammolarni bartaraf etish kichik sanoat zonalarining iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirish yo'llari

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1. **Infratuzilma rivojini jadallashtirish.** Elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining barqaror ishlashi tadbirkorlikni yanada qulaylashtiradi.
2. **Soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish.** KSZ rezidentlari uchun soliq yengilliklari, imtiyozli kredit va subsidiyalar tizimini takomillashtirish zarur. Bu investorlarni jalb qilishni kuchaytiradi.
3. **Sanoat kooperatsiyasi va klaster tizimini rivojlantirish.** Hududdagi o'zaro bog'liq korxonalarni bir zanjirga birlashtirish, ularni innovatsion loyihalar doirasida hamkorlikka undash samaradorlikni oshiradi.
4. **Raqamli texnologiyalarni joriy etish.** KSZ faoliyatida raqamli boshqaruv, elektron hujjat aylanishi va onlayn monitoring tizimlarini joriy etish samaradorlikni oshiradi.
5. **Kadrlar salohiyatini mustahkamlash.** Sanoat sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslari, amaliy o'quv dasturlari yo'lga qo'yilishi zarur.

4. Kichik sanoat zonalarining rivojlanish istiqbollari

Kelgusida kichik sanoat zonalarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda quyidagi natijalarga erishish kutilmoqda:

- Kichik sanoat zonalari sonining ikki baravarga oshishi;
- Hududiy ishlab chiqarish hajmining 25–30 foizga ortishi;
- Eksport qiluvchi kichik korxonalar ulushining sezilarli ko'payishi;
- Innovatsion loyihalar sonining keskin o'sishi;
- Aholi bandligi va tadbirkorlik faolligining oshishi.

Bularning barchasi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash bilan birga, hududiy tenglikni kuchaytiradi, mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa. Kichik sanoat zonalari mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim o'rin tutadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun infratuzilmani yaxshilash, investitsion muhitni takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash orqali kichik sanoat zonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirish mumkin.

Natijada, kichik sanoat zonalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishning ham muhim omiliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3173-sonli qarori — "Hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, 2023-yil.
3. Qodirov A., "Hududiy iqtisodiy rivojlanish omillari", Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Karimova D., "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari", Farg'ona, 2022.
5. www.stat.uz — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari.
6. www.lex.uz — Normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotlar bazasi.

Development of the Activities of Small Industrial Zones and Prospects for Increasing Their Efficiency

Mirzayeva Shaxloxon Otamurod qizi

First-Year Master's Student of the Economics Department,
Fergana State University

Abstract. The development of small industrial zones (SIZs) has become an essential element of economic modernization and regional competitiveness, particularly in developing economies. These zones play a crucial role in supporting small and medium-sized enterprises (SMEs), enhancing production capacity, creating employment, and stimulating innovation. However, despite their advantages, SIZs often face challenges related to inefficient management, limited access to financing, and underdeveloped infrastructure. This paper explores the current state of small industrial zones, identifies key problems affecting their performance, and analyzes potential measures to increase their operational efficiency. The study concludes that the modernization of management systems, digitalization, and public-private partnerships are fundamental to ensuring the sustainable development of SIZs and their contribution to national economic growth.

Keywords: small industrial zones, efficiency, innovation, SMEs, industrial policy, regional development.

1. Introduction

Small industrial zones (SIZs) are designated territories aimed at fostering industrial activity by clustering small and medium enterprises (SMEs) with shared infrastructure and services. The main goal of such zones is to create favorable conditions for entrepreneurship, stimulate production diversification, and improve regional economic balance. Globally, the concept of industrial zoning has evolved as a response to the need for efficient spatial organization of production and rational use of resources.

In recent years, many developing countries, including Uzbekistan, Kazakhstan, India, and Turkey, have prioritized the expansion of SIZs as part of their industrial policy strategies. These zones are seen as engines of innovation and employment, promoting local manufacturing and reducing regional disparities. Nevertheless, the efficiency of their activities remains uneven, with many zones facing operational and structural constraints.

2. The Role of Small Industrial Zones in Economic Development

SIZs contribute significantly to economic growth by supporting the development of SMEs, which are often the backbone of national economies. According to the World Bank (2020), SMEs account for more than 90% of all businesses globally and generate up to 60% of employment. SIZs provide these enterprises with access to industrial land, utilities, logistics, and technology support, reducing the cost of doing business.

From a regional development perspective, SIZs help to decentralize industrial production, attracting investment to less developed regions. They promote regional diversification by integrating local suppliers into production chains and stimulating innovation through technological cooperation. Moreover, by concentrating industries in a defined space, SIZs contribute to environmental sustainability through shared waste management and energy-saving systems.

3. Challenges in the Operation of Small Industrial Zones

Despite their advantages, small industrial zones face a number of challenges that hinder their effectiveness. The most common issues include:

1. **Infrastructure Limitations.** Many SIZs lack adequate transport, energy, and communication networks. Insufficient infrastructure reduces the competitiveness of resident enterprises.

2. **Financial Constraints.** Limited access to credit and investment is a significant barrier for SMEs operating in SIZs. According to OECD (2021), around 40% of SMEs face difficulties obtaining financing.

3. **Management Inefficiency.** Ineffective administrative practices, lack of qualified personnel, and bureaucratic obstacles often slow down the decision-making process and discourage investors.

4. **Technological Gap.** Many enterprises within SIZs rely on outdated technologies, reducing productivity and innovation potential.

5. **Regulatory Barriers.** Excessive regulations and unclear property rights discourage entrepreneurship and hinder the integration of SIZs into global value chains.

4. Strategies for Increasing the Efficiency of Small Industrial Zones

Enhancing the efficiency of SIZs involves both structural reforms and managerial innovations. The following strategies are considered the most effective:

4.1. **Digitalization and Smart Management Systems.** Implementing digital tools in zone management can improve coordination between enterprises and administrators.

4.2. **Public-Private Partnerships (PPPs).** PPPs are a vital mechanism for mobilizing investment in SIZs. Governments can provide basic infrastructure and incentives, while private investors contribute capital and expertise.

4.3. **Access to Finance and Incentives.** Establishing specialized financial instruments—such as industrial development funds, preferential loans, and venture capital programs—can support SMEs.

4.4. **Human Capital Development.** Training programs and partnerships with universities and vocational schools are essential for providing skilled labor.

4.5. **Infrastructure Modernization.** Upgrading transport networks, communication systems, and energy supply is a prerequisite for sustainable development.

5. Prospects and Policy Recommendations

The future development of small industrial zones depends on effective integration into the national industrial strategy and the global economy. Governments should focus on:

- Policy harmonization.
- Innovation ecosystems.
- Export orientation.
- Monitoring and evaluation.

Countries that successfully implement these measures will enhance the contribution of SIZs to GDP growth, employment, and technological advancement.

6. Conclusion

Small industrial zones are powerful instruments for industrial diversification and regional development. Their success depends on effective management, innovation capacity, and government support. By adopting digital technologies, improving infrastructure, and promoting public-private cooperation, developing countries can significantly increase the efficiency and sustainability of SIZs. Ensuring favorable conditions for SMEs within these zones will not only accelerate economic growth but also foster social stability and technological progress.

References

1. OECD. (2021). SME and Entrepreneurship Outlook 2021. OECD Publishing.
2. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. *Harvard Business Review*, 76(6), 77–90.
3. World Bank. (2020). Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance.
4. UNIDO. (2019). Industrial Parks, Economic Zones and Clustering for Inclusive and Sustainable Industrial Development.
5. Zeng, D. Z. (2016). Special Economic Zones: Lessons from the Global Experience. World Bank Policy Research Paper No. 7240.
6. ADB. (2022). Industrial Development and Innovation in Asia: Trends and Policy Implications. Manila: ADB.
7. Ministry of Investments and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan. (2023). Development Strategy for Small Industrial Zones.

INNOVATSION KLASTERLARNI BOSHQARISH JARAYONIDA DAVLAT SIYOSATI VA BIZNES MANFAATLARINI UYG'UNLASHTIRISH**Rayimjonov Muxammdqodir Sodiqjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Telefon raqam: +998-99-222-66-65

E-mail: muhammadqodirraumjonv@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion klasterlarni boshqarish jarayonida davlat siyosati va biznes manfaatlarini uyg'unlashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Unda davlat-xususiy sektor hamkorligi (DXH) mexanizmlarining mohiyati, ularning klaster siyosatidagi o'рни hamda innovatsion rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada klaster boshqaruvining samarali modeli, davlat va biznes o'rtasidagi strategik hamkorlik, moliyaviy va institutsional mexanizmlar, infratuzilma va monitoring tizimlari ko'rib chiqilgan. Xorijiy mamlakatlar (AQSh, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo) tajribalari asosida O'zbekiston uchun mos bo'lgan boshqaruv yondashuvlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari asosida innovatsion klasterlarda manfaatlar muvozanatini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va startap ekotizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion klaster, davlat siyosati, biznes manfaatlari, davlat-xususiy hamkorlik, klaster boshqaruvi, innovatsion rivojlanish, infratuzilma, monitoring tizimi, strategik hamkorlik, O'zbekiston..

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan siyosatlar muhim o'rin egallaydi. Xususan, hududiy miqyosda shakllanayotgan innovatsion klasterlar — bir nechta korxonalar, ilmiy-ta'lim muassasalari, davlat organlari va biznes sub'ektlari o'zaro hamkorlik qilib, yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlar yaratishda tashkil etilgan tarmoqlar — innovatsion ekotizimning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Shu kontekstda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini (DXH) takomillashtirish — innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur jihatlardan biri. Ushbu maqolada davlat siyosati va biznes manfaatlarini uyg'unlashtirish, klaster boshqaruvi mexanizmlari hamda takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi – innovatsion klasterlarni boshqarishda davlat va biznes manfaatlarini qanday uyg'unlashtirish mumkinligini aniqlash; buning uchun nazariy asoslar ko'rib chiqiladi, xalqaro tajribalar tahlil qilinadi va amaliy takliflar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat siyosatining innovatsion jarayonlardagi o'рни haqida J. Stiglitz, M. Lundvall, C. Freeman kabi iqtisodchilar nazariyalari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ularning fikricha, innovatsion faoliyat bozor mexanizmlariga to'liq tayanolmaydi, chunki u katta xavf va uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli, davlat normativ, moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion muhitni shakllantiradi.

So'nggi yillarda OECD, UNIDO va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ham davlat siyosati va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish innovatsion siyosatning asosiy yo'nalishi sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jaroyonida huquqiy hujjatlar tahlili, ekspert baholash, komparativ tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida innovatsiyalar va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari mamlakatlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion klasterlar milliy iqtisodiyotda ilm-fan, ishlab chiqarish, ta'lim va moliyaviy sektor o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlovchi samarali tizim sifatida qaraladi. Klaster modeli ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion mahsulotlar yaratish uchun qulay muhit yaratadi. Biroq klasterlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun davlat siyosati va biznes manfaatlarini uyg'unlashtirish, ya'ni ularning strategik maqsadlarini bir yo'nalishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion klaster mohiyatan bir hududda joylashgan korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, startaplar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning o'zaro aloqasiga tayanadi. Ular o'rtasida samarali hamkorlik tizimi yaratilgan taqdirdagina, klaster innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirishga, eksport salohiyatini oshirishga va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Jahon tajribasida klasterlarni muvaffaqiyatli boshqarish ko'p hollarda "Triple Helix" modeli — davlat, biznes va universitetlarning o'zaro aloqasiga asoslangan tizim orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvda davlat muhit va siyosiy sharoitni yaratadi, biznes texnologiyalarni amaliyotga joriy etadi, ilmiy muassasalar esa bilim va innovatsion yechimlar bilan ta'minlaydi.

Davlat siyosati klasterlarning shakllanishi va faoliyat yuritishida strategik yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Davlatning asosiy vazifasi — innovatsion infratuzilmani yaratish, ilmiy tadqiqotlarga sharoit yaratish, investitsion muhitni yaxshilash, soliqqa oid imtiyozlar joriy etish hamda normativ-huquqiy bazani soddalashtirishdan iborat. Shu bilan birga, davlat siyosati biznes uchun ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga, xususiy sektorni innovatsion faoliyatga jalb etishga va ular uchun moliyaviy rag'batlar yaratishga qaratilishi lozim. Innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyati aynan davlat siyosatining muvozanatli va barqarorligiga bog'liq.

Boshqa tomondan, biznes sektori innovatsion klasterlarning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning manfaatlari iqtisodiy foyda, raqobat ustunligini qo'lga kiritish, yangi bozorlarga chiqish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq. Shu sababli klaster boshqaruvida biznes manfaatlari inobatga olish — investitsiya jarayonlarini jadallashtirish, risklarni kamaytirish va hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Bunda davlatning roli nazorat qiluvchi emas, balki sheriklik asosida tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi bo'lishi kerak. Davlat va biznes o'rtasida ishonchli hamkorlik mavjud bo'lgandagina innovatsion jarayonlar tezroq rivojlanadi.

Davlat siyosati va biznes manfaatlari uyg'unlashtirishning samarali yo'llaridan biri bu davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tizimidir. DXSH mexanizmlari infratuzilma yaratish, texnoparklar qurish, startaplarni moliyalashtirish, venchur fondlar tashkil etish kabi yo'nalishlarda keng qo'llanadi. Ushbu mexanizm orqali davlat va xususiy sektor risklarni teng taqsimlaydi, foydani adolatli bo'lishadi va umumiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshiradi. Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, innovatsion kengashlar tashkil etish, hududlararo tajriba almashuvini yo'lga qo'yish ham klaster boshqaruvida samarali natija beradi.

O'zbekiston sharoitida ham innovatsion klasterlar tizimi bosqichma-bosqich shakllanmoqda. "Yashnobod" innovatsiya texnoparki, "Mirzo Ulug'bek innovatsiya markazi", "IT Park" va boshqa hududiy texnoparklar bu yo'nalishdagi muhim bosqichlardir. Ushbu markazlar davlat tomonidan yaratilgan infratuzilma va huquqiy sharoit asosida faoliyat yuritadi, biznes esa u yerda yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etadi. Shu bilan birga, venchur moliyalashtirish bozorining sust rivojlanishi, kadrlar malakasining yetarli darajada emasligi, ayrim normativ to'siqlar va hududiy tafovutlar kabi muammolar mavjud. Kelgusida bu muammolarni hal etish uchun davlat siyosatini yanada liberallashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini kuchaytirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur

Xalqaro tajribaga nazar tashlansa, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Isroil kabi davlatlar innovatsion klaster siyosatini milliy iqtisodiy strategiyaga aylantirgan. U yerda davlatning vazifasi klasterlarni bevosita boshqarish emas, balki ularning rivojlanishi uchun qulay ekotizim yaratishdan iborat. Bunda davlat ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtiradi, biznes esa ularni tijoratlashtiradi. Shunday model O'zbekiston uchun ham mos keladi — davlat strategik yo'naltiruvchi, biznes esa innovatsion harakatlantiruvchi kuch sifatida bir-birini to'ldiradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida innovatsion klasterlarni boshqarish jarayonida davlat siyosati va biznes manfaatlari uyg'unlashtirishning quyidagi mezonlari bo'yicha tahlil qilindi:

1. Moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish
2. Normativ-huquqiy bazani soddalashtirish

- 3. Kadrlar salohiyatini oshirish
- 4. Raqamli boshqaruvni joriy etish

1-jadval

Innovatsion klasterlarni boshqarishdagi asosiy muammolar va tahlil

Nº	Yo‘nalish	Amaldagi holat	Muammo	Tahliliy izoh
1	Davlat siyosati	Klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar qabul qilingan	Ijro mexanizmlari sust	Siyosiy tashabbuslar amaliy natijaga to‘liq aylanmagan
2	Biznes ishtiroki	Xususiy sektor klasterlarda qatnashmoqda	Faol ishtirok yetarli emas	Biznes manfaatlarini yanada rag‘batlantirish zarur
3	Moliyalashtirish	Davlat grantlari mavjud	Venchur kapital bozori sust	Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish lozim
4	Infratuzilma	Texnoparklar tashkil etilgan	Hududiy nomutanosiblik bor	Klasterlarni viloyatlarda ham rivojlantirish kerak
5	Kadrlar salohiyati	IT va innovatsion sohalarga qiziqish ortmoqda	Innovatsion menejerlar yetishmaydi	Ta‘lim tizimini klaster ehtiyojlariga moslashtirish zarur

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekistonda innovatsion klasterlarni rivojlantirish bo'yicha dastlabki asoslar yaratilgan bo'lsa-da, ularning to'liq ishlashi uchun biznes manfaatlarini kuchaytirish, moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va inson resurslarini rivojlantirish zarur. Davlat siyosati va xususiy sektor o'rtasida o'zaro manfaatdorlikni ta'minlash — klasterlarning muvaffaqiyat kalitidir.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion klasterlar O'zbekiston iqtisodiyotida yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Davlat siyosati bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida klasterlarni shakllantirish, infratuzilma yaratish va huquqiy asoslarni mustahkamlash borasida salmoqli natijalarga erishdi. Shu bilan birga, tahlillar ko'rsatadiki, innovatsion klasterlarning to'liq samaradorligi biznes manfaatlarini boshqaruv tizimiga yanada chuqurroq integratsiya qilish bilan bevosita bog'liqdir. Xususiy sektorning sust ishtiroki, venchur kapital bozori rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi va hududiy nomutanosiblik kabi omillar klasterlar faoliyatida muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Bu esa davlat siyosatining amaliy natijalarini cheklab qo'yadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini kengaytirish — klasterlarni rivojlantirishda davlat infratuzilma yaratish, biznes esa investitsiya va innovatsion yechimlarni joriy etish uchun mas'ul bo'lishi zarur.
2. Venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish — startap va innovatsion loyihalar uchun xususiy kapital jalb etishni osonlashtiruvchi huquqiy mexanizmlar yaratish kerak.
3. Kadrlar salohiyatini oshirish — innovatsion menejerlar, texnologik brokerlar va klaster boshqaruvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni joriy etish lozim.
4. Raqamli boshqaruv tizimini kuchaytirish — klasterlar faoliyatini monitoring qilish, ma'lumotlar almashinuvi va shaffoflikni ta'minlash uchun yagona raqamli platforma ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmoni — "Innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PQ-4805-son qarori — "IT Park faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2024). Yillik hisobot: Innovatsion faoliyat va texnoparklar rivoji. — Toshkent.
4. Abdullayev, B. (2022). Innovatsion klasterlar va ularning iqtisodiy samaradorligi. — "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №2.
5. Karimov, S. (2021). Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. — Toshkent moliya instituti ilmiy to'plami.

**ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITDA ISHCHI KUCHI
RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR****Xasanova Oydiyoyim Ilhomkon qizi**

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Tel raqami: +998 (91) 112 - 50 - 12

E-mail: xusanovaoydiyoy11@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitda ishchi kuchi raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, raqamli iqtisodiyotning ta'siri, ta'lim sifati, migratsiya jarayonlari, yumshoq ko'nikmalar va davlat siyosatining o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ishchi kuchi, mehnat bozori, raqobatbardoshlik, ta'lim, raqamli ko'nikmalar, migratsiya, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ основных факторов, влияющих на конкурентоспособность рабочей силы в современных экономических условиях. Рассматривается влияние цифровой экономики, качество образования, миграционные процессы, мягкие навыки и роль государственной политики в формировании конкурентоспособной рабочей силы.

Ключевые слова: рабочая сила, рынок труда, конкурентоспособность, образование, цифровые навыки, миграция, инновации.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the key factors influencing labor force competitiveness in the modern economic environment. It examines the impact of the digital economy, the quality of education, migration processes, soft skills, and the role of state policy in shaping a competitive workforce.

Keywords: labor force, labor market, competitiveness, education, digital skills, migration, innovation.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda global mehnat bozori misli ko'rilmagan sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivoji, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, sun'iy intellekt va algoritmlarning keng qo'llanilishi nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy tuzilishini, balki ishchi kuchiga qo'yilayotgan talabning mazmun-mohiyatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Mehnat bozori endilikda an'anaviy kasblarga tayanibgina rivojlana olmaydi; aksincha, zamonaviy iqtisodiyot ko'proq moslashuvchan, texnologiyalarni tez o'zlashtira oladigan, kommunikativ va analitik ko'nikmalarga ega mutaxassislarni talab etmoqda.

Bu jarayonlar fonida raqobatbardosh ishchi kuchini shakllantirish har bir mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston so'nggi yillarda iqtisodiyotni erkinlashtirish, sanoatni modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi chuqur islohotlarni amalga oshirar

ekan, malakali kadrlar tayyorlash masalasini milliy rivojlanishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Jahon mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilish zarurati, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq ehtiyojlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatning iqtisodiy salohiyati bevosita ishchi kuchining bilim, malaka va innovatsion fikrlay olishi bilan belgilanadi[1].

Shu bois, zamonaviy sharoitda ishchi kuchi raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularni baholash va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu jarayonlarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga, mehnat bozorining yangi tendensiyalari va ularga sabab bo'layotgan omillarni tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism. Inson kapitali nazariyasiga ko'ra (G. Bekker, T. Shults), ishchi kuchining raqobatbardoshligi avvalo ta'lim sifati, kasbiy malaka, sog'liq holati va ko'nikmalar majmui bilan belgilanadi. Ushbu nazariya insonni oddiy ishlab chiqarish resursi sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishning eng muhim investitsiya obyekti sifatida talqin qiladi. Zero, zamonaviy iqtisodiyotda bilim va malakaga qilingan har bir sarmoya kelgusida yuqori mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va texnologik moslashuvchanlik ko'rinishida o'z samarasini beradi.

Shu bois, ta'limga investitsiya qilish, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, sog'liqni saqlash tizimiga mablag' yo'naltirish nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki milliy raqobatbardoshlikning asosiy garovi sifatida qaraladi. Zamonaviy mehnat bozorida inson kapitali qanchalik rivojlangan bo'lsa, ushbu xodimning bandlik imkoniyatlari ham shunchalik yuqori bo'ladi.

M. Porterning milliy raqobat afzalligi nazariyasida mehnat resurslari iqtisodiy o'sishning markaziy omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Porterning "Olmos modeli"da inson resurslari mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi to'rt asosiy elementdan biri sifatida qayd etiladi. Uning fikricha, global bozor sharoitida korxonalar va davlatlar o'rtasidagi raqobat ustunligi oddiy mehnat kuchi bilan emas, balki yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi, texnologiyani chuqur o'zlashtira oladigan kadrlar bilan ta'minlanadi.

Porter shuningdek, nafaqat mavjud mehnat resurslarining sifati, balki ularni doimiy rivojlantirish, ularga kreativ muhit yaratish va ularning raqobatbardoshlik salohiyatini oshirish jarayonlari ham muhim ekanini ta'kidlaydi. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslari o'ziga xos strategik kapital bo'lib, ular qanchalik malakali bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ham shunchalik yuqori bo'ladi[2].

Mehnat bozorida "signal berish" nazariyasi (M. Spens) ishchi kuchining raqobatbardoshligini belgilashda diplomlar, sertifikatlar, ish tajribasi, portfoliolar kabi rasmiy belgilar katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya bo'yicha ta'limning o'zi xodimni to'g'ridan-to'g'ri samaraliroq qilmaydi; biroq u ish beruvchiga xodimning intellektual salohiyati,

mehnatsevarligi, o'rganishga moyilligi va mas'uliyati haqida muhim signal beradi. Natijada:

- oliy ma'lumot diplomi,
- xalqaro sertifikatlar,
- ishlab chiqarishdagi tajriba,
- malaka oshirish hujjatlari[3];

Ish beruvchi uchun xodimning potensial qiymatini baholashda eng asosiy indikatorlar sifatida namoyon bo'ladi. Mehnat bozori sharoitida raqobatbardosh bo'lishni istagan har bir xodim o'zining professional portfelini boyitishi, malakasini tasdiqlovchi sertifikatlarga ega bo'lishi va o'z qobiliyatlarini "ko'rinadigan" qilishga intilishi zarur.

Bu nazariya raqobatbardoshlik faqat mavjud ko'nikmalarga emas, balki ushbu ko'nikmalarni bozorga qanday taqdim etishga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Ishchi kuchi raqobatbardoshligi turli omillar majmui orqali shakllanadi va aynan ushbu omillarning uyg'unligi xodimning mehnat bozoridagi barqaror mavqeini belgilaydi.

Ta'lim sifati va kasbiy malaka. Ta'lim tizimining zamonaviy talablarga mosligi, o'quv dasturlarining amaliyotga yo'naltirilganligi va kasbiy tayyorgarlik darajasi ishchi kuchining raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardandir. Sifatli ta'lim olgan, kasbiy malakasi yetuk, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan xodim mehnat bozorida ustunlikka ega bo'ladi. Shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining rivojlanganligi xodimning o'z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda yangilab borishiga imkon yaratadi.

Raqamli ko'nikmalar. Raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalarda chuqurlashib borayotgan bir paytda raqamli savodxonlik har bir xodim uchun zaruriy kompetensiyaga aylangan. Kompyuter savodxonligi, dasturiy ta'minotlardan foydalanish, analitik platformalar bilan ishlash, axborot xavfsizligi qoidalarini bilish kabi ko'nikmalar ishchi kuchining zamonaviy talablar bilan moslashuvchanligini ta'minlaydi. Raqamli ko'nikmalar nafaqat IT sohasiga, balki xizmat ko'rsatish, sanoat, qishloq xo'jaligi va ta'lim kabi barcha tarmoqlarga xos umumiy talabdir[4].

Soft-skills (yumshoq ko'nikmalar). Bugungi mehnat bozorida texnik kompetensiyalar bilan bir qatorda, yumshoq ko'nikmalar ham muhim ahamiyatga ega. Kommunikativlik, jamoada ishlash, liderlik, vaqtni boshqarish, tanqidiy va tizimli fikrlash, muammolarni hal etish, moslashuvchanlik kabi soft-skills xodimning professional salohiyatini yanada kuchaytiradi. Ayniqsa, global raqobat sharoitida kompaniyalar aynan kreativ, tez o'rganadigan va jamoaviy muhitga moslasha oladigan kadrlarni yuqori baholaydilar.

Mehnat migratsiyasi ishchi kuchi raqobatbardoshligiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

- Ayrim xodimlar xorijda ishlash orqali yuqori malaka, tajriba va yangi texnologiyalarni o‘zlashtiradi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi.
- Shu bilan birga, migratsiya mehnat bozorida malaka yetishmovchiligi yoki nomutanosibligini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Xorijdan qaytib kelayotgan mutaxassislarning tajribasini milliy iqtisodiyotga samarali integratsiya qilish mehnat bozorining rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Davlat siyosati. Ishchi kuchining raqobatbardoshligi davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ta’lim sohasidagi siyosatlarga bevosita bog‘liq. Mehnat kodeksi, soliq imtiyozlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim islohotlari, raqamli iqtisodiyot strategiyalari hamda yoshlarga qaratilgan dasturlar ishchi kuchining sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan institutsional asosni yaratadi. Shuningdek, innovatsion muhitni rivojlantirish va investitsiya jalb qilish siyosati malakali kadrlar uchun yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mehnat bozorining holati. O‘zbekiston mehnat bozori demografik tarkibining yoshlar ulushi yuqori bo‘lgani tufayli katta salohiyatga ega. Aholining o‘rtacha yoshining past bo‘lishi mamlakat uchun demografik dividend yaratadi, ya’ni iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan mehnat resurslari yetarli va dinamik hisoblanadi. Bu ustunlikni to‘g‘ri boshqarish iqtisodiy o‘rishni tezlashtirishi mumkin.

Shu bilan birga, mehnat bozorida bir qator tizimli muammolar ham mavjud:

a) malaka nomutanosibligi: ta’lim tizimi bilan mehnat bozori talablari o‘rtasida hali ham farqlar mavjud bo‘lib, ayrim sohalarda ortiqcha ishchi kuchi, boshqalarida esa yetishmovchilik kuzatiladi.

b) norasmiy bandlikning yuqoriligi: ko‘plab xodimlar norasmiy sektor faoliyatida ishtirok etadi, bu esa ularning ijtimoiy himoyasini cheklaydi va mehnat unumdorligini pasaytiradi.

c) hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik: Toshkent shahri va ayrim sanoatlashgan hududlarda ish imkoniyatlari ko‘p bo‘lsa, boshqa viloyatlarda bandlik darajasi pastroq.

d) yoshlar bandligi bilan bog‘liq muammolar: yangi bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvi ko‘p vaqt talab qilmoqda, bu esa yoshlar orasida ishsizlik darajasining nisbatan yuqoriligiga olib keladi[5].

Bu muammolarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston ta’lim tizimining modernizatsiyasi, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, raqamli ko‘nikmalarni ommalashtirish va hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini kuchaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab kelmoqda.

Muammo va yechimlar.

1. Raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi. Raqamlashtirish sur‘atlari ortayotgan bo‘lsa-da, xodimlarning aksariyatida IT savodxonlik past.

Yechimlar:

- Barcha ta’lim bosqichlarida raqamli savodxonlik fanlarini joriy etish.
- Xodimlar uchun bepul yoki subsidiyalangan IT kurslarini tashkil etish.
- Hududlar bo’yicha “Raqamli kompetensiya markazlari”ni yaratish.
- Dasturlash, ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt bo’yicha qisqa intensiv kurslarni ommalashtirish.

2. Soft-skills (yumshoq ko’nikmalar)ning past darajada rivojlanganligi. Jamoada ishlash, kommunikatsiya, liderlik, muammolarni hal qilish ko’nikmalari yetishmaydi.

Yechimlar:

- Soft-skills bo’yicha maxsus trening va seminarlar tizimini yaratish.
- Ta’lim jarayoniga “21-asr ko’nikmalari” modulini kiritish.
- Korxonalarda ichki treninglar va mentorlik dasturlarini yo’lga qo’yish.
- Talabalar uchun biznes-treninglar, startap akseleratorlari, debat klublarini rivojlantirish.

3. Mehnat migratsiyasining tartibsizligi va salbiy oqibatlariKo’plab fuqarolar chet elga malakasiz ishchi sifatida chiqmoqda, migratsiya qaytgan xodimlarning tajribasi tizimli ishlatilmaydi.

Yechimlar:

- Malakali migratsiya dasturlarini yaratish (Professional Work Visa, Skills Trade).
- Xorijdan qaytgan mutaxassislar uchun “Reintegratsiya markazlari” tashkil etish.
- Chet el ish beruvchilari bilan rasmiy hamkorlikni kengaytirish.
- Migrantlar uchun oldindan kasbiy tayyorlov kurslarini o’tkazish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ishchi kuchining raqobatbardoshligi O’zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biridir. Raqamli transformatsiya jarayonlari, ta’lim tizimi samaradorligi, mehnat migratsiyasining ijobiy tajribasi va davlatning maqsadli siyosati mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar shakllanishiga kuchli ta’sir ko’rsatadi.

Raqobatbardosh ishchi kuchi — bu nafaqat mehnat unumdorligini oshiradi, balki investitsiyalarni jalb qilishni tezlashtiradi, innovatsiyalar rivojiga xizmat qiladi va mamlakatning global iqtisodiy maydondagi mavqeini mustahkamlaydi. Shu sababli, inson kapitaliga sarmoya kiritish, malaka va ko’nikmalarni yangilashga doimiy e’tibor qaratish O’zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasining markaziy tarkibiy qismi bo’lib qoladi.

Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari. O’zbekiston mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchini shakllantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan ustuvor yo’nalishlardan biridir. Bu jarayonda quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

a) ta’lim tizimini modernizatsiya qilish. O’quv dasturlarini mehnat bozori talablari bilan uyg’unlashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida

o'qitish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kengaytirish orqali xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish zarur.

b) raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish. Raqamli savodxonlik, dasturlash, ma'lumotlar tahlili, IT infratuzilmasidan foydalanish ko'nikmalarini ommalashtirish xodimlarning zamonaviy iqtisodiyotga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

c) kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish. Mehnat bozorida malaka nomutanosibligini kamaytirish, yangi kasblar va texnologiyalar bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish xodimlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omildir.

d) migratsiya siyosatini takomillashtirish. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijdan qaytgan mutaxassislarning tajribasini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

e) ayollar va yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash. Gender tengligini ta'minlash, yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish, startaplar va innovatsion tashabbuslarni rag'batlantirish iqtisodiy o'sishga qo'shimcha turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — Chicago: University of Chicago Press.
2. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.
3. Spence, M. "Job Market Signaling." The Quarterly Journal of Economics, 87(3), 1973.
4. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends va boshqa yillik hisobotlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Rasmiy statistik hisobotlar va analitik sharhlar.
6. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plami.
7. Jahon banki (World Bank). Mehnat bozori bo'yicha mintaqaviy tahlillar, iqtisodiy sharhlar va bandlikka oid ma'lumotlar bazasi.

Assessing speaking skills**Abdusattorava Mohida**Teacher: **Eshquvvatova Gulasal**

Termiz State Pedagogical Institute

Faculty of Foreign Languages

Department of Preschool and

Primary Education in Foreign Language

1. Introduction

Assessing speaking skills plays a crucial role in language teaching and learning, as speaking is one of the primary modes through which learners communicate and demonstrate linguistic competence. In modern language pedagogy, speaking assessment aims not only to evaluate learners' fluency and accuracy but also their ability to use language effectively in communicative contexts. A well-structured assessment of speaking ensures reliability, validity, and fairness, while providing meaningful feedback for improvement.

2. The Nature of Speaking Skills

Speaking is a productive skill that involves the active use of language to express ideas, feelings, thoughts, and intentions. It requires real-time processing and coordination of linguistic, psychological, social, and cognitive factors.

3. Components of Speaking Skills

- Pronunciation
- Grammar
- Vocabulary
- Fluency
- Coherence and Cohesion
- Interactive Communication

4. Principles of Speaking Assessment

- Validity
- Reliability
- Practicality
- Authenticity
- Washback

5. Types of Speaking Assessment

- Formative Assessment
- Summative Assessment
- Performance-Based Assessment

6. Speaking Assessment Tasks

- Interviews
- Picture Description
- Storytelling
- Role-plays

- Discussions and Debates
- Presentations

7. Rating Scales and Rubrics

Holistic and analytic scoring methods are widely used to evaluate speaking performance.

8. Challenges in Assessing Speaking Skills

- Subjectivity
- Anxiety
- Time-Consuming Nature
- Environmental Factors
- Limited Sampling

9. Improving Reliability and Validity

Strategies include clear rubrics, rater training, recordings, and authentic tasks.

10. The Role of Technology in Speaking Assessment

Tools include automated scoring, digital portfolios, online tests, and speech recognition.

11. Implications for Teaching and Learning

Assessment should support learning, reduce anxiety, and provide constructive feedback.

12. Conclusion. Assessing speaking skills is essential for evaluating communicative competence and fostering successful language learning. A reliable and valid speaking assessment must consider linguistic, cognitive, and social components of communication. By applying appropriate tasks, rubrics, and principles, educators can evaluate speaking ability effectively while promoting positive learning outcomes. Furthermore, integrating technology enhances the accuracy and practicality of speaking assessment. Ultimately, effective assessment fosters learners' growth, confidence, and real-life communicative proficiency.

Reference:

1. NATIONAL CULTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEMES WITH FOOD/FOOD IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. (2023). American Journal of Pedagogical and Educational Research, 19, 116-119.
2. Eshquvvatova Gulasal Abdullo qizi. (2024). ETYMOLOGY OF SOME IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Лучшие интеллектуальные исследования, 16(1), 40-45.
3. Eshquvvatova, G. . (2023). CONTRASTIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO FOOD NAMES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(10), 89-94. Retrieved from
4. Kizi, Eshquvvatova G. A. "National Cultural Characteristics of Phrasemes with Food/food in English and Uzbek Languages." American Journal of Pedagogical and Educational Research, vol. 19, 11 Dec. 2023, pp. 116-119.
5. EFFECTIVE METHODS OF ORGANIZING ENGLISH LANGUAGE LESSONS FOR OPTIMAL LEARNING OUTCOMES. (2024). American Journal of Pedagogical and Educational Research, 31, 29-31.

MILK PROTEIN FOR IMPROVED METABOLIC HEALTH: A REVIEW OF THE EVIDENCE

Khojiyeva Guzal Uktamovna

Assistant of the Department of " Agricultural and food technology " of Jizzakh Polytechnic Institute. E-mail: xojiyeva.guzal@mail.ru. Phone number: [+998974835577](tel:+998974835577)

Sulaymonova Qunduzoy Erkin qizi

Student of Jizzakh Polytechnic Institute.

E-mail: guzal.jpi@mail.ru Phone number [+998910262698](tel:+998910262698)

Abstract: Epidemiological evidence shows that consumption of dairy products is associated with decreased prevalence of metabolic related disorders, whilst evidence from experimental studies points towards dairy protein as a dietary component which may aid prevention of type 2 diabetes (T2DM). Poor metabolic health is a common characteristic of overweight, obesity and aging, and is the forerunner of T2DM and cardiovascular disease (CVD), and an ever increasing global health issue. Progressive loss of metabolic control is evident from a blunting of carbohydrate, fat and protein metabolism, which is commonly manifested through decreased insulin sensitivity, inadequate glucose and lipid control, accompanied by a pro-inflammatory environment and hypertension. Adverse physiological changes such as excess visceral adipose tissue deposition and expansion, lipid overspill and infiltration into liver, muscle and other organs, and sarcopaenia or degenerative loss of skeletal muscle mass and function all underpin this adverse profile. 'Sarcobesity' and sarcopaenic diabetes are rapidly growing health issues. As well as through direct mechanisms, dairy protein may indirectly improve metabolic health by aiding loss of body weight and fat mass through enhanced satiety, whilst promoting skeletal muscle growth and function through anabolic effects of dairy protein-derived branch chain amino acids (BCAAs). BCAAs enhance muscle protein synthesis, lean body mass and skeletal muscle metabolic function. The composition and processing of dairy protein has an impact on digestion, absorption, BCAA kinetics and function, hence the optimisation of dairy protein composition through selection and combination of specific protein components in milk may provide a way to maximize benefits for metabolic health.

Keywords: rational nutrition, balanced composition, functional ingredients, vegetable paste, quality, nutritional value.

Introduction. Poor metabolic health represents an ever increasing global epidemic based on estimates from countries as far ranging as the US and China [1, 2]. Encompassed within metabolic health are the cluster of interrelated adverse metabolic markers of hyperglycaemia, dyslipidaemia and hypertension which alongside central or abdominal obesity have been termed the metabolic syndrome [3, 4]. Individuals with metabolic syndrome are at

twice the risk of developing cardiovascular disease (CVD) within 5-10 years, in addition to a 5-fold increase in risk of developing T2DM [3], and therefore maintenance of good metabolic health is critically important.

A continuum of metabolic health exists from young, lean, healthy individuals with good physiological control to those with impaired metabolic regulation who are commonly overweight or obese, as well as older. Progressive loss of metabolic control is characterized by a range of physiological changes which include excess adipose deposition, lipid overspill, infiltration and accumulation in key organs such as liver and skeletal muscle, alongside blunting of carbohydrate (CHO), fat and protein metabolism, decreased insulin sensitivity and hyperglycaemia, dyslipidaemia, increased inflammation, impaired endothelial function [5], and blunted muscle protein synthesis and decreased muscle mass, structure and function [6]. Multiple factors may contribute to the progressive loss of metabolic control, but obesity, ageing and physical inactivity are recognized as major drivers of these changes in metabolic health [3].

Obesity is of particular importance and a prolonged positive energy balance with subsequent lipid deposition and expansion of adipose depots, particularly visceral depots which secrete inflammatory cytokines, play a role in insulin resistance and decreased insulin-mediated glucose uptake. Lipid turnover is decreased and mitochondrial oxidation is suppressed in obese subjects, promoting intracellular accumulation of lipids and the buildup of deleterious lipid metabolites in multiple tissues including skeletal muscle, liver, pancreatic beta cells, kidney and hypothalamus amongst others. Subsequently, infiltration of inflammatory cells to clear toxic metabolic byproducts is accompanied by release of inflammatory cytokines that inhibit metabolic signaling pathways, as well as promote cell death, tissue fibrosis and functional impairment. The recommended treatment to improve metabolic health includes changes in diet and physical activity, which promote adipose tissue loss, enhance metabolically active skeletal muscle mass and hence improve metabolic control. Energy restricted diets are widely recommended for weight-loss in overweight or obese individuals with poor metabolic health, however ~25% of body weight loss can be attributable to decreases in skeletal muscle mass. Loss of skeletal muscle is undesirable because it is essential for mobility and activities of daily living. In addition, skeletal muscle also plays a major role in glycaemic control accounting for up to 75% of tissue glucose uptake. Mitochondrial oxidative capacity is decreased in obese skeletal muscle, as well as in T2DM, possibly due to underlying physical inactivity [4].

Advancing age and a sedentary lifestyle are also risk factors for a gradual loss of skeletal muscle mass, function and in turn muscle strength. The problem is commonly compounded by increased adipose tissue accumulation and myocellular lipid infiltration which provides the basis of

sarcopenic (accelerated muscle loss) obesity, and which in turn may drive insulin resistance and increase metabolic risk [15]. Intramyocellular lipid accumulation in obese individuals appears to be difficult to reverse through weight-loss interventions. Activation of skeletal muscle protein anabolism appears to be blunted in both the obese and the elderly, although again this may be attributable to a common underlying physical inactivity and insulin resistance. If metabolic health does not improve with diet or exercise interventions, pharmacological agents can be resorted to in order to manage dyslipidaemia, hypertension and hyperglycemia and loss of metabolic homeostasis.

Currently, there is considerable interest in the use of dairy proteins as supplements or in conjunction with lifestyle changes to improve metabolic health. Evidence from some epidemiological studies suggest that greater consumption of dairy products is associated with lower risk of metabolic related disorders and CVD [5]. Multiple dairy components in milk such as whey protein, casein and minerals have been posited as drivers of these beneficial effects, and there is a growing body of intervention studies assessing the effects of cow's milk-derived proteins or peptides on metabolic health. The focus of many of these interventions has been the whey component of milk, which may act to improve cardiometabolic risk factors. Whey protein has been shown to be an insulin secretagogue, as well as to improve body weight and adiposity through increased satiety. In addition to a dietary strategy to promote adipose loss, dairy proteins have also been shown to increase skeletal muscle mass through stimulation of muscle protein synthesis. Peptides derived from dairy protein have also been widely investigated as potential inhibitors of angiotensin-converting enzyme (ACE), thereby regulating blood pressure, and may influence activation of the innate immune system and inflammation [6].

Milk processing, protein composition and kinetics

Dairy protein consumed by humans is predominantly from cow's milk, which consists of around 80% (w/w) casein, 20% (w/w) whey proteins and is also a rich source of minerals such as calcium. The casein in cow's milk comprises alpha-s1, alpha-s2, beta and kappa-casein, whilst whey comprises multiple globular proteins including beta-lactoglobulin, alpha-lactalbumin, lactoferrin, immunoglobulins, serum albumin, glycomacropeptide, enzymes and growth factors. All of these components have potential to contribute to the observed association between increased consumption of dairy products and decreased risk of metabolic disease observed in several epidemiological studies [7].

Cow's milk processing

Cow's milk processing is an important factor determining the composition, concentration and physiological effects of whey protein or

casein. Milk is commonly separated into different protein fractions for different food applications. Milk protein concentrate (MPC), produced by ultrafiltration of skimmed milk, contains both casein and whey proteins in similar proportions to whole milk, but the total amount of protein, lactose and mineral content may vary between different MPC formulations. Micellar casein can be extracted from milk protein concentrate by further ultrafiltration. Casein is produced from skim milk by acid precipitation or enzymatic coagulation, washing and drying. Caseinates are produced by treatment of acidified or coagulated casein curd with alkali such as sodium hydroxide or calcium hydroxide, which forms sodium or calcium caseinates respectively; caseinates contain ~90% protein. Whey protein concentrate is produced by coagulation of milk with the enzyme rennet or acid, resulting in separation of curds and whey, further ultrafiltration and drying produces whey protein concentrates containing ~25-80% protein. Additional processing can produce whey protein isolates containing >90% protein with very low amounts of lactose and lipids. Hydrolysis with enzymes or acids provides a way to breakdown the structure of whey or casein. In metabolic-related studies a range of processed milk proteins have been used including milk protein concentrate, micellar casein, casein, sodium caseinate, calcium caseinate, casein hydrolysate, whey protein concentrate, whey protein isolate and whey protein hydrolysate, as well as a range of whey and casein peptides.

Amino acid profile of milk proteins

Whey protein and casein are both classified as high quality proteins based on human amino acid (AA) requirements, digestibility and their bioavailability. They contain a relatively high proportion of indispensable AAs, score higher than most other protein sources across a wide range of assessment methods including the protein digestibility corrected AA score (PDCAAS) and recently developed digestible indispensable amino acid score (DIAAS) method. Nevertheless, differences in the physiological effects of whey protein and casein have been attributed to differences in their AA composition. Whey protein contains a higher proportion of the branched chain amino acids (BCAA) leucine, isoleucine and valine compared to casein [8]. The BCAAs alone and in particular leucine have been shown to trigger a potent increase in protein synthesis in T2DM. Among the other indispensable or essential amino acids (EAAs), casein contains a higher proportion of histidine, methionine, phenylalanine and valine than whey protein. In addition, casein also contains a higher proportion of several non-EAAs including arginine, glutamic acid, proline, serine and tyrosine [8].

Gastric emptying, absorption and serum kinetics of milk proteins

Whey protein is reported to be absorbed faster than casein. The lower absorption rate of casein in its native micellar form is because the low pH conditions in the stomach cause casein to clot and delays gastric emptying. Therefore, plasma AAs are more rapidly elevated following whey protein

consumption, whereas changes in plasma AAs are lower and more sustained following micellar casein consumption. Processing of whey protein or casein fractions via hydrolysis can markedly influence absorption and subsequent plasma AA profiles. A casein hydrolysate is reported to be absorbed more rapidly than intact micellar casein, resulting in a greater increase in plasma AAs. Conversely, whey protein hydrolysate intake is reported to result in similar plasma AA levels compared to whey protein concentrate, because of similar rapid rates of gastric emptying and absorption. The processing of micellar casein by acidification and then neutralization with alkali such as sodium hydroxide or calcium hydroxide to form caseinates also markedly alters plasma AA profiles compared to micellar casein [9].

REFERENCES

1. Ford ES, Li C, Zhao G: Prevalence and correlates of metabolic syndrome based on a harmonious definition among adults in the US. *J Diabetes*. 2010, 2 (3): 180-193.
2. Grundy SM, Cleeman JI, Daniels SR, Donato KA, Eckel RH, Franklin BA: Diagnosis and management of the metabolic syndrome: an American Heart Association/National Heart, Lung, and Blood Institute Scientific Statement. *Circulation*. 2005, 112 (17): 2735-2752.
3. Khodzhiyeva Go'zal U'ktamovna, A.A.Navro'zov, S.B. Raimkulova "Mineral and vitamin composition of watermelon rind", "Innovative solutions to technological and environmental problems in agriculture, cotton growing and light industry" International scientific and practical conference November 15, 2024, p. 22. <https://zenodo.org/records/14177323>
4. Khodzhiyeva Go'zal U'ktamovna, M.I. Ro'zimurodova, "Food toxicity and safety", *Scientific Journal of Agricultural and Geographical Sciences*, October 10 / 2024 / No. 34-38. <https://bestpublication.net/index.php/qishxoj/article/view/599>.
5. Khodzhiyeva Guzal Uktamovna, G.H.Rakhmonkulova, "Non-food use of milk components and dairy by-products: review", *Pedagogical sciences and teaching methods*. Volume 4.No 42 (2025). <https://interoncof.com/index.php/denmark/article/view/4814>
6. Khodzhiyeva Guzal Uktamovna, G.H.Rakhmonkulova, "The use of milk components and non-food products of dairy products: review", *Pedagogical sciences and teaching methods*. Volume 4. No. 42 (2025). <https://interoncof.com/index.php/denmark/article/view/4814>
7. Khodjiyeva Go'zal Oktam qizi, Islamov Sohob Yakhsibekovich, Z.Z.Djamalov, "Innovative solutions to technological and environmental problems in agriculture, cotton and light industry" 5 November UD.20. 206. 6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14177303>
8. Eckel RH, Grundy SM, Zimmet PZ: The metabolic syndrome. *Lancet*. 2005, 365 (9468): 1415-1428.
9. Parr EB, Coffey VG, Hawley JA: "Sarcobesity": a metabolic conundrum. *Maturitas*. 2013, 74: 109-113.

Turli jinsli sterjenlarda issiqlik tarqalishi jarayonlari.

Farg’ona Davlat Texnika Universiteti Arx va Q fakulteti M7-25MKQ guruh

magistranti **Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi**

Tel:+988 90 162 00 32

pochta:mahmudovamuqaddas575@gmail.com

Anotatsiya


Mazkur ishda chekli ayirmalar usuli yordamida turli materiallardan tashkil topgan sterjenda issiqlik tarqalish jarayoni tahlil qilindi. Hisoblashlarda alyuminiy va misning issiqlik o‘tkazuvchanligi, zichligi hamda issiqlik sig‘imi inobatga olindi. Natijalarga ko‘ra, issiqlikning materiallar bo‘ylab tarqalishi ularning fizik-texnik xossalariga bevosita bog‘liq ekani va yuqori issiqlik o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan materiallarda issiqlik tezroq uzatilishi aniqlandi. Chekli ayirmalar usuli differensial tenglamalarni sonli yechishda samarali yondashuv bo‘lib, issiqlik o‘tkazuvchanlik va diffuziya jarayonlarini modellashtirishda yuqori aniqlik beradi.

Kalit so‘zlar: differensial tenglamalar, chekli ayirmalar usuli, issiqlik tarqalishi, alyuminiy va mis sterjen, issiqlik o‘tkazuvchanlik, sonli metodlar, fizik modellashtirish

Kirish. Hozirgi davrda matematik fizika va muhandislik amaliyotida uchraydigan ko‘plab masalalar differensial tenglamalar orqali ifodalanadi. Bunday tenglamalarni aniq (analitik) usullar yordamida yechish ko‘pincha murakkab yoki umuman imkonsiz bo‘ladi. Shu sababli sonli usullar keng qo‘llanadi. Sonli metodlar ichida eng samarali va qulay yondashuvlardan biri bu — chekli ayirmalar usulidir. Chekli ayirmalar usuli differensial tenglamalarni yechishda hosilalarni chekli ayirmalar orqali yaqinlashtirish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu usul yordamida uzluksiz funksiyalar diskret to‘r nuqtalarida baholanadi va ular o‘rtasidagi bog‘lanish maxsus ayirma formulalari orqali ifodalanadi. Natijada differensial tenglama algebraik tenglamalar sistemasiga almashtiriladi va kompyuter yordamida yechish imkoniyati yaratiladi. Bir o‘lchovli issiqlik tarqalishi jarayonlarini modellashtirishda chekli ayirmalar usuli keng qo‘llanadi. Bu usul issiqlik o‘tkazuvchanlik, diffuziya, to‘lqin jarayonlari kabi fizik hodisalarni matematik modellashtirishda samarali natija beradi. Shuningdek, turli materiallardan tashkil topgan jismlarda (masalan, alyuminiy va misdan iborat sterjen) issiqlikning tarqalishini modellashtirishda ham bu usul muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvda eng asosiy e‘tibor barqarorlik, aniqlik va chegaraviy shartlarning to‘g‘ri qo‘yilishiga qaratiladi. Ayniqsa, turli materiallar tutashgan nuqtalarda temperaturaning uzluksizligi va issiqlik oqimining tengligi ta‘minlanishi zarur. Natijada hisoblash jarayonida yechim asta-sekin haqiqiy fizik jarayonga yaqinlashadi va talab etilgan aniqlik darajasiga erishiladi.

Masala: Umumiy uzunligi 1,0 m bo‘lgan to‘g‘ri sterjen ikki xil materialdan

Conclusion. Finding common words in a text is a simple yet powerful linguistic technique. It provides quantitative evidence about vocabulary distribution, genre characteristics, and stylistic tendencies. Through corpus tools and computational analysis, researchers can handle large datasets and obtain objective insights into language use. The method has wide applications in teaching, lexicography, stylistics, and computational linguistics, making it an essential component of modern corpus-based research.

References (Books)

1. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use*. Cambridge University Press.
2. Hunston, S. (2002). *Corpora in Applied Linguistics*. Cambridge University Press.
3. McEnery, T., & Hardie, A. (2012). *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge University Press.
4. Sinclair, J. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation*. Oxford University Press.
5. Stubbs, M. (1996). *Text and Corpus Analysis*. Blackwell.
6. Tognini-Bonelli, E. (2001). *Corpus Linguistics at Work*. John Benjamins Publishing.

Theme: Corpus-based Approaches to Pragmatics**Abdullajonova Hakima**

Senior teacher of JSPU

Qo'ziboyeva Kumush, Raxmatova Visola, Yaxshiboyeva Ma'mura

Jizzakh State Pedagogical University Foreign Languages

Annotation. This article explores corpus-based approaches to pragmatics, emphasizing how empirical language data supports the analysis of speech acts, politeness, implicature, stance, and discourse markers. Corpus linguistics provides objective tools for identifying pragmatic patterns across large datasets, enabling researchers to observe authentic language use in different social and cultural contexts. The article highlights key methodologies such as corpus annotation, concordancing, and frequency analysis, and discusses their implications for teaching, translation, and intercultural communication. It also reviews challenges related to context interpretation, annotation reliability, and multimodal pragmatics.

Key words: corpus linguistics, pragmatics, speech acts, discourse markers, politeness, annotation, concordancing, implicature, collocation, frequency

Аннотация. В статье рассматриваются корпусные подходы к прагматике и подчеркивается, как эмпирические языковые данные помогают анализировать речевые акты, вежливость, импликацию, выражение отношения и дискурсивные маркеры. Корпусная лингвистика предоставляет объективные инструменты для изучения подлинного употребления языка в различных социальных и культурных контекстах. В статье обсуждаются такие методы, как аннотирование корпусов, создание конкордансов и частотный анализ, а также их значение для преподавания, перевода и межкультурной коммуникации. Также рассматриваются проблемы интерпретации контекста, надежности аннотации и мультимодальной прагматики.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, прагматика, речевые акты, дискурсивные маркеры, вежливость, аннотирование, конкорданс, импликация, коллокация, частота

Corpus-based approaches to pragmatics represent one of the most dynamic intersections of empirical linguistics and the study of language use in real contexts. Pragmatics focuses on how speakers use language to achieve communicative goals, convey implicit meanings, and negotiate social relationships. Traditionally, pragmatic research relied on introspection, small-scale observations, or elicited data. However, the rise of corpus linguistics has transformed this field by introducing systematic, data-driven methods for analyzing authentic language on a large scale. This approach offers new insights into patterns of speech acts, politeness strategies, implicature, stance-taking, and discourse markers.

A corpus is a structured, searchable collection of authentic spoken or written texts, often annotated with linguistic information such as part-of-speech tags, semantic roles, or pragmatic functions. Corpus-based pragmatics thus involves investigating how pragmatic features occur across thousands or even millions of language instances. Concordancers, frequency lists, collocation tools, and annotation schemes allow researchers to identify patterns that would be impossible to observe manually.

One of the key areas where corpus methods have been influential is speech act analysis. Speech acts—such as requests, apologies, compliments, refusals, or suggestions—vary widely across cultures, registers, and interaction types. With corpus tools, researchers can examine how often specific speech acts appear, what linguistic forms they take, and how they differ depending on context. For example, corpus studies have shown that English speakers often soften requests using modal verbs (“could you...,” “would you mind...”), while speakers of other languages may rely more on indirect phrasing or honorific forms. Such findings have contributed to more accurate descriptions of pragmatics for language teaching, translation, and cross-cultural communication.

Corpus-based approaches also shed light on politeness strategies. Politeness is encoded not only through explicit phrases like “please” or “thank you,” but also through hedges, mitigation markers, stance adverbs, and discourse markers such as “well,” “sort of,” or “you know.” By analyzing large corpora, researchers can quantify how frequently speakers use these devices and how they function in context. For instance, corpus data reveals that hedges are more prevalent in academic and conversational registers than in formal legal or business texts. The distribution of politeness markers further varies depending on gender, generation, and communication medium, highlighting the social embeddedness of pragmatic behavior.

Implicature and indirect meaning also benefit from corpus-based investigation. While implicature traditionally resisted empirical study due to its implicit nature, corpora allow researchers to examine recurring patterns in responses, reactions, and conversational sequences. Annotated corpora that include pragmatic metadata—such as speaker intentions, sentiment, or communicative goals—enable more detailed analyses of how listeners infer meanings that are not explicitly stated.

Another major contribution of corpus-based pragmatics is the study of discourse markers. These small but powerful linguistic units structure discourse, signal speaker attitude, manage turn-taking, and express stance. Corpus analyses have revealed subtle functional differences among markers like “well,” “so,” “actually,” “I mean,” and “you know.” They also demonstrate how discourse markers differ between spoken and written modes, between native and non-native speakers, and across varieties of English or other

languages. Such insights are invaluable for language teaching, especially for learners struggling with natural conversational flow.

Corpus-based approaches also highlight pragmatic variation across cultures. Multilingual and parallel corpora allow researchers to compare how pragmatic functions are realized in different languages. This supports research in intercultural pragmatics, translation studies, and second language acquisition. Learners often struggle with pragmatics because it requires not only linguistic knowledge but also cultural competency. Corpus-informed teaching materials can expose learners to authentic examples of politeness, idiomatic expressions, and culturally appropriate communication strategies.

Despite their strengths, corpus-based approaches to pragmatics also face challenges. Pragmatic features are often context-dependent, multimodal, and embedded in social interaction. Annotating pragmatic phenomena is difficult because interpretations may vary among annotators. Moreover, corpora sometimes lack sufficient examples of rare or highly context-specific pragmatic acts.

Nevertheless, new developments in multimodal corpora and machine learning offer promising solutions. Video corpora, enriched with gesture and facial expression annotation, allow researchers to analyze the full complexity of pragmatic interaction. Automatic annotation using artificial intelligence reduces the labor-intensive nature of manual coding and increases scalability. With these technological advancements, corpus-based pragmatics continues to evolve into a powerful methodology for understanding human communication.

Conclusion. Corpus-based approaches to pragmatics provide rich, empirical insights into how people use language to express intentions, negotiate meaning, and manage social interaction. By analyzing authentic data across large corpora, researchers can uncover patterns in speech acts, politeness, discourse markers, and implicature that traditional methods often miss. Despite challenges with context interpretation and annotation complexity, advances in multimodal corpora and computational tools continue to strengthen this approach, making it essential for modern linguistic research and applied language studies.

References

1. Aijmer, K. & Rühlemann, C. (2015). *Corpus Pragmatics: A Handbook*.
2. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use*.
3. Jucker, A. H. & Taavitsainen, I. (2000). *Diachronic Pragmatics*.
4. McEnery, T. & Hardie, A. (2012). *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*.
5. Archer, D., Aijmer, K., & Wichmann, A. (2012). *Pragmatics: An Advanced Resource Book*.
6. O'Keeffe, A. & McCarthy, M. (2010). *The Routledge Handbook of Corpus Linguistics*.
7. Culpeper, J. & Haugh, M. (2014). *Pragmatics and the English Language*.

BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Abduxakimova Zarnigor Ilxomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

ilxomovna.2003@gmail.com +998948360012

Annotatsiya. Mazkur maqola bola huquqlarini himoya qilish va takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, u xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada bola huquqlari to'g'risidagi BMT Konvensiyasining ahamiyati, shuningdek, bola huquqlarini ta'minlashda davlatlar va jamiyatning o'zaro hamkorligining ro'li ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy ishlar va amaliy tajriba asosida bola huquqlarining himoyasi uchun zaruriy chora-tadbirlar va mexanizmlar taklif etiladi. O'quvchilarga bola huquqlarini himoya qilishning global miqyosdagi ahamiyati, shuningdek, ijtimoiy, huquqiy va ta'lim tizimlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'zgarishlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Bola huquqlari, himoya qilish, BMT konvensiyasi, ijtimoiy adolat, huquqiy mexanizmlar, ta'lim tizimi, onlayn xavfsizlik, jamiyatning o'рни, ijtimoiy xizmatlar, bola huquqlarini ta'minlash, davlatlar hamkorligi, huquqiy tahlil.

Kirish. Bola huquqlari — har bir bola uchun tinch, sog'lom va baxtli hayot kechirish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy normativ huquqiy hujjatlar to'plamidir. Har bir bola o'zining shaxsiy huquqlari va erkinliklariga ega bo'lib, jamiyatda teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu huquqlar 1989-yilda BMT tomonidan tasdiqlangan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada belgilangan bo'lib, dunyo bo'ylab davlatlar ushbu konvensiyaning tamoyillariga rioya qilishga majburdir. Lekin, bola huquqlarining himoyasi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, bu huquqlarni himoya qilishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda.

Ushbu tezis, bola huquqlarini himoya qilish va takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, so'nggi yillarda bu sohada olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlarning tahlilini o'z ichiga oladi. Tezisda, shuningdek, bola huquqlarining ta'minlanishi uchun zaruriy huquqiy va amaliy chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi adabiyotlar ko'plab ilmiy tadqiqotlar, tezislar, kitoblar va huquqiy hujjatlardan iborat. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar, asosan, huquqiy me'yorlar,

jamiyatdagi bola huquqlarining holati va himoyasi, shuningdek, bu huquqlarga rioya etilishining amaliy usullari va strategiyalariga qaratilgan.

BMT bola huquqlari konvensiyasi (1989): Bu hujjat bola huquqlarini himoya qilishdagi asosiy yuridik bazani tashkil etadi. Konvensiya bola huquqlarini himoya qilishning global miqyosdagi me'yorlarini belgilab beradi va davlatlarni o'z qonunlari orqali bu huquqlarni ta'minlashga chaqiradi. BMT bola huquqlari konvensiyasining 54-moddasida bola huquqlarini amalga oshirishda davlatlarning mas'uliyati va ularning bajarilishi nazorat qilinishi kerakligi ko'rsatilgan.

Bola huquqlarining amaliy himoyasi: Tadqiqotchilar bola huquqlarining amaliy jihatlarini ham o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, Ibrohimov (2016) o'zining tadqiqotida bola huquqlari ta'minlanishi uchun mahalliy hukumatlar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. U, shuningdek, bola huquqlarining himoyasini kuchaytirish uchun mustahkam huquqiy mexanizmlar va monitoring tizimlari zarurligini belgilaydi.

Jamiyatda bola huquqlarini himoya qilishning ahamiyati: Asimov (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, bola huquqlarining himoya qilinishining jamiyatdagi umumiy farovonlik va taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Uning fikricha, bola huquqlarini himoya qilish davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biridir. Ayniqsa, kambag'al va qishloq hududlarida bola huquqlarini ta'minlash uchun ko'proq resurslar sarflanishi lozim.

Asosiy qism. Bola huquqlarini himoya qilish jamiyatning asosiy ustunlaridan biridir. Har bir bola o'zining shaxsiy huquqlari va erkinliklariga ega bo'lishi kerak, chunki bu uning kelajagi va umumiy farovonligiga bevosita ta'sir qiladi. BMT tomonidan tasdiqlangan Bola huquqlari konvensiyasi bola huquqlarini himoya qilishda global asosni yaratdi va davlatlarga bolalarni himoya qilish bo'yicha aniq majburiyatlar yukladi. Biroq, amaliyotda bu huquqlarni ta'minlashda ko'plab muammolar mavjud. Masalan, bolalar orasida ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga teng kirish imkoniyatlarining yo'qligi, bola mehnatiga qarshi kurashishda amaliy choralar yetarli emasligi va onlayn xavfsizlik masalalarining e'tibordan chetda qolishi kabi masalalar dolzarbdir.

Hozirgi kunda, bola huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish uchun, huquqiy tizimni kuchaytirish, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish va bola huquqlari bo'yicha jamiyatda kengroq tushuncha yaratish zarur. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning boshqa a'zolari bola huquqlariga hurmat bilan yondashishlari va bu boradagi bilimlarini oshirishlari kerak. Xususan, onlayn xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va monitoring tizimlarini joriy etish, bolalar va ota-onalar uchun maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davlatlar o'rtasidagi

hamkorlik va tajriba almashish, xalqaro tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashi bola huquqlarini ta'minlashda katta ro'l o'ynaydi.

Metodologiya. Bola huquqlarini himoya qilish va takomillashtirish masalasini o'rganish uchun asosiy metodologik yondashuv sifatida huquqiy tahlil, so'rovnoma va intervyu usullari qo'llaniladi. Tadqiqotda, asosan, bola huquqlariga oid milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy normalar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bola huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy xizmatlarning o'rni, oliy ta'lim muassasalarining ro'li va jamoatchilik tashkilotlarining faoliyati ham o'rganiladi.

Tadqiqotda o'tkaziladigan so'rovnomalar va intervyular yordamida bolalar, ota-onalar, pedagoglar va huquqshunoslar o'rtasidagi muloqot natijalari tahlil qilinadi.

Xulosa. Bola huquqlarini himoya qilish — bu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy masala. Barcha davlatlar bola huquqlarining ta'minlanishini o'zining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rishi lozim. Har bir bola uchun xavfsiz va baxtli kelajakni ta'minlashda nafaqat davlatning, balki jamiyatning barcha qatlamlarining faol ishtiroki talab qilinadi. Ma'lumotlarni kengaytirish, bola huquqlari bo'yicha ta'limni kuchaytirish va zaruriy yuridik mexanizmlarni ishlab chiqish orqali bola huquqlari himoyasi yanada takomillashtirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT. (1989). *Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya*. Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
2. Ibrohimov, T. (2016). *Bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy va amaliy jihatlari*. Toshkent: O'zbekiston Yuridik Akademiyasi.
3. Asimov, Z. (2019). *Jamiyatda bola huquqlari: ijtimoiy va iqtisodiy aspektlar*. Samarqand: Akademiya nashriyoti.
4. Maxmudov, S. (2018). *O'qituvchilar va ota-onalarning bola huquqlarini himoya qilishdagi ro'li*. Toshkent: Ta'lim va Taraqqiyot.
5. Raxmonov, D. (2021). *Onlayn xavfsizlik va bola huquqlarini himoya qilish: zamonaviy yondashuvlar*. Toshkent: Innovatsion texnologiyalar markazi.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020). *O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nashriyoti.

LOTIN TILI – TIBBIYOT SOHASIDAGI XALQARO ALOQA TILI
G'aniyeva Dilnavozxon Dilmurod qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 1-bosqich talabasi

dilnavozg750@gmail.com

+998916513410

Ilmiy rahbar: **To'ychiyeva Odinaxon Sobirovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada lotin tilining tibbiyot fanlari rivojida tutgan o'rni, uning tarixiy shakllanish bosqichlari va zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, lotin tilining tibbiyotdagi xalqaro aloqa vositasi sifatidagi roli, amaliy qo'llanilishi hamda O'zbekiston tibbiyot ta'limidagi o'rni tahlil qilingan. Maqola orqali lotin tilining ilmiy va amaliy qiymati haqida keng tasavvur hosil qilish mumkin.

Kalit so'zlar: Lotin tili, tibbiyot terminologiyasi, xalqaro aloqa, tibbiyot ta'limi, farmatsiya, anatomiya, Hippokrat, ilmiy an'ana.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль латинского языка в развитии медицинских наук, его исторические этапы становления и значение в современной медицине. Также анализируется роль латинского языка как средства международного общения в медицине, его практическое применение и место в системе медицинского образования Узбекистана. Статья раскрывает научную и практическую ценность латинского языка.

Ключевые слова: Латинский язык, медицинская терминология, международное общение, медицинское образование, фармацевция, анатомия, Гиппократ, научная традиция.

Abstract: This article discusses the role of the Latin language in the development of medical sciences, its historical stages, and its importance in modern medicine. It also analyzes the role of Latin as an international means of communication in the field of medicine, its practical applications, and its place in the medical education system of Uzbekistan. The article highlights the scientific and practical value of the Latin language.

Keywords: Latin language, medical terminology, international communication, medical education, pharmacy, anatomy, Hippocrates, scientific tradition.

Kirish

Tibbiyot insoniyat tarixida eng qadimiy va muhim fanlardan biridir. Inson hayoti va salomatligi bilan bog'liq bu sohada har bir so'zning, har bir atamaning aniq va yagona ma'noga ega bo'lishi zarur. Shu sababli tibbiyot tarixan lotin tiliga tayanib kelgan. Bugungi kunda ham lotin tili tibbiyot fanlarining xalqaro aloqa vositasi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Lotin tilining tarixiy shakllanishi: Lotin tili qadimgi Rim imperiyasi davrida shakllanib, eramizdan avvalgi IV–III asrlarda davlat, huquq va ilm-fan tili sifatida keng qo'llanilgan. Rim tibbiyot maktablarida lotin tili asosiy o'quv

tili bo'lgan. Gippokrat, Galen, Dioskorid kabi olimlarning yunon tilida yozilgan asarlari Rim davrida lotin tiliga tarjima qilingan va tibbiy terminologiya shakllanishining asosini yaratgan.

O'rta asrlarda Yevropa universitetlari paydo bo'lishi bilan lotin tili ilmfanning yagona xalqaro tili sifatida mustahkam o'rnashdi. Hattoki o'rta asr Yevropasidagi shifokorlar o'zaro faqat lotin tilida yozishmalar olib borishgan. Shu sababli, tibbiyot terminologiyasi butun dunyo olimlari uchun umumiy tushunarli bo'lib qolgan.

Asosiy qism

Lotin tilining tibbiyotdagi amaliy ahamiyati: Tibbiyotda lotin tili, eng avvalo, aniqlik va xalqaro birlikni ta'minlaydi. Chunki tibbiy terminlarning aksariyati lotincha ildizlarga ega. Masalan: cor – yurak, pulmo – o'pka, ren – buyrak, musculus – mushak, cerebrum – miya. Bundan tashqari, farmatsiya sohasida ham lotin tili muhim o'rin tutadi. Dori vositalarining xalqaro nomlanishlari, retsept yozish qoidalari, farmakologik atamalar ham lotin tilida shakllangan.

Masalan: Solutio Glucosae 5% — 5 foizli glyukoza eritmasi, Unguentum Hydrocortisoni — gidrokortizon malhami.

Shifokorlar, farmatsevtlar va hamshiralar uchun lotin tilini bilish nafaqat kasbiy malaka, balki tibbiy madaniyat ko'rsatkichidir. Lotin tili orqali tibbiyotdagi aniq diagnostika, dori-darmon tayyorlash va tibbiy hujjat yuritish jarayonlari soddalashadi.

Lotin tili – xalqaro tibbiy muloqot vositasi: Zamonaviy dunyoda tibbiyot global tarmoqqa aylangan. Har xil mamlakatlarda turli tillar so'zlashilsa-da, lotincha tibbiy terminlar barcha uchun bir xil ma'noni bildiradi. Masalan, fractura femoris (son suyagining sinishi) yoki appendicitis acuta (o'tkir appenditsit) atamalari dunyoning istalgan joyidagi shifokorlar uchun bir xil tushunarli.

Ko'plab xalqaro ilmiy jurnallar, konferensiyalar va tibbiy adabiyotlarda lotincha terminlardan foydalaniladi. Bu esa tibbiyot mutaxassislarining tajriba almashishini osonlashtiradi. Shu sababli, lotin tili tibbiyotda nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ilmiy muloqotning kaliti hisoblanadi.

O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida ham lotin tili majburiy o'quv fanlaridan biri sifatida o'qitiladi. Bu esa yosh mutaxassislarga xalqaro tibbiy standartlarga mos fikrlash va yozish imkonini beradi.

Lotin tili tibbiyot sohasida ilmiy muloqotning eng qadimiy va ishonchli vositasi hisoblanadi. U nafaqat anatomiya, fiziologiya, farmakologiya va patologiya sohalaridagi terminlarning asosi, balki xalqaro miqyosda yagona tushuncha maydonini yaratgan ilmiy til sifatida shakllangan.

Tibbiyot tarixiga nazar tashlasak, qadimgi Rim shifokorlari — Galen, Sels va Avitsenna asarlarida tibbiy tushunchalar lotin tilida ifodalanganini ko'ramiz. Bu esa keyingi asrlarda ilmiy tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Aynan lotin tili tufayli Yevropa mamlakatlari shifokorlari o'rtasida

bilim almashish, tibbiy qo'lyozmalarni tarjima qilish va yangi atamalarni yaratish jarayoni yagona tizim asosida amalga oshirilgan. Hozirgi davrda ham tibbiyot fanining barcha yo'nalishlarida lotin tiliga tayaniladi. Xususan:

Anatomiyada inson tanasining tuzilish qismlari ("musculus biceps brachii", "arteria carotis communis") lotincha nomlar bilan ataladi.

Farmatsevtikada dorilar nomlari va retsept yozish shakllari ("Rp.", "D.S." kabi qisqartmalar) lotin tilida ifodalanadi.

Patologiya va fiziologiyada esa jarayonlar va holatlar tavsifi ("inflammatio", "fractura", "necrosis") lotincha ildizlardan kelib chiqqan.

Lotin tili tibbiy terminologiyani yagona tizimga solib, turli mamlakatlarda o'qitilayotgan tibbiyot fanlari uchun umumiy ilmiy asos yaratadi. Shu bois u nafaqat lingvistik qadriyat, balki tibbiy tafakkurni shakllantiruvchi manba sifatida o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili

Lotin tili tibbiyotning shakllanishi va rivojida muhim o'rin egallagan bo'lib, bu borada bir qator yirik olimlar o'z ilmiy izlanishlari bilan tibbiy terminologiya va o'qitish metodikasiga katta hissa qo'shgan. Ularning ilmiy qarashlarini tahlil qilish orqali lotin tilining xalqaro tibbiyotdagi o'rni yanada chuqurroq anglanadi.

Vezali (Andreas Vesalius) — XVI asrda yashab o'tgan mashhur anatomiya olimi bo'lib, uning "De humani corporis fabrica" ("Inson tanasi tuzilishi haqida") asari tibbiyot tarixida inqilob yasagan. Asarning butun matni lotin tilida yozilgan bo'lib, bu nafaqat ilmiy terminlarni, balki anatomiya fanining xalqaro standart asoslarini shakllantirdi. Vesaliyning ishlari natijasida lotin tili tibbiy anatomik terminologiyaning ilmiy tili sifatida e'tirof etildi.

Garmey (Harvey, William Harvey) — XVII asr ingliz olimi bo'lib, qon aylanish tizimini kashf etgan. Uning "Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis in animalibus" ("Hayvonlarda yurak va qon harakati haqida anatomiya mashqlari") asari ham lotin tilida yozilgan. Harvey tibbiyot sohasida lotin tilidan foydalanishning ilmiy aniq ifoda vositasi sifatidagi ahamiyatini isbotlab berdi. U ilmiy atamalarni yagona shaklda qo'llash zaruriyatini ilgari surgan.

Diatgivskiy (Dyakovskiy) — XIX asr rus olimi bo'lib, u lotin tili va tibbiyot terminologiyasini tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning ilmiy ishlari, xususan, "Medicinal Terminologia Latina" nomli qo'llanmasi Rossiyada tibbiyot oliy ta'limida lotin tilini o'qitishning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Diatgivskiy lotin tili orqali tibbiy fikrni mantiqiy va aniq ifodalashni o'rgatgan.

Nikolay Ivanovich Piragov — rus jarrohligi maktabining asoschilaridan biri, u nafaqat amaliy tibbiyot, balki anatomiya fanini ham rivojlantirgan. Piragov o'zining ko'plab ilmiy ishlarida lotin tilidan foydalanib, ilmiy terminlarni xalqaro me'yorga mos tarzda kiritgan. Uning "Anatomicheskiye

izobrazheniya secheniy chelovecheskogo tela" ("Inson tanasining anatomik kesimlari") asari ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan. Piragovning asarlari tibbiyotda lotin terminologiyasining qo'llanilish doirasini kengaytirgan.

Umuman olganda, ushbu olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida lotin tili tibbiyotning ajralmas qismi sifatida mustahkam o'rnashdi. Ularning asarlari zamonaviy tibbiy terminologiyaning poydevorini yaratib, bugungi kunda ham o'quv jarayonlarida va ilmiy izlanishlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muhokama

O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida lotin tili darslarining o'rni beqiyosdir. So'nggi yillarda o'quv jarayonlariga interaktiv usullar, elektron lug'atlar va multimedia resurslari joriy etilgach, lotin tilini o'rganish samaradorligi yanada oshdi. Bu borada ko'plab o'zbek olimlari va metodistlar tibbiy terminologiyani rivojlantirish, o'quv adabiyotlarini yaratish hamda milliy tibbiy terminlarni xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida katta hissa qo'shgan.

Masalan: D.A. Qodirova – tibbiy lotin tili bo'yicha darslik va lug'atlar muallifi bo'lib, tibbiy atamalarni tizimlashtirishda muhim rol o'ynagan.

A.A. Toshpo'latova – farmatsevtika sohasida lotincha atamalarni qo'llash uslubiyatini ishlab chiqqan.

S. Yo'ldosheva – tibbiy ta'limda lotin tili o'qitish metodikasini takomillashtirgan.

O. To'ychiyeva – zamonaviy tibbiy ta'limda lotin tilini interaktiv o'qitish texnologiyalarini joriy etgan.

G. Raximova va N. Abdurahmonova – terminologik tadqiqotlar olib borib, lotincha so'zlarning o'zbek tibbiy terminologiyasiga moslashuvini ilmiy asosda o'rgangan.

Bu olimlarning faoliyati tufayli O'zbekiston tibbiyot ta'limida lotin tili nafaqat o'qitish fani, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, bugungi globallasuv sharoitida lotin tili tibbiyotda nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy aloqa vositasi sifatida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tibbiyotdagi xalqaro kongresslar, maqolalar, ilmiy izlanishlar hamon lotin terminologiyasiga tayangan holda olib borilmoqda. Shunday ekan, O'zbekiston tibbiyot ta'limida lotin tilini chuqur o'rganish, uni amaliyotga tatbiq etish, ilmiy adabiyotlarni tarjima qilishda faol qo'llash — zamonaviy tibbiyotning global maydonida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir.

Xulosa

Lotin tili tibbiyotda ilmiy an'ana va xalqaro birlikni birlashtiruvchi noyob hodisadir. U tibbiyot tilini yagona, tushunarli va ilmiy asosli shaklda saqlab turadi. Shu boisdan, har bir tibbiyot xodimi uchun lotin tilini chuqur o'rganish kasbiy muvaffaqiyatning ajralmas qismidir. Lotin tili — bu tibbiyot fanining yuragi, uning ilmiy aniqligi va muloqotdagi yagona tili.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi o'quv-uslubiy qo'llanmalari.
2. "Tibbiyotda lotin tili asoslari" – Toshkent, 2022.
3. Gippokrat. "Aforizmlar". – Rim, eramizdan avvalgi V asr.
4. Avitsenna. "Tib qonunlari". – Buxoro, XI asr.
5. "Medicus International Journal" – 2023-yil, №4.
6. O'zbekiston Tibbiyot Akademiyasi – Lotin tili kafedrasini o'quv qo'llanmasi, 2024.
7. Vesalius, A. (1543). De humani corporis fabrica libri septem ("Inson tanasi tuzilishi haqida yetti kitob"). Basel: Johannes Oporinus nashriyoti.
8. Harvey, W. (1628). Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis in animalibus ("Hayvonlarda yurak va qon harakati haqida anatomiya mashqlari"). Frankfurt: William Fitzer Press.
9. Dyakovskiy, I. V. (1890). Medicinal Terminologia Latina ("Tibbiy lotin terminologiyasi"). Moskva: Tipografiya Imperatorskogo Universiteta.
10. Piragov, N. I. (1859). Anatomicheskiye izobrazheniya secheniy chelovecheskogo tela ("Inson tanasining anatomik kesimlari"). Sankt-Peterburg: Meditsinskaya Tipografiya.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2020). Tibbiyot sohasida lotin tili fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
12. Qodirova, M. S. (2021). Lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari. Toshkent: "Tibbiyot olami" nashriyoti.
13. Turdiboyeva, D. va Karimova, N. (2019). Tibbiyotda xalqaro terminologiya va lotin tili amaliyoti. Farg'ona: FJSTI nashriyoti

FARG'ONA VILOYATINING TARIXIY OBIDALARI

N.A.Sharipova

Qo'qon universiteti dotsenti

nar.kokand@gmail.com

Erkinjonova M

Qo'qon universiteti tarix yo'nalishi talabasi

Annotasiya. Mazkur maqolada Farg'ona viloyatining shakllanishi, qadimiy ziyoratgohlari va muqaddas qadamjolarining tarixi, ularning xalq hayotidagi o'rni hamda ma'naviy tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, viloyatda joylashgan eng mashhur ziyoratgohlar, ularning ziyoratchilar uchun ahamiyati va diniy turistik rivojlanishdagi roli haqida yoritiladi

Tayanch so'zlar: madaniy, ob'ekt, meros, madrasa, ziyoratgoh, qadamjo, qaror, ta'mirlash

Kirish

Mamlakatimizda madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrab-avaylash va ularni o'z holicha kelajak avlodlarga yetkazish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Sohaning huquqiy asoslari mustahkamlanib, olib borilayotgan amaliy ishlar izchilligini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti.

Jumladan, 2021 yil 19 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, bir qator vazifalar belgilab berildi.

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning eng qadimgi va madaniy jihatdan rivojlangan hududlaridan biridir. Qadimda bu diyor o'zining tabiiy go'zalligi, serhosil erlari, boy tarixi, qadimiy madaniyati va eng asosiysi-muqaddas ziyoratgohlari bilan ham mashhur bo'lgan. Farg'ona viloyatining deyarli har bir tumanida tarixiy va diniy ahamiyatga ega qadamjolar mavjud bo'lib, ular asrlar davomida xalq e'tiqodi va ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan.[6]

Tadqiqotchilarning aniqlashicha hozirgi kunda Farg'ona viloyatida taxminan 88-90 ta muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar mavjud. Bu maskanlarning aksariyati qadimiy davrlardan buyon xalq orasida hurmat bilan tilga olinadi. Ular orasida eng mashhurlari bilan tanishtirib o'tamiz.

Mamlakatimizda "Shohimardon", "Sheri Xudo" nomlari bilan sharaflangan Hazrat Ali ibn Abu Tolib karramallohu vajhahuga nisbat berilgan joylar uchraydi. Hazrati Ali Shohimardon ziyoratgohi – Farg'ona tumanidagi Yordon mahallasida joylashgan bo'lib, xalq orasida "Shohimardon" nomi bilan mashhurdir. Shohimardon atamasining kelib chiqishi ham mardlar shohi, to'rtinchi xalifa hazrati Ali nomi bilan bog'lanadi. Mahalliy afsonalarga ko'ra, hazrati Ali tez-tez Shohimardonga kelganlar va shu yerga dafn etilganlar. Hazrati Alining qabri to'rt tomoni tog' bilan o'ralgan, ikki daryo tutashgan joyda

joylashgan emish. Lekin bu afsonalar ilmiy jihatdan isbotlanmagan. Lekin shunga qaramay, bu joy nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni davlatlardan ham ko'plab ziyoratchilarni jalb qiladi [5].

Farg'onaning katta va qadimiy shaharlaridan biri Marg'ilonda ham bir qator tarixiy obidalar mavjud. Jumladan, 2000-yilda qadimiy shaharda Burhoniddin al-Marg'inoniy majmuasi qurilib, katta tantanalar bilan ochildi. Bu yerda Sayyid Ahmadxonxo'ja madrasasi ham mavjud bo'lib, uning qurilishi 1907-yilda boshlanib, 1909-yilda noma'lum me'mor tomonidan bitkazilgan. Madrasa 18 ta hujra va 2 ta ayvonli masjiddan iborat.

Marg'ilondagi Pir Siddiq majmuasi "Kaptar maqbarasi" nomi bilan ham tanilgan, tarix va mahalliy afsonalar bilan o'ralgan muqaddas ma'naviy maskan hisoblanadi. XVIII asrda qurilgan bu maqbara Farg'ona vodiysida bir qator zilzilalardan omon qolgan kam sonli obidalardan biridir.

Afsonaga ko'ra, Pir Siddiq majusiyatlardan g'orda yashiringanida, kaptarlar g'or yonida uya qurishga qaror qilib, uning eshigini muhrlagan. Ta'qibchilar g'orga yetib borib, barcha kaptarlarning o'z inlarida xotirjam o'tirganini ko'rgach, Pir Siddiqning ichkariga yashirinishi mumkin emas, aks holda ularni bezovta qilishadi, degan qarorga kelishdi. Butparastlar ketishadi va kaptarlar avliyoni qutqarib qolishgan deb hisoblanadi.

Buxoro amiri Subhonqulixon (1680-1702) tomonidan Marg'ilondagi Pir Siddiq mozoriga berilgan vaqfnomada bu ziyoratgohga Movarounnahrda "Chahoryorlar" deb atalgan to'rt xalifadan birinchisi Abu Bakr Siddiq (572-634) ning avlodi dafn etilgan, degan ma'lumotlar keltirilgan. Yozma hujjatlarda Hazrat Pir Siddiq nomi bilan qayd etilgan. Vaqtlar o'tishi bilan uning atrofida masjid, minora, maqbarali hovli, darvozaxona hamda kaptarxonadan iborat arxitektura kompleksi paydo bo'lgan. Shu sababli u xalq orasida "Kaptarxona", "Kaptarli mozor" deb ham ataladi[5].

Manbalarning guvohlik berishicha, maqbara to'g'ri burchak shaklda bo'lib (11.8x11m), peshtoq ravoqli, sag'anali to'rt burchak xona bilan uyg'unlik hosil qiladi. Maqbara ichida ikkita, uzunligi 5 metrli qabrlar mavjud. Rivoyatlarga ko'ra, bu ziyoratgohga Hazrati Abu Bakr Siddiqning avlodlari, ya'ni jiyanlari Shojalil va Poshshobibi dafn etilgan.

Majmuadagi kaptarxona binosi masjid binosi bilan deyarli bir vaqtda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan. Masjid binosi oldida joylashgan minora esa, 1920 yilda qurilgan. Bu haqda kirish eshigining tepasiga g'ishtdan terilgan yozuv-sana dalolat beradi. Shu yerlik aholi hamda arxitektor V.L.Voroninaning "Farg'ona viloyati xalq me'morchiligi" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, minora marg'ilonlik Usta Kichik degan shaxs tomonidan qurilgan.

Burhoniddin al-Marg'inoniyning chillaxonasi ham aynan shu yerda bo'lganligi haqida ham turli qarashlar bor. Ma'lumotlarga ko'ra, buyuk alloma Abu Bakr Siddiq avlodlaridan bo'lgan. Shu sababdan ham ul zot Pur Siddiq mozoriga, ya'ni ajdodlari dafn etilgan mozorga ziyorat uchun tez-tez kelib

turgan. Olimlarning ta'kidlashicha, uning aynan bu mozorga bo'lgan ixlosi shu yerda keyinchalik chilla tutganligiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak[3].

Ulug'mozor ziyoratgohi Marg'ilon shahrining Mashat mahallasida joylashgan. Xalq orasida "Mashat mozor", "Chaqqa mozor" nomi bilan mashhur. Etnograf olim A.Ch.Pisarchikning ta'kidlashicha, bu yer eng qadimiy mozor hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu yerga Imom Abdulaziz ibn Abdurazzoq ibn Nasr ibn Ja'far ibn Sulaymon ibn Sukkon al-Marg'inoniy dafn etilgan. U juda ham mashhur olim bo'lgan, ko'plab ma'rifatli insonlarni tarbiyalagan. Xo'ja Ma'oz ibn Jabal ziyoratgohi XVIII asrga oid tarixiy yodgorlik hisoblanadi. Yodgorlik Muhammad payg'ambarning xizmatida bo'lgan arab sarkardasi Mag'iz ibn Jabal nomi bilan bog'liq. Uning janubiy tomonidan "Mo'yi Muborak" ziyoratxonasi bor. Naqshlarining soddaligi, shakllarning bejrimligi va mutanosib ekanligi ushbu inshoot mahalliy me'morchilik an'analari rivojlangan XVIII asr boshida qurilgan degan xulosaga asos bo'ladi.

"Kirgil mozor" ziyoratgohi Marg'ilon shahriga janubiy tomondan kirishda shu nom bilan ataluvchi mahallada joylashgan. Ikkinchi nomi "Kirg'il mozor". Naql qilishlaricha, bundan tahminan ikki yuz yil muqaddam yashab o'tgan Kirg'il ota yoki "Mushukni tiriltirgan to'ram" nomi bilan mashhur bo'lgan Hazrat Ubaydullo ibn Abdulloh hojaga atab qurilgan maqbaradir. Xalq orasida bu ziyoratgoh haqida ham turli rivoyatlar tarqalgan. Ziyoratgoh 1933-yilda qurilgan. milliy uslubda qurilgan maqbara, chillaxona, ayvonlardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2019-yilning 4-oktyabrida Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan[7]

Xalq og'zida Kirgil ota ziyoratgohi deb atalishiga oid rivoyatlar ham mavjud: Kunlardan bir kuni hazrat Ubaydullo Xo'ja Eshon masjidda va'z aytib turgan mahali uning muridlaridan biri kelib „Hazratimning va'zlarini eshitishga kech qolibman“, deb tashqarida qolib kirishga jur'at qilolmay turgan bir paytda uning holati Ubaydullo Xo'ja Eshonga ayon bo'ladi: „Kirgil so'fi“, deya xitob qiladi ustoz. [Masjiddagilar](#) hazrat bu so'zlarni kimga aytdi ekan deb taajjubga tushganlarida eshik ochilib, boyagi so'fi kirib keladi. Shu tarzda Ubaydullo Xo'ja Eshonni „Kirgil ota“ deb atashgan ekan. Boshqa bir rivoyatda keltirilishicha, [Farg'ona vodiysi](#) hududiga [qalmoqlar](#) bosqin qilib, hozirgi Qirguli hududiga yetib kelganlarida bunday dahshatli baloni yo'q qilishni aholi Hazrat Ubaydullo Xo'ja Eshondan iltimos qiladi. „Avliyolar xudomas lekin Xudo ulardan judo emas“, deganlaridek Hazrat Ubaydullo Xo'ja Eshon erta tongda Xudodan yurtga kelgan baloni tezroq daf qilishni so'rab: „Xudoyim, bu dushmanni o'zing qaytar! Iloyo bitta qolmay qirilib ketsin“, deya duo qilgach, dushman o'z-o'zidan qirilib ketgan ekan. Shundan so'ng bu nom „Qirg'il“ yoxud keyinchalik „Qirguli“ deb yuritilgan[4].

Farg'onaning go'zal shahri Qo'qonda joylashgan Xudoyorxon saroyi me'morchilikning ajoyib durdonasi, mahalliy hunarmandchilik namunasi va Qo'qon xonligining ulug'vorligidan dalolatdir. 1871-yilda xonlikning so'nggi

hukmdori Xudoyorxon tomonidan qurilgan saroy uning boyligi va qudratini aks ettiradigan tarzda loyihalashtirilgan. «Qo'qon durdonasi» nomi bilan mashhur bo'lgan saroy dastlab 113 ta xonadan iborat bo'lib, to'rt akr maydonni egallagan bo'lsa, bugungi kunda unda atigi 19 ta xona qolgan.[2, 26]

Saroy murakkab koshinlar, yorqin naqshlar va an'anaviy islomiy geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Tashrif buyuruvchilar hozirda Qo'qon o'lkashunoslik muzeyi bo'lgan Xudoyorxon saroyiga tashrif buyurishlari mumkin. Unda mintaqa tarixi va madaniyati haqida tasavvur beruvchi xonlik va uning tashqarisidagi artefaktlar taqdim etilgan.[1,26]

Chorsu maydonida joylashgan Qo'qon Jomiy masjidi XIX asr boshlarida, Umarxon davrida qurilgan. Qo'qon xonligi davrida u juma namozi uchun asosiy masjid vazifasini bajargan bo'lsa, bugungi kunda Farg'ona vodiysidagi eng yirik masjidlardan biri hisoblanadi. Masjidning minglab namozxonlarni sig'dira oladigan keng hovlisi mahalliy hunarmandlarning mahoratini namoyish etuvchi mohirlik bilan o'yilgan va bo'yalgan 98 ta yog'och ustunlar bilan o'ralgan.

Masjidning o'ziga xos xususiyati uning 22 metrli ulkan minorasi va gumbazli namozxonasidir, u rang-barang plitkalar va islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Bugungi kunda Jomiy masjidida hududning diniy va madaniy merosi bilan tanishish mumkin bo'lgan kichik muzey mavjud.

Bu nafaqat muzey, balki yashil hovli va bog'larning osoyishtaligidan bahramand bo'lish uchun Qo'qonda tashrif buyuradigan yana bir mashhur joy.

Xulosa. Bu ziyoratgohlar nafaqat diniy e'tiqod uchun, balki turizm, ma'naviy tarbiya va madaniy merosni saqlash nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Har yili minglab odamlar bu muqaddas maskanlarga tashrif buyurib, duo qiladi, niyat qiladi va tarix bilan tanishadi. Ziyoratgohlar yosh avlodni ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, sabr-toqat va insoniylik ruhida tarbiyalaydi

Farg'ona viloyatining ziyoratgohlari xalqimizning diniy, ma'naviy va madaniy tarixining ajralmas qismidir. Ular asrlar davomida e'tiqod, sabr, sadoqat, insonparvarlik va birlik ramzi sifatida saqlanib kelmoqda. Bu maskanlarni asrab avaylash, ularning tarixini o'rganish va yosh avlodga etkazish – milliy o'zligimizni saqlashning eng muhim omillaridan biridir. Farg'ona ziyoratgohlari bugungi kunda ham xalqning ruhiy hayotida beqiyos o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev Ya. Hudoyorxon o'rdasi. – Namangan, 2016. – 26 bet.
2. ISTORIYA KOKANDA¹.-Ташкент. Фан, 1984. – 26 стр
3. [Oyina](#)
4. [Madaniy meros va tarixiy joylar - Fergana Valley CTN](#)
5. [Farg'onadagi tarixiy yodgorlikda noqonuniy qazishma ishlari olib borildi \(foto\)](#)
6. [Tarix va madaniyat](#)

QO'QON HOLVASINING TARIXIY-MADANIY O'RNI, TARKIBI VA TAYYORLANISH TEXNOLOGIYASI**N.A.Sharipova**

Qo'qon universiteti dotsenti, PhD

nar.kokand@gmail.com

Qayimova M.

Qo'qon universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon holvasining tarixiy kelib chiqishi, oziqaviy tarkibi, tayyorlanish texnologiyasi hamda milliy gastronomiyadagi o'rne yoritiladi. Shuningdek, ustoz–shogird an'analari asosida rivojlanib kelayotgan holva pishirish maktabining bugungi holati, uning iqtisodiy hamda madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Qo'qon holvasi o'zining tabiiy tarkibi, saqlanish muddatining uzoqligi va yuqori hazm bo'lish xususiyati bilan boshqa shirinliklardan ajralib turadi.

Tayanch so'zlar: ustoz, an'ana, meros, mahsulot, shirinlik, holva, ma'naviyat

Аннотация. В этой статье рассказывается об историческом происхождении, питательном составе, технологии приготовления пищи и роли в национальной гастрономии. Также будет проанализировано состояние, экономическое и культурное значение школы халва, развивающейся на основе традиций наставников-учеников. Результаты показывают, что состояние Кокандского халвы отличается от других сладостей своим естественным составом, длительным сроком хранения и высоким пищеварением.

Ключевые слова: наставник, традиция, наследие, продукт, сладость, халва, духовность

Abstract. This article covers the historical origins, nutritional composition, cooking technology, and role in national gastronomy. The state, economic and cultural significance of the halva school, which develops on the basis of the traditions of student mentors, will also be analyzed. The results show that the state of Kokand halva differs from other sweets in its natural composition, long shelf life and high digestion.

Keywords: mentor, tradition, heritage, product, sweetness, halva, spirituality

Kirish. O'zbekiston gastronomik merosi boy va rang-barang bo'lib, uning tarkibida shirinliklar alohida o'rin tutadi. Ulardan biri — Qo'qon holvasi — Farg'ona vodiysi kulinariya an'alarining qadimiy namunasi hisoblanadi. Ko'p asrlardan buyon tayyorlab kelinayotgan mazkur mahsulot qadimgi turkiy xalqlarning oziq-ovqat madaniyati, ayniqsa saroy shirinliklari bilan bevosita bog'liq. Temuriylar, Boburiylar va keyingi sulolalar davrida holva bayramona shirinlik sifatida o'z mavqeiga ega bo'lgan. Hozirgi kunda esa

Qo'qon holvasi nafaqat mahalliy bozorlarda, balki mamlakat bo'ylab tanilgan gastronomik brendga aylangan.[1, 78]

Natija va tahlillar. Manbalarga ko'ra, holva Temuriy malikalar va shahzodalar tomonidan xushxabarlarni nishonlashda ishlatilgan. Boburiy hukmdorlarning Hindistonga ko'chib o'tishi jarayonida holva pazlar ham safarda bo'lgan va ular hind kulinariya maktabiga ta'sir ko'rsatgan. Natijada Hindistonda sabzili va qovoqli holvaning turlari paydo bo'lgan. Bu holat Qo'qon holvasining keng tarqalgan tarixiy-madaniy nufuzi va ta'sir doirasini ko'rsatadi.[3, 55]

Mashhur holvapaz Mullajonovlar oilasi 1942-yildan buyon qandolatchilik qiladi. 4 avlod almashdi, yuzlab shogirdlar tayyorlandi. Hozir oilaning 10 nafar a'zosi tilga tegmay eriydigan shirinliklar ishlab chiqaryaptilar.[6, 24]

Hozirgi kunda Qo'qon holvasini tayyorlash bilan shug'ullanayotgan mashhur suloladan biri — Ahadovlar oilasi bo'lib, ularning vakili Ahadov Abdulloh bu san'atning to'rtinchi avlodi hisoblanadi.[7] Ularning hunarga sadoqati, mahsulot sifatini saqlashdagi e'tibori va gastronomik merosni davom ettirayotgani davlat tomonidan e'tirof etilib, ustaga "Mustaqillikning 30 yilligi" medali berilgan. Bu mukofot holva pishirish san'ati madaniy meros sifatida tan olinganidan dalolatdir.

Qo'qon holvasining asosiy tarkibi quyidagilardan iborat:

- shakar;
- suv;
- limon suvi;
- quritilgan sut;
- oliy navli sariyog'.

Bezatish uchun pista va turli xil quritilgan mevalar qo'shiladi. Eng muhim jihatlardan biri — tarkibiga kakao yog'ining qo'shilmashligi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kakao yog'i inson organizmi tomonidan qiyin hazm qilinadi, shu sababli Qo'qon holvasida u ishlatilmaydi. Holvaning tabiiy komponentlardan iboratligi uning foydali shirinlik sifatida qadrlanishiga sabab bo'ladi.[2, 69]

Usta-pazlarning ma'lumotiga ko'ra, hozirda bir kunda **100-150 kilogramm** holva tayyorlash mumkin. Bu yuqori ishlab chiqarish samaradorligi va shirinlikka bo'lgan talabning barqarorligini ko'rsatadi.

Qo'qon holvasining o'ziga xos xususiyati — uning uzoq muddat saqlanishidir. Salqin haroratda mahsulot **3-4 oy davomida** o'z sifati va ta'mini yo'qotmaydi. Shirinlikning tez hazm bo'lishi, me'da faoliyatini og'irlashtirmasligi va energetik qiymatining yuqoriligi uni to'y va marosim dasturxonlarida hamisha talabgir qiladi.[5, 33]

Qo'qon holvasi O'zbekistonliklarning marosim madaniyatida mustahkam o'rin egallagan. To'y, quda ziyofati, mehmondorchilik, bayramona tadbirlarda holva dasturxon ko'rkiga aylanadi. Bu holat shirinlikning nafaqat gastronomik, balki ijtimoiy-maishiy rolini ham tasdiqlaydi.

Xulosa. Qo‘qon holvasi O‘zbekistonning qadimiy gastronomik meroslaridan biri bo‘lib, u tarixiy ildizlari, an‘anaviy tayyorlanish texnologiyasi, tabiiy tarkibi va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ustozshogird maktabi davom etayotganligi va zamonaviy ustalarning sa‘y-harakatlari tufayli ushbu shirinlik bugungi kunda ham milliy identitetning muhim tarkibiy qismi sifatida yashab kelmoqda. Qo‘qon holvasining xalq orasidagi mashhurligi, uzoq saqlanishi va gastronomik qiymati uni o‘zbek oshxonasi faxriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, M. *O‘zbek milliy taomlari tarixi*. Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti. (2018).
2. Rasulov, A. (2020). *Farg‘ona vodiysi gastronomik merosi: an‘analar va zamonaviylik*. Farg‘ona: "Turon zamin" nashriyoti.
3. Murodova, S. (2017). "Temuriylar davrida saroy taomlari va shirinliklar tizimi". *Sharqshunoslik ilmi jurnali*, 4(12), 55–62.
4. Jo‘rayev, T. (2019). *Boburiylar madaniyati va gastronomiyasi*. Andijon: Ilm Ziyo.
5. Xolmirzayev, O. (2021). "O‘zbekiston milliy shirinliklarining tarkibi va oziqaviy xususiyatlari". *Oziq-ovqat texnologiyalari ilmiy jurnali*, 2(3), 33–40.
6. Ahmedov, U. (2022). *Milliy oshxonaning ijtimoiy-maishiy ahamiyati*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Og‘zaki manba: Ahadov Abdulloh — Qo‘qon holva pazi, Totli holva ustaxonasi (2024-yil, Qo‘qon shahar, Jome masjidi hududi).
8. O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros bo‘yicha ma‘lumotnoma (2023). Toshkent: Madaniyat vazirligi nashriyoti.

"TAQDIMOT YARATISH" MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI**Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna**Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)mamatova.zilolakhon@gmail.com**Tojialiyeva Mohigul Muzrobjonqizi**Fizika matematika fakulteti Amaliy matematika yo'nalishi
3- kurs talabasitojialiyevamohigul0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqdimot yaratish mavzusini o'qitishning zamonaviy pedagogik-metodik asoslari yoritilgan. Taqdimotning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning o'quvchilarda rivojlantiradigan kompetensiyalari, taqdimot yaratish bosqichlari hamda dizayn tamoyillarining ahamiyati tahlil qilinadi. Taqdimotni samarali o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar, ko'rgazmali ta'lim vositalari va loyihaviy yondashuvning o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, slayd dizaynining minimalizm, ranglar uyg'unligi, vizuallashtirish kabi tamoyillari ham batafsil tushuntiriladi. Taqdimotlarni baholash mezonlari, o'qitish jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida taqdimot yaratish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarni kommunikativ, kreativ va axborot savodxonligi kompetensiyalariga ega bo'lishiga yordam berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: taqdimot, o'qitish metodikasi, prezentatsiya, slayddizayni, minimalizm, ranglar uyg'unligi, interaktiv metodlar, ta'lim texnologiyalari, kompetensiya, ta'lim jarayoni.

Abstract. This article highlights the modern pedagogical and methodological foundations of teaching the topic of creating a presentation. The role of the presentation in the educational process, the competencies it develops in students, the stages of creating a presentation, and the significance of design principles are analyzed. The role of practical exercises, interactive methods, visual aids, and a project approach in the effective teaching of presentations is shown. The principles of slide design, such as minimalism, color harmony, and visualization, are also explained in detail. Recommendations are given on the criteria for evaluating presentations, problems encountered in the learning process, and their solutions. The research results show that the formation of presentation skills in the context of modern digital education helps students acquire communicative, creative, and information literacy competencies.

Keywords: presentation, teaching methodology, presentation, slide design, minimalism, color harmony, interactive methods, educational technologies, competence, educational process.

Аннотация. В данной статье освещены современные педагогико-методические основы преподавания темы создания презентации.

Анализируется роль презентации в образовательном процессе, компетенции, которые она развивает у учащихся, этапы создания презентации и значение принципов дизайна. Показана роль практических занятий, интерактивных методов, наглядных средств обучения и проектного подхода в эффективном обучении презентации. Также подробно объясняются такие принципы дизайна слайдов, как минимализм, цветовая гармония, визуализация. Приведены критерии оценки презентаций, проблемы, возникающие в процессе обучения, и рекомендации по их решению. Результаты исследования показывают, что формирование навыков создания презентаций в современных условиях цифрового образования способствует приобретению учащимися компетенций коммуникативной, креативной и информационной грамотности.

Ключевые слова: презентация, методика обучения, презентация, дизайн слайдов, минимализм, цветовая гармония, интерактивные методы, образовательные технологии, компетенция, образовательный процесс.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida taqdimot yaratish ko'nikmalari o'qitishning ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, visual o'qitish vositalarining keng qo'llanilishi va axborotning kompyuterlashtirilgan shakllarga o'tishi o'quvchilardan nafaqat mavzuni tushunish, balki uni samarali dizayn, tartib va mantiqiy tuzilma asosida ifodalashni ham talab etadi. Shu sababli "Taqdimot yaratish" mavzusini o'qitish metodikasi zamonaviy pedagogika oldida muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Taqdimot – bu ma'lumotni mantiqiy, visual va audio vositalar orqali tinglovchiga yetkazishning qulay va samarali shaklidir. Bugungi kunda Microsoft PowerPoint, Google Slides, Canva, Prezi va boshqa platformalar orqali prezentatsiyalar tayyorlash keng qo'llanilmoqda. Taqdimot yaratish bo'yicha o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish nafaqat texnik ko'nikmalar, balki dizayn, muloqot, tanqidiy fikrlash va kreativ yondashuvni ham rivojlantiradi. Ushbu tezisdagi taqdimot yaratish mavzusini o'qitishning metodik asoslari, bosqichlari, topshiriq turlari, baholash mezonlari, kompetensiyalar, interaktiv usullar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari tahlil qilindi [1;2].

Taqdimot yaratish mavzusining didaktik ahamiyatini bir necha omillar belgilaydi. Birinchidan, taqdimot o'quvchini axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va tizimlashtirishga o'rgatadi. Ikkinchidan, slydlar orqali ma'lumotni vizual ko'rinishda ifodalash o'quvchilarning vizual savodxonligini oshiradi. Uchinchidan, taqdimotni taqdim etish jarayonida o'quvchi auditoriya oldida nutq so'zlash, fikrni qisqa va aniq yetkazish hamda vaqtni boshqarish kabi

muhim kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shu sababli taqdimot yaratishni o'rgatish o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Taqdimot yaratish mavzusini o'qitishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarga taqdimotning mazmuni, turlari va ahamiyati haqida tushuncha berish; taqdimot dasturlarida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish; slayd dizayni, ranglar uyg'unligi, shrift tanlash va minimalizm tamoyillarini o'rgatish; taqdimotni mantiqiy tuzish, asosiy g'oyani ajratish, faktlarni tizimlashtirish malakalarini rivojlantirish; o'quvchilarda omma oldida nutq so'zlash madaniyatini shakllantirish. Ushbu maqsadlar ta'lim jarayonida kompleks yondashuvni talab qiladi.

Taqdimot yaratish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – rejalashtirish bosqichi. Bu yerda o'quvchi mavzuni aniqlaydi, auditoriyaning kimligini tushunadi, taqdimotning asosiy maqsadini belgilaydi va asosiy g'oyalarni rejalashtiradi. O'qituvchi o'quvchiga yo'naltiruvchi savollar orqali maqsadni aniq belgilashga yordam beradi: "Taqdimotingiz kim uchun?", "Asosiy xabar nima?", "Qaysi ma'lumotlar eng muhim?", "Prezentatsiya qancha vaqt davom etadi?". Ushbu savollar taqdimotning mantiqiy tuzilmasini shakllantirishga yordam beradi.

Ikkinchi bosqich – materiallarni yig'ish va saralash. O'quvchi mavzuga oid matn, rasm, diagramma, statistik ma'lumotlar, ilmiy manbalar va boshqa materiallarni izlaydi. Bu jarayon axborotni tahlil qilish, muhim faktlarni ajratish va ularni mantiqiy tartibga keltirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchi bosqich – slaydlarni loyihalash. Dizayn elementlarini o'rgatishda o'qituvchi minimalizm tamoyiliga alohida urg'u beradi. Minimalizmning asosiy qoidalaridan biri – bitta slaydda ortiqcha matn bo'lmasligi, ya'ni maksimal 6–7 satr matn joylashtirilishi tavsiya etiladi [2]. Shuningdek, ranglar uyg'unligi, shrift tanlash, fon bilan kontrastni ta'minlash, visual elementlardan (icon, grafik, rasm) o'rinli foydalanish kabi tamoyillar o'quvchilarga misollar orqali tushuntiriladi. Sans-serif shriftlar (Arial, Calibri, Helvetica) o'qilishi qulay bo'lgani uchun tavsiya etiladi. Dizaynning soddaligi va bir xil uslubda bo'lishi slaydlarni professional darajada ko'rsatadi.

To'rtinchi bosqich – taqdimotni taqdim etish bosqichi. Bu jarayonda o'quvchi nutq madaniyatiga, auditoriya bilan muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ovoz balandligi, tana tili, auditoriya bilan ko'z aloqasi, vaqtni boshqarish, savollarga javob berish kabi jihatlar o'rgatiladi. Zero taqdimotning samaradorligini faqat dizaynga, balki uni qanday taqdim etilishiga ham bog'liq. Taqdimot yaratishni o'rgatishda bir nechta metodlardan foydalanish mumkin. Eng samarali metodlardan biri — amaliy mashg'ulot metodi bo'lib, bunda o'quvchilar bevosita taqdimot dasturida mustaqil ishlaydi, slayd yaratadi, rasm qo'shadi, fon tanlaydi va vizual elementlarni joylashtiradi. Ko'rgazmali metod orqali esa o'qituvchi yaxshi va yomon taqdimot namunalarini taqqoslaydi, ularni tahlil qiladi va

o‘quvchilarga dizayndagi xatolarni ko‘rsatadi. Interaktiv metodlar — “Aqliy hujum”, “Blits-savol”, “Juftlikda ishlash”, “Tahlil va solishtirish” — o‘quvchilarni faol fikrlashga va kreativ g‘oyalar yaratishga undaydi. Loyihaviy metod esa o‘quvchilarning guruh bo‘lib biror mavzu bo‘yicha to‘liq prezentatsiya yaratishlarini o‘zichiga oladi; bu metod o‘quvchilarda jamoaviyishlash, mas’uliyat, kreativlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Taqdimot mavzusidagi topshiriqlar o‘quvchilarning darajasiga qarab bosqichma-bosqich murakkablashtiriladi. Boshlang‘ich darajada oddiy slayd yaratish, matn va rasm joylashtirish, shriftni o‘zgartirish kabi vazifalar beriladi. O‘rta darajada diagramma, jadval, SmartArt, animatsiya qo‘shish, minimalizm qoidalarini qo‘llash kabi topshiriqlar beriladi. Yuqori darajada esa murakkab infografika yaratish, Prezi va Canva bilan ishlash, interaktiv taqdimot tayyorlash, video va audio qo‘shish kabi vazifalar bajariladi. Taqdimotni baholash mezonlari ham aniq bo‘lishi kerak. Mazmuniy mezonlarda mavzuning to‘liq yoritilishi, faktlarning to‘g‘riligi va ilmiylik darajasi baholanadi. Dizayn mezonlari — ranglar uyg‘unligi, slaydlar bir xilligi, minimalizmga amal qilinishi va vizual vositalarning mosligi. Texnik mezonlar — animatsiya to‘g‘ri qo‘llanilgani, grafik sifatining yaxshi bo‘lishi. Nutqiy mezonlar esa talabaning chiqish madaniyati, auditoriya bilan muloqoti, ovoz balandligi va vaqtni boshqarish darajasiga asoslanadi [3;4].

O‘quvchilarga dars jarayonida turli xil metodlarni qo‘llab dars o‘tilsa o‘quvchilarni shu fanga bo‘lgan qiziqishi oshadi va o‘tilgan mavzular o‘quvchilarni esida qoladi va bu mavzularni mustahkam o‘rganib olishadi .

“ZAKOVAT” USULI

Zakovat usuli asosan darsni o‘tilgan mavzuni takrorlash hamda darsni mustahkamlash qismlarida o‘tkaziladi. Bu usul o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tezkorlik bilan javob berishga undaydi. O‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu usul o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlashda ham yordam beradi. Zamonaviy o‘qituvchi kompyuterning amaliy dasturlarida ishlashni mukammal bilishi lozim. Zakovat usuli “Zakovat” intellektual o‘yiniga o‘xshab ketadi. Bu usul Power Point dasturida tayyorlanadi. Baraban o‘quvchi tomonidan bosiladi. Strelka qaysi savolga borib tuxtasa o‘sha savol ochiladi



1	7
2	8
3	9
4	10
5	11
6	12

Bu metodka o‘quvchilar o‘tilgan mavzularni mustahkamlab olishadi .

MO’JIZALAR MAYDONI USULI

Mo’jizalar maydoni usuli o’quvchini tez idrok qilish va hozirjavoblikka chorlaydigan usuldir. Yangi mavzuni o’tishda o’quvchilar bilimini sinashda bu usul qiziqarliligi, tafakkur va xotirani o’stirishi bilan ajralib turadi.

Bu usulni men Power Point dasturida ishlab chiqdim. Bu usulni tuzishda men har xil animatsion (harakatlanuvchi) effektlardan foydalanman. Bu usulda dastlab javob so’z kataklarda yashiringan holda chiqadi, keyin savol chiqadi. O’quvchini hozirjavoblikka chorlovchi so’zlar, ya’ni vaqtga qara, qani top, tezroq top kabi so’zlar har xil harakatlar va rasmlar bilan birga chiqadi. Agar o’quvchi so’zni topa olmasa, javob so’zning birinchi harfi ochiladi. So’z topilgandan keyin o’quvchi qarsak va musiqa bilan olqishlanadi



Bu metod darsda qo'llanilganda o'quvchilar o'zlarini bilimlarini sinab olishadi va bu o'yinli metod orqali o'zlarini rag'batlantirib olishadi . Har bir to'g'ri topilgan savolga bu slayd showda barakallasiz to'g'ri javob berdingiz kabi ovoz chiqaradi va o'quvchilarni qiziqishini oshiradi .



ZINAMA-ZINA USULI

Zinama-zina usuli o'quvchilar diqqatini bir joyga to'plab, ularni ongli tafakkurlashga chorlaydi. Bu interfaol usulni deyarli barcha o'quv fanlarida samarali qo'llash mumkin.

ZINAMA-ZINA USULINI TUZISH TARTIBI

Bizga ma'lumki mahoratli o'qituvchi kompyuter dasturlarida mukammal ishlay olishi shart. Bu usul kompyuterning amaliy dasturlaridan bo'lgan Power Point dasturida tuzilgan. “Zinama-zina” usuli o'quvchilarni ruhiy dam olishini ta'minlaydi. O'quvchilarga navbati bilan 5 ta savol beriladi. Savollarning javoblari zinalarda yashiringan bo'ladi. O'quvchilar tomonidan to'g'ri javob aytilgunga qadar zina ochilmaydi. 5 ta zinadagi 5 ta savolga to'g'ri va to'liq javob berilsa, qushcha inidan uchib chiqadi va sayrab beradi.



zinama zina

Bu metodimizda yangi o'tilgan mavzulardagi atamalar qanchalik eslarida qolganini aniqlab olishimiz va o'quvchilarni baholab olishimiz mumkin.

mashqlari o'tkazish ushbu muammolarning yechimi bo'lib xizmat qiladi. Taqdimot yaratish va uni taqdim etish jarayonida o'quvchilarda bir qator muhim kompetensiyalar rivojlanadi. Bular : axborot - kommunikatsiya kompetensiyasi, tahlil va sintez ko'nikmalari, kreativ fikrlash, muloqot qilish kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi. Ushbu kompetensiyalar o'quvchilarning nafaqat ta'limda, balki kelajak kasbiy faoliyatida ham qo'l keladi.

Xulosa. Taqdimot yaratish mavzusini o'qitish zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. Bu mavzuni o'rganish o'quvchilarda axborotni qayta ishlash, tizimlashtirish, dizayn asoslarini bilish, kommunikativ va kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Taqdimot yaratish metodikasini to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilar nafaqat texnik jihatdan, balki mazmun va dizayn nuqtai nazaridan ham professional taqdimotlar tayyorlay oladigan darajaga yetadi. Mavzuni o'qitishda bosqichma-bosqich yondashuv, amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar, aniq baholash mezonlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Natijada o'quvchilar mustaqil fikrlovchi, axborot bilan ishlay oladigan, kreativ yondasha oladigan va auditoriya oldida ravon nutq so'zlay oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Ushbu dars jarayonida qo'llanilgan Zinama-zina, Mo'jizalar maydoni, Zukko haydovchi va Zakovat metodlari o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va mavzuni bosqichma-bosqich puxta o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatdi. Zinama-zina metodi orqali o'quvchilar bilimlarni izchil va tushunarli tarzda egallashdi, Zukko haydovchi metodi esa ularning tezkor fikrlashi va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirdi. Zakovat metodi umumiy raqobat ruhini yaratib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini yanada faollashtirdi.

Bu metodlar darsni jonli, qiziqarli va mazmunli o'tishiga xizmat qildi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qildilar, guruh bo'lib ishlash orqali muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Interfaol yondashuv darsning samaradorligini oshirib, mavzuni chuqurroq anglashga imkon berdi. Shu sababli bu metodlardan kelgusida ham dars jarayonida foydalanish ta'lim sifatini yanada yaxshilaydi va o'quvchilarni faollikka undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev, J., & Usmonov, S. Pedagogika. — Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Nashriyoti, 2019. (O'qitish jarayoni, metodlar, tamoyillar.)
2. Hoshimov, K., & To'xtasinov, F. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. (Zamonaviy o'qitish texnologiyalari, innovatsion metodlar.)
3. Qodirova, F. M. Didaktika (o'quv jarayonini tashkil etish asoslari). — Toshkent: "Nosir", 2018. (Ta'lim jarayonining shakl va metodlari haqida fundamental qo'llanma.)

IMPORTANCE OF FOOD COMPOSITION DATA TO NUTRITION AND PUBLIC HEALTH

Norqulova Zohida Toshboyevna

Dotsent of the Department of " Agricultural and food technology " of Jizzakh Polytechnic Institute E-mail: zoxidanorqulova196805@mail.ru.

Ergashboyeva Gavhar Zafarjon qizi

Student of Jizzakh Polytechnic Institute.
E-mai: zoxidanorqulova196805@mail.ru

Gofurjonova Sitora Jahongir qizi

Student of Jizzakh Polytechnic Institute.

Abstract: Adequate nutrition is one of the pillars of public health. Before developing and implementing effective intervention programmes to improve nutrition at the population level, it is important to know the nutritional situation of the target group.

Keywords: Food composition data; nutrition assessment; public health nutrition; dietary guidelines; nutritional epidemiology; food fortification; clinical dietetics; nutrient analysis; food policy; micronutrient deficiency.

Introduction. The estimation of nutrient intake from food consumption requires reliable data on food composition. These data are also the fundamentals of food-based dietary guidelines for healthy nutrition, containing the necessary information on food sources for different nutrients. Furthermore, food composition tables can provide information on chemical forms of nutrients and the presence and amounts of interacting components, and thus provide information on their bioavailability. For some nutrients such as vitamin A, vitamin E and niacin, the concept of equivalence has been introduced to account for differences in the availability and biological activity of different chemical forms.

Non-nutritive food components

Although most food composition tables focus on energy, macro- and micronutrients, interest in non-nutritive components is increasing. Considering the beneficial effects of biologically active secondary plant cell compounds such as polyphenols and carotenoids, more data on these are needed. On the other hand, there are a number of naturally occurring or 'man-made' non-nutritive substances with negative effects, and to control exposure, the main dietary sources must be known. Another aspect is contaminants, which could have detrimental effects on consumers' health. Among these are agrochemicals, industrial pollutants reaching the food chain and substances formed during food preparation. A valid risk assessment requires data on exposure, and thus on the contents of contaminants in foods. However, these data are highly variable and may significantly differ even within narrowly confined regions.

Current food composition databases are far from complete

The fact that composition tables generally do not provide information about the origin of substances found in food can also influence their usability. For example, the German Nutrient Data base does not discriminate between naturally occurring and added sucrose impeding the estimation of added sucrose intake that should be limited. Points of focus: Considering the increasing number of persons relying on community nutrition and catering, healthy menu lines can improve the consumers' diets and contribute to nutrient supply. The development and implementation of appropriate guidelines also need food composition databases (FCBs) to compose meals. The ever-increasing number of new food preparations and manufactured products has resulted in a need for procedures for regularly updated data. Moreover, there is a lack of data particularly for essential trace elements such as copper, chromium or molybdenum and also vitamin K, as well as the already mentioned non-nutritive components. Limited comparability between countries is another issue. Regional differences arise especially from the use of local varieties, different soil quality or meteorological aspects. This variability is further increased with composite meals because of variation in recipes.

Role of Food Composition Data in Developing Dietary Guidelines

National dietary guidelines and recommended nutrient intakes are largely based on food composition information. Estimations of population-level nutrient requirements rely on knowing the average nutrient content of commonly consumed foods. Without reliable FCD, policymakers risk producing recommendations that do not align with the population's actual dietary patterns or nutritional needs.

FCD also supports the development of food pyramids, school meal standards, maternal and child nutrition recommendations, and dietary planning for vulnerable groups. Understanding nutrient distribution across foods allows nutrition professionals to model balanced diets, optimize food group proportions, and promote evidence-based healthy eating habits.

Importance of FCD in Nutritional Epidemiology and Public Health Monitoring

Food composition data plays a critical role in identifying and monitoring nutrition-related diseases such as obesity, type 2 diabetes, cardiovascular illnesses, iron deficiency anemia, and iodine deficiency disorders. Epidemiological studies rely heavily on FCD to assess dietary intake accurately. Tools like food frequency questionnaires, 24-hour recalls, and diet histories require precise nutrient values for all reported foods.

Examples include:

- Assessing iron or folate deficiencies in populations by evaluating the nutrient density of local diets.

- Investigating diabetes risk through foods' carbohydrate content, glycemic index, and glycemic load.
- Monitoring protein-energy malnutrition by determining the energy and protein contributions of staple foods.

In this way, FCD provides a scientific basis for public health interventions, enabling health authorities to track trends, identify at-risk groups, and design effective nutrition programs.

Conclusion: Information about food composition is necessary for the assessment of diet quality and the development and application of food-based dietary guidelines, providing a useful tool for the field of public health nutrition. In this regard, more attention should be paid to the preparation, extension and maintenance of FCBs.

References

1. Burlingame, B., & Charrondiere, R. (2012). Food composition data: Production, management, and use (2nd ed.). Rome: FAO.
2. Gibson, R. S. (2005). Principles of nutritional assessment (2nd ed.). Oxford University Press.
3. World Health Organization. (2004). Vitamin and mineral requirements in human nutrition (2nd ed.). WHO Press.
4. Food and Agriculture Organization. (2018). FAO/INFOODS food composition database for biodiversity. FAO.
5. U.S. Department of Agriculture. (2020). FoodData Central: Integrated data for food composition. USDA Agricultural Research Service.
6. Deharveng, G., Charrondière, R., Slimani, N., Southgate, D. A. T., & Riboli, E. (1999). Comparison of nutrients in the food composition tables available in the European Union. *European Journal of Clinical Nutrition*, 53(1), 60–79.
7. Greenfield, H., & Southgate, D. A. T. (2003). Food composition data: Production, analysis and presentation (2nd ed.). FAO/UN University Press.
8. Hu, F. B. (2008). Obesity epidemiology. Oxford University Press.

"KAPITAN GRANT BOLALARI" ASARINING ADABIY VA ILMIY TAHLILI**Qodirova Gulbahor Abdullajon qizi**

ADU Matematika va mexanika fakulteti

Amaliy matematika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fransuz yozuvchisi Jyul Vernning "Kapitan Grant bolalari" asari adabiy tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan sarguzashtlar, obrazlar orqali ifodalangan insoniy qadriyatlar, geografik va ilmiy bilimlarning asarga singdirilishi hamda asarning sarguzasht janridagi o'рни yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jyul Vern, Kapitan Grant, sarguzasht, ilmiy fantastika, tahlil, insonparvarlik, sadoqat.

Jyul Vern – dunyo adabiyotining sarguzasht va ilmiy-fantastika janrlaridagi eng mashhur yozuvchilaridan biri. Uning "Kapitan Grant bolalari" asari 1868-yilda sarguzasht janrida yozilgan mashhur romanlardan biri bo'lib, ilmiy asoslangan tasvirlari va yuksak axloqiy g'oyalari bilan adabiy merosda alohida o'rin egallaydi.

Asar lord Glenarvan va uning yaxtasi "Dunkan" ekipajining kapitan Grantni qidirib Janubiy Amerikadan Avstraliyagacha bo'lgan sayohatini tasvirlaydi. Ular yo'lda ko'plab sarguzashtlarga duch keladilar. Asar syujeti harakatga boy, obrazlar esa jonli va ishonchli yaratilgan.

Jyul Vernning "Kapitan Grant bolalari" asari mazmunan boy, g'oyaviy jihatdan chuqur va sarguzashtlarga boy syujetga ega bo'lib, o'quvchini bir zumda o'ziga tortadi. Asar syujeti kapitan Grantni qidirishga otlangan guruh a'zolarining turli qit'alardagi sarguzashtlarini o'z ichiga oladi. Asarda muallif insoniy fazilatlar — sadoqat, jasorat, oila qadriyati, do'stlik, halollik va ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqni obrazlar orqali chuqur yoritgan.

Asarda bir nechta asosiy qahramonlar mavjud. Har biri o'ziga xos xarakterga ega va sarguzashtlar davomida ularning xarakteri yanada chuqur ochiladi. Asarda ustuvor fazilatlardan biri insoniylik bo'lib, bu fazilat asar qahramoni bo'lgan lord Glenarvan tomonidan ideal tarzda tasvirlangan. U o'zgalarning taqdiriga befarq qaramaydi, begona insonlar muammosini o'z dardidek qabul qilib, uzoq va mashaqqatli yo'lga chidaydi va hattoki hayotini xavf ostiga qo'yadi.

Sadoqat va oila qadriyati fazilatlari ham chuqur ifoda etiladi. Oila qadri jumlasida 16 hamda 12 yoshli bolalar tomonidan yuksak qadrlanadi va insonni ilhomlantiradi. Sa'y-harakat, sadoqat va mehr-oqibat orqali oilaviy rishtalarning mustahkamlanganligi ko'rsatiladi. Oilaning inson hayotidagi beqiyos o'рни yaqqol namoyon etiladi. Asarda oilaviy qadriyatlar nafaqat qon-qarindoshlik, balki insoniy rishtalar, mehr va mas'uliyat orqali ham shakllanishi yaqqol aks etgan. Ya'ni lord Glenarvan va uning rafiqasi Grantning farzandlariga ko'rsatgan g'amxo'rlik va mehribonliklari. Bu jihatlar asarda chuqur va ta'sirchan holda yoritilganligi inson onggiga oila

muqaddasligini va yaqinlarga sadoqatli bo'lishni yana bir karra eslatadi. Sadoqat tushunchasi markaziy-axloqiy g'oyalardan biri sifatida har bir qahramonning harakatlarida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Asar orqali sadoqatning nafaqat oilaviy, balki insoniy, do'stona, vatanparvarlik tushunchalari ham anglashiladi. Sadoqat asarda faqat hissiy darajada emas, harakat jasorat va fidoyilik orqali ham amaliy ifodasini topadi. Har bir qahramon o'z roli orqali muhim hayotiy saboqlarni beradi. Har bir voqea, har bir sarguzasht o'z ichida bir ibratni yashiradi. Ularning xarakterlari va hatti-harakatlari o'quvchiga ko'p narsani anglatadi. Qahramonlar boshidan o'tkazgan voqealar orqali o'zgaradi va rivojlanadi. Bu esa inson hayot yo'llarida har jabhada o'sishi, ayniqsa fikrlashi va mas'uliyat hissi ortishiga olib keladi.

"Kapitan Grant bolalari" asarida ilm-fan va bilimning kuchi asosiy g'oyalardan biri sifatida yorqin ifodalangan. Asarda voqealar turli qit'alarda kechadi. Geografiya, biologiya, dengizchilik, iqlimshunoslik kabi sohalarga oid bilimlar ko'p uchraydi. Har bir joy o'ziga xos tabiati, iqlimi va madaniyati bilan tasvirlanadi. Jyul Vernning o'tkir kuzatuvchanligi va geografik bilimlari asarni yanada boyitadi. Bu esa uni nafaqat badiiy, balki ilmiy-ommabop asarga aylantiradi. Asar bolalar va yoshlar ongini boyitishga, ular orasida ilmga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Jyul Vern bu asarda ilmiy tafakkur va bilim orqali murakkab vaziyatlardan chiqish, muammolarni hal qilish mumkinligini ko'rsatadi. Aqliy salohiyati, tafakkuri, kuzatuvchanligi orqali inson boshqalarga yordam bera olishi mumkinligi ko'rsatilgan. Nafaqat ilmiy bilimga ega bo'lish, balki uni real hayotda qo'llay olish, tahlil qila olish insonni yuksaklikka yetkazadi. Yosh avlodga ilm o'rganish, dunyoqarashni kengaytirish va fikrlashni o'stirishning muhimligi singdiriladi. Jyul Vernning yozish uslubi shundayki, u o'quvchini nafaqat hayajonga soladi, balki yangi bilimlar bilan ham boyitadi va ilm-fanga mehr uyg'otadi. Ilmni ulug'lash g'oyasi ilgari suriladi.

Asarda bayon etilgan hodisalar o'quvchini shunchaki voqealarning izidan emas, balki ma'naviy jihatdan ham o'sishga chorlaydi. Kitob o'quvchiga shuni anglatadiki, biror maqsad sari intilishda mashaqqatlardan qo'rqqmaslik lozim. Asarda bir necha muvaffaqiyatsizliklar kitobxonni qayg'uga soladi, ammo Jak Paganel ismli qahramon orqali kulguli lahzalar o'rnida va chiroyli tarzda qo'llanilganligi hech kimni e'tiboridan chetda qolmaydi. Bu orqali inson har qanday og'ir vaziyatda ham tushkunlikka tushib qolmaslikni, har bir vaziyatning ijobiy tomonlarini izlash kerakligini anglab yetadi. Bundan tashqari hayotning turli qirralari: tabiatning qudrati, odamlarning mehribonligi yoki zolimligi, do'stlik va xiyonat, xavf va qutqaruvni ko'rsatadi. Shuningdek, asarda millatlar o'rtasidagi farq, insoniyat birligi, madaniyatlar haqida ham o'ylantiradigan jihatlar mavjud.

Asar yoshlar uchun motivatsiya, hayotiy saboq va ilhom manbai bo'la oladi. U insonni sabrli, dono va halol bolishga undaydi. Shuningdek, ilmga

intilish, geografiya va tabiat haqida bilim olishga rag'batlantiradi. Jyul Vernning o'zi ham ilm-fanga qiziqqan shaxs bo'lgan. Shu bois asarda geografik ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Asar nihoyasiga yetganda kitobxonning qalbida chuqur taassurot qoldiradi. Asarda yaxshi va yomon odamlar o'rtasidagi farq ham aniq berilgan. Bu esa o'quvchining axloqiy qarashlarini shakllantiradi. Xavflar, aldovlar, firibgarliklar hayotning qora ranglari sifatida aks ettirilgan, lekin bu ranglar orasidan doimo halollik, sadoqat va mehr-oqibat yorug'lik kabi ajralib turadi. Asarning ijobiy ruhi, umid va yaxshilik g'oyalariga boy bolishi uni yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega kitobga aylantiradi. Vatanga bo'lgan muhabbat, erkinlik va adolat tushunchalari ham yanada mukammal tarzda tushuniladi.

Asarning yozilgan davri (XIX asr o'rtalari)dagi tarixiy, ijtimoiy va ilmiy muhit ham yoritilib ketilgan. Sanoat inqilobi, kashfiyotlar, dengiz sayohatlari, kolonial kuchlar raqobati, geografik xaritalashga alohida urg'u berilgan.

Garchi asar XIX asrda yozilgan bo'lsa-da, undagi g'oyalar bugungi kunda ham dolzarb. Global dunyoqarash, tabiatni o'rganish, sadoqat va insonparvarlik kabi mavzular har bir davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Hozirgi yosh avlod uchun bu asar bilimga intilish, murakkab vaziyatlarda bardavomlik, jamoa bo'lib ishlash va maqsadga erishish kabi muhim saboqlarni beradi. Shuningdek, globallashuv jarayonida turli xalqlar madaniyati bilan tanishish imkonini ham yaratadi. Mening fikrimcha, har bir yosh bu asarni kamida bir marta o'qib chiqishi kerak. Chunki bu roman har bir kitobxon hayotida chuqur iz qoldiradi va to'g'ri yo'l ko'rsatadi

"Kapitan Grant bolalari" asari o'z davrida katta adabiy voqea bo'lgan. U sarguzashtlar orqali insoniy fazilatlar, do'stlik, fidoiylilik, bilimga bo'lgan ishtiyoqni ulug'laydi. Jyul Vern bu asar orqali yosh avlodni ilm-fan va izlanishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jyul Vern "Kapitan Grant bolalari" asari.

KONFUTSIYNING FALSAFASI: "SUHBAT VA MULOHAZALAR" ASARINING TAHLILI

Jo'rayeva Irodaxon Xusanboy qizi

AndDU Matematika va mehanika fakulteti

Amaliy matematika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotasiya: Konfutsiyning "Suhbat va mulohazalar" asari (yoki "Lunyu") qadimgi Xitoy falsafasining eng muhim yodgorliklaridan biri bo'lib, u axloq, siyosat, jamiyat va shaxsiy yuksalish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu maqolada asarning asosiy mazmuni, Konfutsiy falsafasining tamoyillari, ularning zamonaviy ahamiyati va insoniyat tarixidagi o'rni tahlil qilinadi. Konfutsiy ta'limoti ijtimoiy barqarorlik, axloqiy fazilatlar va bilimning ustunligi g'oyalari asoslanadi. Bu maqola asar tahlili orqali Konfutsiy qarashlarining organilishi va bugungi kunda qanday tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Konfutsiy, Suhbat va mulohazalar, Xitoy falsafasi, axloq, siyosat, ta'lim, fazilat, jamiyat, tartib, hukmdor, shaxsiy yuksalish, adolat, halollik, bilim, falsafiy meros.

Sharq falsafasining durdonasi bo'lgan "Suhbat va mulohazalar" asari Xitoyning mashhur faylasufi Konfutsiyga tegishli bo'lib, uning o'g'itlari va shogirdlari bilan bo'lgan suhbatlaridan tashkil topgan. Ushbu asar Konfutsiy hayotining turli bosqichlarida aytgan fikrlarini, axloqiy tamoyillarini va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlarini o'z ichiga oladi. Konfutsiy falsafasining asosida insoniylik, axloq, izzat-nafs, murosa, tartib va o'zlikni tarbiyalash kabi tushunchalar yotadi. Endi asarning tuzilishi va g'oyaviy yo'nalishlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak: "Suhbat va mulohazalar" asari yigirmata bobdan iborat bo'lib, har bir bobda muayyan mavzular yoritilgan. Asarda Konfutsiy o'z shogirdlariga bergan ogitlari orqali insonning ma'naviy jihatdan yuksalishini asosiy maqsad qilib qo'yadi. U jamiyatda tartib va barqarorlikka erishish uchun, eng avvalo, har bir shaxs o'zini tarbiyalashi kerakligini takidlaydi.

Asardagi muhim g'oyalardan ba'zilari quyidagilardir:

Ren - insoniylik va mehr-shafqat;

Li - marosim va odob-axloq;

Yi - adolat va halollik;

Zhi - bilimdonlik va aql-idrok;

Xin - sadoqat va vafodorlik.

Konfutsiyning so'zlariga ko'ra, ideal jamiyat axloqli odamlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Har kim o'z o'rnini bilib, unga muvofiq harakat qilsa, jamiyatda tartib o'rnatiladi.

Bugungi kunda ham Konfutsiy ta'limoti dolzarb bo'lib qolmoqda. Uning fikrlari zamonaviy ta'lim tizimi, siyosiy boshqaruv va shaxsiy rivojlanish uchun muhim poydevor bo'la oladi. Masalan, Konfutsiy: "Haqiqiy rahbar xalqqa xizmat qiladigan, ularni sevadigan va ularga adolatli munosabatda bo'ladigan kishidir", deydi. Bu g'oya hozirgi rahbarlar uchun ham juda muhim yo'l-yo'riqdir.

Konfutsiy ilm olishni ham inson uchun eng ulug' ne'mat deb bilgan. U bilimga intilish va uni hayotga tadbiq etish orqali inson mukammallikka erishadi,

deya ta'kidlaydi. Uning "U organganini amalda qo'llagan kishi - haqiqiy donodir" degan fikri buni yaqqol ko'rsatadi. Konfutsiy jamiyatdagi har bir inson o'z vazifasini bilib, uni vijdonan bajarsa, butun tizim uyg'un ishlaydi degan fikrda edi. Ota mehribon, o'g'il - itoatli, do'st - sadoqatli, hukmdor - adolatli bo'lishi kerak. Bunday me'yorlar nafaqat qadim Xitoyda, balki har qanday davr va jamiyat uchun dolzarbdir.

Konfutsiy siyosatni kuch bilan emas, axlogiy yetakchilik bilan boshqarish kerakligini targ'ib qilgan. Uning nazarida, xalq o'z rahbarini yaxshi fazilatlari bilan tanib, unga ergashishi kerak edi. Bu tamoyil, bugungi demokratik qadriyatlar bilan hamohangdir.

Konfutsiyning "Suhbat va mulohazalar" asari qadimiy Xitoy falsafasining eng yuksak namunalaridan biri bolib, uning asarida ko'rsatilgan axloqiy, siyosiy va ijtimoiy g'oyalar bugungi kundagi ko'plab jamiyatlar uchun muhim ahamiyatga ega, Ushbu asarda ta'kidlangan g'oyalar va tamoyillar - insoniylik, adolat, halollik, bilimga hurmat, rahbarning axloqiy javobgarligi - nafaqat Xitoy madaniyatida, balki butun dunyo miqyosida qadrlanadi.

Shu boisdan, bu asar nafaqat otmishdagi ijtimoiy tizimlar uchun, balki zamonaviy jamiyatlar va har bir shaxsning rivojlanishiga katta tasir korsatgan Konfutsiyning ta'limoti odamlarning hayotini ma'naviy jihatdan yuksaltirishga, ular orasida axloqiy fazilatlarni targ'ib qilishga yo'naltirilgan. Xulosa qilib aytganda, Konfutsiy o'z asarida butun bir jamiyatni, shuningdek, uning har bir a'zosi uchun ma'naviy va axloqiy yuksalishni o'zining asosiy maqsadi sifatida belgilaydi.

Bundan kelib chiqadiki, Konfutsiy ta'limoti nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki hozirgi kunda ham ahamiyatli. Bugungi rahbarlar, pedagoglar va har bir fuqaro uning fikrlarini hayotga tadbiiq etish orqali jamiyatni yaxshilashga va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga intilishlari kerak. Konfutsiy ogitlari orqali odamlar axloqiy mas'uliyatni his qilishni, jamiyatda oz ornini topishni, ilm olishni va bilimni amalda qo'llashni o'rganadilar.

Shu sababli, Konfutsiyning "Suhbat va mulohazalar" asari nafaqat qadimiy Xitoyning, balki butun insoniyatning ma'naviy va axloqiy o'rnaklaridan biridir. Bugungi kunda uning g'oyalari bizga nafaqat jamiyatda tartib va barqarorlikni o'rnatishga, balki shaxsiy rivojlanish va o'zligini anglashda yordam beradi. Asar, shuningdek, rahbarlik, bilim, adolat va axlogiy fazilatlari kabi asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Demak, Konfutsiy ta'limotini o'rganish orqali insoniyat nafaqat otmishdagi xatolarni tuzatishi, balki kelajakda ham o'zini yuqori ma'naviy fazilatlarga intilishga yo'naltirishi mumkin. Bu asar bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yoqotmagan va har bir shaxs uchun o'rnak bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konfutsiy, "Suhbat va mulohazalar". Toshkent – 2014.
2. Muhammadjon Obidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan journalist. Toshkent – Pekin - Chyuyfu. 2014 – yil, yanvar.